

S.X. MAXKAMOV

U.Q. DAMINOVA,
D.A. SHOUMAROVA



INTERYER JIHOZLASH

o'quv qo'llanma

Toshkent - 2020

32.965ya73

27a

M-32

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI

TOSHKENT ARHITEKTURA – QURILISH INSTITUTI

Maxkamov S. A., Daminova U.O., Shaumarova D.A.

INTERYER VA JIHOZLASH

5150900-Dizayn, 5341000- “Arxitektura” va 5150900 -“ Interyer va
landshaft dizayni” ta’lim yo’nalishlari uchun o’quv qo’llanma

TOSHKENT- 2020

UO'K 004.35(075.8

KBK 32.965ya73

I-61

Interyer jihozlash [Matn] : darslik / S.X.Maxkamov [va boshq.]. - Toshkent : Shafoat Nur Fayz, 2020. - 144 b.

Ushbu “Interyer va jihozlash” nomli o‘quv qo‘llanma 5150900- Dizayn, 5341000 - “Arxitektura” va 5150900 -“Landshaft dizayni va interyer” o‘quv yo‘nalishlari uchun mo‘ljallangan. Ushbu yo‘nalishda tahsil oladigan talabalarga o‘tiladigan o‘quv dasturga muvofiq holda yozilgan.

Qo‘llanma nafaqat talabalarga nazariy berilgan bilimlarni mustahkamlashga imkoniyat beradi, balki interyerni jihozlash fanidan berilgan amaliy vazifalarni bajarishda muhim ahamiyatga ega.

O‘quv qo‘llanma hozirgi kunga kelib kompyuter dasturlarida interyer loyihalash va unda qo‘llaniladigan tarixiy va zamonaviy uslublar, hamda xona interyerida pardozlash ishlarida qo‘llaniladigan bir qator ashyolar haqida umumlashtirilgan asosiy ma‘lumotlar keltirilgan.

ISBN: 978-9943-6739-0-8

Tuzuvchilar:

S.X.Maxkamov t.f.n.,dotsent.


U.O.Daminova assistent.

D.A.Shaumarova assistent.

Taqrizchilar:

A.N.Umarov a.f.n.

Z. E.Matniyozova dotsent



© S. A. Maxkamov va boshqalar

© “Shafoat Nur Fayz”, 2020

KIRISH

“Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sohasini barcha bo’g’inlari – maktabgacha ta’lim, maktab, o’rta maxsus, va oliy ta’lim tizimini takomillashtirish, yangi muassasalarini bunyod etish va mavjudlarni qayta ta’mirlash bo’yicha olib borilayotgan ishlar yoshlar komolotida o’z samarasini beradi”

Shavkat Mirziyoyev

Inson paydo bo’lib, tug’ilib, rivojlanib borar ekan o’qib, bilim olishga yangilikka intilishga ishtiyoqi oshib boradi. Bugungi kunda Respublikamizda yosh avlodga uzluksiz ta’lim berish va uni tarbiyalash jarayonini qamrab oladigan bir qancha ta’lim tizimlari mavjud. Ma’lumki, ushbu soha islohotlarining dastlabki bosqichida ikkita asosiy hujjat – O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risidagi” va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to’g’risidagi” qonunlari qabul qilingan. Mamlakatimizda milliy ta’lim tizimida maktabgacha ta’lim, umumiy o’rta ta’lim, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’lim, oliy ta’lim, oliy o’quv yurtidan keyingi ta’lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta’limni qamrab oluvchi yangi uzluksiz va izchil tizim samarali faoliyat ko’rsatib kelmoqda. Shuningdek, oliy ta’limning bakalavriat va magistrlik tayyorlashni nazarda tutuvchi ikki bosqichli tizim, doktorantura faoliyati, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo’yicha ta’lim muassasalari islohotlarining samarasidir. Yangi milliy ta’lim standartlarni ishlab chiqish va joriy etish, yangi darsliklar va maxsus o’quv qo’llanmalar yaratish orqali ta’lim jarayonining mazmuni tubdan takomillashtiriladi.

Prezidentimizning 2017-yil 7-fevraldagi “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida” gi farmonida ijtimoiy soha, xususan, ta’lim va ilm fan sohalarini rivojlantirish borasida bir qator vazifalar belgilangan.

Hujjatda ta'lim muassasalarining moddiy texnik bazasi mustahkamlash, yangi ta'lim muassasalarini qurish, ta'mirlash, barobarida ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya jihozlari, kompyutr texnikasi va o'quv metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash nazarda tutilgan. 2017- 2021 yillarda oliy ta'lim tizimni tubdan takomillashtirish dasturini ishlab chiqish, o'quv dasturlarni yanada takomillashtirish o'sib kelayotgan yosh avlodlarga zamin bo'la oladi. Xususan Prezidentimizning "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" gi 2017-yil 20- apreldagi PQ 2909-son qarori talablari asosida ta'lim sifatini ijtimoiy iqtisodiy sohalarda olib borilayotgan islohotlar talablarga bog'liq yuksak darajada ko'tarish shuningdek, uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim sifatini nazorat qilishni yanada takomillashtirish, o'quv jarayoni samaradorligini xolisona baholanishini nazorat qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish maqsadida "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi- ning 2017-yil 18-iyuldagi " 515- sonli qarori qabul qilindi.

Ta'lim jarayonini yuksaltirish maqsadida oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayonini, oliy ta'limning o'quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarini keng joriy etish, magistratura ilmiy ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish asosida yanada takomillashtirish. Talabalarni yangi avlod o'quv adabiyotlarni yaratish va ularni oliy ta'lim muassasalarining ta'lim jarayoniga keng tadbir etish, oliy ta'lim muassasalarni zamonaviy o'quv metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlash shu jumladan, eng yangi xorijiy adabiyotlarni topib tarjima qilish, axborot resurs markazi fondlarini muntazam yangilab borishga qaratilgan chora tadbirlar asosida talabalarni bilim salohiyatini oshirishga qaratilgan.

Bundan kelib chiqadiki, har bir soha rivojlanib borayotgan bir davrda san'at va dizayn yo'nalishlarida ham kundan kunga yangilanish o'sish ildamlab bormoqda. O'z-o'zidan ma'lumki "Interyer va jihozlash" fani bo'yicha ta'lim berishning asoslarini belgilash fanning maqsad vazifalari va mazmuni tushunchalarini yangi pedogogik nuqtayi nazardan izohlash o'quvchilarni ma'navyatini ongini dunyoqarashini shakllantiradigan milliy tamoyillarga asoslangan holda fanning mazmun mohiyatini

chuquriroq yorita berishimiz oldimizgagi muhim vazifa desak mubolag'a bo'lmaydi. Hamma narsani tub mohiyati bo'lgani kabi ushbu fanni o'rganishda ham qadim tarixga yuzlansak san'at, interyer, dizayn, jihoz tushunchalarini kelib chiqish zamini rivojlanish bosqichlari ushbu fanni mazmun mohiyati bugungi kundagi fan bo'yicha yangiliklari innovatsion texnologiyalarni qo'llanilishi chuqur yoritib beriladi. Har bir fan o'sha paytni holatidan kelib chiqiladigan bo'lsa, hozirda ushbu fan ayni dizayn sohasidagi yangiliklarni har bir interyerni mohirlik bilan dizayn qilishni ham amaliy hamda nazariy o'rganiladi. Chunki, interyer dizayn sohasida bugungi kunda ildamlab kelinayotgan soha bo'lib qancha yoritsak shuncha yangilik rivojlanish bo'lmoqda.

Ushbu fan bo'yicha ko'plab professor o'qituvchilar o'z izlanishlarini olib borishgan va olib borishmoqda. Xususan, dizayn va arxitektura yo'nalish mutaxassislari bu borada o'z taklif va mulohazalari bilan yangiliklar kiritishgan. O'quv qo'llanmalarda o'z me'yorlaridan kelib chiqqan holda talabalarga bilim olishlarida interyer sohasida zamin bo'la oladigan manbalar kelitirilgan. Ushbu o'quv qo'llanma ham zamindigi o'quv qo'llanmalarga me'yorlarga tarixga asoslangan holda, ulardan farqli ravishda hozirgi kundagi interyer dizayn yo'nalishida yangi innovatsion o'zgarishlar kundan kunga kashf etilayotgan interyer jihozlari, interyer qo'l texnikasida ishlash usullari, innovatsion yangi texnologiyalarga asoslangan holda pardoqlash ashyolari, kompyutr texnikasidagi bir qancha dasturlar yangidan yangi yoshlar tomonidan kashf etilayotgan uslublar ma'lumotlarni olishingiz mumkin. O'quv qo'llanmada fan bo'yicha me'yorlardan uzoqlashmagan unga tayangan holda bugungi kundagi interyer yangiliklari talabalarning ishlaridan namunalar o'z aksini topgan. Yoshlarni kuchli nozik qalb egasi qilib tarbiyalash uchun eng avvalo ularning qalbida san'atga mehr uyg'otishimiz joiz bo'ladi. Bu esa o'z navbatida oliy o'quv yurtlariga o'qitilayotgan maxsus fanlarni chuqur va asosli bo'lishini taqazo etadi, pedagoglarni zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Shunday ekan, kelajak avlodlarning qanday bilim olishi ularga berilayotgan bilimning zamini shu kundan boshlanar ekan har bir ma'lumot har bir so'z besamar bo'lmasligi uchun maqsadimizni aniq

qo'yishimiz joiz bo'ladi. Ta'lim sohasida hozirgi kundagi o'zgarishlar va yosh avlodlarni har bir jabhada qo'llab-quvvatlashlar ezgu niyatlarimizni ro'yobga chiqishiga xizmat qiladi. Vatanimizni rivojlanishi yo'lidagi harakatimiz ertami-kechmi o'z samarasini beradi.

I – BOB.

INTERYER JIHOZLASH NAZARIYASI

1.1. Interierer jiohzlash faninig maqsad va vazifalari


Interierer tushunchasi. Interiererda rang

Ushbu fan orqali o'quvchilar interiererni jiohzlash, ya'ni binoning ichki (interierer) va tashqi eksterer ko'rinishini qog'ozda grafik ko'rinishida ko'rsata olish va arxitekturaviy kompozitsiyani va interiererda jiohzlarni to'g'ri tanlash ketma-ketligini, interierer va undagi jiohzlarni mutanosibligini mohironalik bilan ishlata olish, bugungi zamon talab darajasidagi bezak elamentlarini to'g'ri qo'llash o'zlashtirish malakalariga ega bo'lادilar. Shu bilan bir qatorda o'quvchilar bu predmet orqali binolarning konstruksiyalarini, binoning qanday bo'laklardan tashkil topganligini, uning qismlarini ham nazariy ham amaliy holda o'zlashtiradilar. Undan tashqari bu bo'limda o'quvchilar arxitekturaning kompozitsion jihatlarini, ya'ni: hajmiy fazoviylikni, binoning arxitekturaviy elementlarini va ularning shakllarini, tektonik tizimlarini, mutanosiblik (proporsiya)ni, miqyos (masshtab)ni, binoni atrof-muhit bilan bog'lashni, uning landshaftini o'rganadilar. Bularning hammasi arxitekturaviy vazifalarni amalga oshirishdagi kompozitsion, funksional va konstruktiv yechimlarning majmuasi hisoblanadi.


Ushbu o'quv qo'llanmani qilishdan asosiy maqsad dizayn yo'nalishida tahsil oladigan talabalarni interierer jiohzlashdagi nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishi. Ushbu mavzu bo'yicha bir qancha o'quv qo'llanmalar va darsliklar qilingan. Bulardan A.A .Saidov "Ergonomika" bo'yicha interierer jiohzlari turar joy va jamoat binolari haqida" nazariy va amaliy yoritib berilgan.M. Roziqberdiyevning 2014 yilda chiqarilgan, Bino interierer jiohzlari va arxitekturasini loyihalash" o'quv qo'llanmada ham binolarning arxitektura yechimi va ularni bajarish texnologiyasi, interierer yechimlari, interiererlari bo'yash texnologiyasi interiererlarda qo'llaniladigan tarixiy va zamonaviy uslublar bo'yicha, kompyuter dasturlarini interiererda qo'llash, ularda tashqari jahon adabiyotlarida Gilles Roninning „Interierer dizaynni chizish" qo'llanmasida bir qancha interierer qurish

qoidalari, jihozlashdagi muhim qoidalar batafsil yoritilgan. Ushbu qo'llanmada avval qilingan qo'llanmalardan farqli ravishda interyerni jihozlashdagi muhim talab va takliflar turar joy va jamoat binolarni interyer loyihalashdagi muhim qoidalar keltirilgan. O'quv qo'llanmaning o'ziga xosligi va qulayligi, uning asosan amaliy kursdan iboratligi va predmetining maxsus rasmlar namunalar orqali ko'rsatib berilganligi, bugungi zamon talabi darajasidagi ashyo, bezak elementlaridan ustaomona foydalanishlarga to'xtalib yoritib beriladi. Har bir interyer echimida uslublardan mohirlik bilan yondashilganligi unda qo'llangan ham tarixiy ham zamonaviy uslublarning interyerda qanday yechim topishi chuqur yoritib berishga asoslanadi. Ishchi o'quv dasturidan farqli ravishda mavzularga o'zgarish va qo'shimchalar kiritilgan. Undan tashqari interyerni qo'l grafikasi orqali yoki kompyutr grafikasi orqali loyiha qilish tushunarli yoritib berilgan. Interyer ishlashda birinchi muhim vazifa xonani eskizlab olishdir. Interyer eskizlarini chizishdan oldin, uni me'moriy qismi o'rganib chiqiladi. Shular asosida kompozitsion yechim qidiriladi. Bir necha xil variantlar qidirilib, ulardan eng yaxshisi va mosi tanlanadi. Eskiz chizganda kompozitsiya biron-bir maqsadga yoki tarixiy voqeaga bog'lansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Albatta bunda har bir xonaning vazifasi e'tiborga olinadi. Mehmonxona va oshxona o'z xususiyatlariga ega. Kompozitsiya yechimini topayotgan paytda ushbu xususiyatlar yo'qolib ketmasligi kerak. Biror xona interyerini chizishdan oldin o'sha xonani tarhini (plan) chizishimiz kerak 1.1.1-rasm. Buning uchun qurilgan inshootga borib, xonaning o'lchamlar olinadi. Xonaning uzunligi, eni, balandligi. Keyin deraza, eshik o'lchamlari va ularning chuqurligi batafsil o'lchanadi. Ana shu o'lchamlar asosida, masshtab bo'yicha xona planiga mebellar joylashtiriladi. Bu yerda avvalo insonlarga qulaylik yaratish haqida bosh qotirish kerak. Oldiniga qoralama eskizlar, keyin esa masshtab bo'yicha aniq chizmalar chiziladi. Interyerni plani tayyor bo'lgach uning perspektiv ko'rinishi chiziladi. Qarash nuqtasi belgilanib interyerni tanlangan burchagi ko'rsatiladi eng avvallo interyerni balandligi qo'yiladi va chizma chiziladi. Xona plani tayyor bo'lgach, devor va shift qismining kompozitsion yechimi o'ylab topiladi. Xona interyerining xona

o'lchamlari qarash nuqtalari qo'yiladi. Planni tayyor qilingach devor yoyilmalari chiziladi. Har bir devor ko'rinishi u yerda nima joylashgani ko'rsatiladi 1.1-2-rasm.




1.1-1 rasm. Xona tarhi.



1.1.2-rasm. Devor yoyilmasi.


Bunda mebellar joylashuvini esdan chiqarmaslik kerak. Qoralama chizmalar tayyor bo'lganidan keyin, masshtab bo'yicha devor yoyilmalari chiziladi. Bu orqali har bir devordagi kompozitsiyani aniq ko'rishimiz va ustalarga aniq o'lchamlar berishimiz mumkin. Har bir devor alohida-alohida chiziladi. Bu payt dizayner ushbu interyer ichida o'zini tasavvur eta olishi kerak.

Qarash nuqtasi interyerni ko'rishda muhim hisoblanadi. Nuqtani qanday qo'ysak interyerni balanroqdan o'rtadan yoki pastroqdan agarda interyerni shift qismiga ko'proq urg'u berilsa ufq nuqtasi pastroqdan yoki aksincha pol qismini aniqroq ko'rsatilsa ufq chizig'i tepadan olinishi maqsadga muvofiq (1.1.4-rasm).



1.1.3- 1.1.4-rasm. Interyer perspektivasi.

Interyerni qanday jihozlash dizaynerga mas'uliyat yuklanadi xona kengligidan unumli foydalana olish dizaynerdan mahorat talab etadi. Kichik xonaga ham kerakli jihozlarni to'g'ri joylashtirish, zonalarga ajrata olish mebellar funksionalligiga e'tibor qaratish interyerga tabiiy va sun'iy yorug'likni bera olish interyer yaratishda muhim sanaladi. Agar dizayner interyerni xayolan ko'ra olsa, bu ishning natijasi yaxshi bo'ladi. Interyerni ko'rinishini xayolan tasavvur qila olgan dizayner, undagi har bir detallarni hajmli va fazoviy his qila oladi. Demak eskizlar chizishda fantaziya kuchli rol o'ynaydi. Interyerdagi kolonna, eshik va derazalar alohida eskizlar orqali qidiriladi. Xona interyeriga kerakli narsalarni joylashtirib perspektiv ko'rinishi chiziladi 1.1.5-rasm.



1.1.5-rasm. Interyerperspektivasi.

Tayyor bo'lgan qoralama chizgilardan bir necha nusxalar olinadi va ularning ranglar qidiriladi. Biz endi interyerlarni bo'yashdan oldin planshetdagi qog'ozimizni sovuq suv bilan yuvamiz. Chunki

chizmani chizish jarayonida qog'ozimiz kir bo'lib qolgan bo'lishi mumkin. Nima uchun millimetrovkada chizib, keyin oq qog'ozga tushiriladi degan savol o'rinli bo'ladi. Chunki, interyerni chizish jarayonida qo'limizdagi yog'lar dog' bo'lib, qog'ozda iz qoldirishi mumkin. Agar bunga amal qilsak, interyerimiz toza va tiniq ko'rinishga ega bo'ladi. Interyerni perspektiv ko'rinishini chizishning 2 xil usuli bor: 1) millimetrovka yordamida katak usuli; 2) tarh va yoyma yordami bilan chiziladigan usul.

Interyer tushunchasi.

Interyer (frans.interier- ichki) me'morlikda- bino va inshoot (turar joy jamoat va sanoat)larning badiiy bezatilgan va jihozlangan ichkari qismi. Vazifasiga ko'ra interyerning me'moriy yechimi ko'rinishi, hajmi, shakli, bezaklari va boshqalar.Jihozlar xususiyati (mebel jihozlari binonig qanday maqsadga mo'ljallanganligi, o'zaro mos mujassamligi yaratilishiga bog'liq.

Interyer – ichki ko'rinish, ex-terier – tashqi ko'rinish. Tasviriy san'atda interyer mustaqil janr sifatida mavjuddir.Tarixiy maishiy va zamonaviy fon tariqasida ham ishlatilishi mumkin.Interyer holati orqali xonadon sohibining didi haqida, yoki zavod sexini jihozlagniga qarab ilmiy taraqqiyot holati haqida xulosa chiqarishimiz mumkin. Har bir joyni qanday ehtiyojda foydalanishga qarab jihozlanadi. Uy eshik-derazalarni shakli, hajmi, devor, va shift, polini bezagi va uy jihozlarining bezagi tasviri orqali qaysi davrga mansubligini bilib olishimiz mumkin.

Xonalarning ichki bezagi haqida so'zlashdan oldin me'morchilik haqida fikrlashsak ham to'g'ri, ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Inson endi paydo bo'lganida tog' etaklaridagi g'orlarda yashab, kun kechirgan. G'orlarda yashash tarzi oldiniga tabiiy holda bo'lgan. Keyinchalik insonlar uni o'z xohishi bilan sun'iy lashtirganlar. Interyer haqidagi ilk tushunchalar ana o'sha davrdan boshlangan. G'orlarda yashagan odamlar toshlarga har xil hayvonlar rasmlarini chizishgan. Bunga Farg'ona vodiysida topilgan topilmalar misol bo'la oladi.

Ushbu me'morlik asari toshdan yasalgan. Hozirda ular qayta ta'mirlangan. Vaqtning shiddatli o'tishi bilan g'orlar baland-baland

uylarga, undagi chizmalar esa interyerdagi go'zal bezaklarga aylandi. Shu tariqa inson qaysi sohada bo'lmasin izlanadi, qidiradi, yangiliklar yaratadi va topadi. Bu «hayot» atalmish chuqur falsafaning izga qo'yilgan charxpalagidir va bu charxpalak doimiy harakatda. Insondagi mana shu kuchli qobiliyat vaqtlar o'tishi bilan tabiiy toshlarga keyinchalik yog'ochlarga shakl berib, shu orqali mehnat qurollarini yaratishga olib keldi. Aynan mana shu joyda bugungi kun tili bilan ataladigan «me'morlik» va «dizayn» sohalariga ilk bor asos solingan. Ilk davrlar me'morchiligi. Qadimgi sharq davlatlari ilk me'morlik san'atiga asos bo'ldi. Qadimgi Osiyo, Afrika kabi sharq mamlakatlari me'morchiligi bunga misol bo'la oladi. Misr, Gretsiya, Italiya me'morchiligi esa klassitsizmning eng gullagan davriga to'g'ri keladi. Oldiniga bir qavatli, keyinchalik 2–4 qavatli hozirda 100 qavatdan ortiq binolar qurilmoqda. Ular turar joy binolari va jamoat binolariga ajratilib ularning ichki bezagi, kompozitsion yechimi, ranglar uyg'unligi va mebellari, o'ziga xos qilib bezatiladi. Bundan tashqari interyerda ishlatilgan materiallar, ularning ranglari muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday interyerni loyihalayotgan paytda e'tibor beriladigan jihatlar bor. Ularning ketma-ketligi quyida ko'rsatilgan: 1. Qulaylik. 2. Mavzu yoki maqsad. 3. Yaxlitlik va stil. 4. Go'zallik. 5. Ranglar uyg'unligi. 6. Materiallarning sifatliiligi. Har xil davlatlarda me'morlik har xil bo'lgani kabi, interyer bezalishi ham har xildir. Bu o'sha yurtning geografik o'rnashuviga, tabiati va odamlariga bog'liq. Interyerdagi kompozitsion yechim, ranglar uyg'unligi, eshik, deraza hatto ularning o'lchamlari ham inshootlarni qay maqsadda qurilganiga qarab belgilanadi. Bir xil konstruksiyaga ega bo'lgan bino interyerlarida ushbu jarayonning badiiy yechimini topish ancha mushkul. Bunda ichki bezashdagi bezak materiallari, dekorativ suvoqlar, mineralli, fakturali, teksturali bo'yoqlar, poldagi marmar, keramik plitalar, ayniqsa mahobatli va dekorativ amaliy san'at namunalari muhim rol o'ynaydi. Interyerdagi kompozitsion yechimda albatta bir markaz bo'lishi kerak. Mavzu asosida markazdagi kompozitsiya topiladi va joylashtiriladi. Bu yechimni topishda biz kompozitsiya asoslari darsida o'rgangan kompozitsiya qonuniyatlariга murojaat qilamiz.

Ular Ritm, Metr, Dinamika, Statika, Kontrast, Nyuans va boshqalardir.

Dinamika kompozitsiyaning ma'lum bir harakatini ko'rsatadi. Statika esa kompozitsiyada harakat yo'qligini ko'rsatadi. Kontrast qarama-qarshilik, nyuans bir-biriga yaqinlik, uyg'unlik demakdir. Kontrast va nyuans, ranglar jilosida yaqqol namoyon bo'ladi. Bular-dan tashqari proporsiya, masshtab, mutanosiblik kabi qonuniyatlar borki, ular kompozitsion yechimni topishda asosiy yordamni beradi. Bu kompozitsiyalar bir maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Ana shu yo'nalishdagi ritmni ushlab qolish ham juda muhim. Buni biz musiqadagi ritmga o'xshatishimiz mumkin. Bu kompozitsion yechimlarni shift va devorlarda, tekis yoki bo'rtma usullar bilan amalga oshirish mumkin. Deraza va eshiklarning joylashuvida g'arb, sharq, shimol, janub tomonlarni e'tiborga olish kerak. Undan tashqari mebellarni joylashtirish, yoritqichlarni o'z joylarini topish ham muhim rol o'ynaydi. Dizayner interyer jihozi uchun ishlatiladigan materiallarni rangi va shaklidan tashqari, ularni foydali yoki zararli tomonlarini, hamda konstruktiv tomonlarini bilishi kerak. Chunki, odamlar dizaynerga ishonib o'z uylarini topshiradilar. Interyerdagi kompozitsiyalarda gorizontaal va vertikal chiziqli kompozitsiyalar ishlatiladi. Bular-dan to'g'ri foydalanishni dizayner yaxshi bilishi kerak. Chunki, bu inson ruhiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Agar xonaning shifti past bo'lsa vertikal chiziqli kompozitsion yechim o'ylab topish maqsadga muvofiq bo'ladi. Vertikal chiziqlar xonani baland qilib ko'rsatadi.

Interyerda rang

Interyerda ranglarning o'rni beqiyosdir. Ulardan to'g'ri foydalanilmasa, chiroyli o'ylab topilgan kompozitsion yechim ham zerikarli ko'rinish oladi. Hayotda tabiiy 7 xil rang mavjud bo'lib, ular kamalakda o'z aksini topgan: – qizil, – zarg'aldoq, – sariq, – yashil, – havorang, – ko'k, – binafsha, Agar yaxshiroq e'tibor berib qarasak tabiatda 3 asosiy rang mavjud. Ular: – qizil, – sariq, – ko'k.

Qolgan ranglar ana shu 3 asosiy rang aralashmasidan kelib chiqadi. Bundan tashqari ranglar qatoridan joy olmagan, oq va qora ham bor. Qo'lingizga oq va qora bo'yoqlarni olib, asosiy ranglar

Rangdanangga o'tish.

qizil, sariq, ko'k ranglar bilan ularni aralashtiring. Natijada siz bir necha ming xil ranglarni topasiz.

Ranglar o'z navbatida issiq va sovuq ranglarga bo'linadi. Issiq ranglar qizil, zarg'aldoq, sariq. Sovuq ranglar yashil, ko'k, binafsha. Har bir odamga har xil ranglar yoqadi. Bu esa inson ruhiyati bilan bog'liq. Shuning uchun ranglardan foydalanishda juda ehtiyotkor bo'lishimiz kerak. Yana bir e'tiborli tomoni inson umrining ko'p qismi interyer, ya'ni xona ichida o'tadi. Ba'zi ranglar insonlarni faollikka boshlaydi, ba'zilari esa tinchlantiradi. Ba'zi ranglar inson kayfiyatini tushirsa, ba'zilari kayfiyatni ko'taradi, xursand qiladi. Bolalar maydonchalari va xonalarini bezashda biz yorqin ranglardan foydalanamiz. Jamoat binolarida esa ko'proq tinchlantiruvchi ranglardan foydalanamiz. Rang odam yashaydigan muhitni shakllantirish va unda shart-sharoit yaratish uchun eng qulay vositadir. Interyer uchun ishlab chiqarilayotgan barcha mebellar, shakl jihatidan bir-biriga o'xshash bo'lishi mumkin, lekin rangda esa imkoniyatlar juda keng. Rang har bir shaxsning o'z ixtiyorida. Ranglar xonaning xarakteriga jiddiy ta'sir ko'rsatib shinamlik, estetik qiyofa, individuallik kabi imkoniyatlarni ochib beradi. Ranglar bilan har qanday kasb egasi o'z-o'zini namoyon eta oladi. Rang har qanday holatda odamlarga muayyan psixologik-fiziologik ta'sir ko'rsatadi.

Yashil rang mashg'ulotlar xonasiga tavsiya etiladi, u kishini bir maromda ritmik ishga yoki osoyishtalikka moyil qiladi. Havo rang esa xonalarda shinamlikni tashkil etishda yordam beradi. Qizil rang bilan devorlar bo'yalsa u odamni tez charchatishi, asabiylashtirishi mumkin. Lekin ushbu rang bolalar psixologiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Zarg'aldoq rang xuddi qizil rang kabi bolalar xonasi yoki bolalar maydonchalariga tavsiya qilinadi. Sariq rang quyosh nuri bilan uyg'unlashib, ba'zan odamni charchatib qo'yishi mumkin. Lekin keyingi paytlarda ushbu yorqin ranglardan foydalanish ekstererda an'ana tusini olmoqda. Bir narsaga e'tiborni qaratishimiz kerak, har qanday rangni oq yoki qora rang bilan aralashtirib, bir necha ming xil rang tusini topishimiz mumkin. Oq yuzalar yorug'lik nurini ko'proq namoyon qiladi, shuning uchun predmetlarning relyefini boshqa ranglarga qaraganda yaxshiroq aks ettiradi. Agar xona siz uchun tor

bo'lib ko'rinayotgan bo'lsa, devorlarga zangori yoki kulrang ranglaridan foydalanishni tavsiya etamiz. Shunda ularning sathi kengaygan holda ko'rinish beradi. Agar xona ortiqcha cho'ziq bo'lsa, uni biroz qisqartirmoqchi bo'lsangiz u holda devorlarni zarg'aldoq, qizil, terrakota rangiga bo'yash tavsiya qilinadi. Bu holatda shift, devordagi kompozitsion yechimlar muhim rol o'ynaydi. Biz interyer ichida rangni boshqa narsalardan ajralgan holda tasavvur qila olmaymiz. Devor, shift va mebellarning ranglari bir-biriga ta'sir etadi. Bularning ranglari birbiri bilan uyg'unlashgan holda bo'lishi kerak. Tonal munosabatlar bo'shliqni idrok etishga ta'sir qiladi.

Interyer ichki bezagini kontrast ranglar bilan bezasak, xonaning ichi kichikroq bo'lib ko'rinadi va, aksincha, agar nyuans ranglar bilan bezasak xona kattaroq bo'lib ko'rinadi. Interyerni bo'yashda yana bir muhim jihat bor, u derazalarning janub yoki shimolga qarab joylashuvidir. Agar oynalar janubga qaragan bo'lsa, xona ichida sovuq ranglar ishlatish maqsadga muvofiq bo'ladi. Agar oynalar shimolga qaragan bo'lsa, ranglar issiq tanlanishi kerak, chunki shimol tarafdan tabiiy yorug'lik juda kam tushadi. Bu tavsiyalar aslo majburiy emas. O'zingiz yashab turgan uyni hohlaganingizcha dizayn qilishingiz mumkin. Aytadilarku, did haqida tortishilmaydi.

Oshxona, restoran, kafelarda esa issiq ranglardan foydalanishni maslahat beramiz, chunki issiq ranglar (sariq, zarg'aldoq, qizil) ishtahani ochadi va odamlarni o'yin, kulgi, xursandchilikka boshlaydi. Biz har qancha maslahatlar beravermaylik, baribir insonning individual qarashlari, did va me'yor hal qiluvchi narsa bo'lib qoladi. San'at ozgina, sal-pal degan ishoralarda o'z aksini topadi, biz buni tarixdan va hayotiy tajribamizdan juda yaxshi bilamiz.

Nazorat savollari

1. Interyer jihozlash fanining maqsad va vazifalari qanday?
2. Arxitekturada qulaylik va go'zallik tamoyiliga rioya qilish qanday amalga oshiriladi?
3. Xonaning funksional jihati nima?
4. Binolar kompozitsiyasini tanlash jarayonida nimalarga e'tibor qaratish kerak?
5. Interyer loyihalashda devor yoyilmalarining qanday ahamiyati bor?

6. Interyer loyihalashda qaysi usullardan foydalanish mumkin?
7. Interyerni kelib chiqish tarixi qaysi davrlarga to'g'ri keladi?
8. Interyerni jihozlashda nimalarga e'tibor qaratish kerak?
9. Binoning interyer qismi qanday turlarga bo'linadi?
10. Interyerni jihozlashda ranglarning ahamiyati qanday?
11. Interyer jihozlashda ranglarni qanday tanlanadi?

1.2. Interyerni loyihalashda asosiy uslub va yo'nalishlar (stillar)

- 1) Tarixiy yo'nalish uslublari
- 2) Etnik yo'nalish uslublari
- 3) Zamonaviy yo'nalish uslublari

Arxitektura – me'morchilik yoki dizayner va buyurtmachi «uslub», «uslubchi», «uslublanish» suzi juda ko'p ishlatiladi. Uslub ikki xil ko'rinishda bo'ladi: 1. Klassika – mashhur va namunali. 2. Modern – zamonaviy. Bu so'zlarni mebel ishlab chiqaruvchi va mebel sotuvchilardan doimo eshitish mumkin. Arxitektor yoki dizaynerning har bir amaliy ishida buyurtmachining buyurtmasiga, xohishiga, tabiatiga qarab uslub tanlanadi. Shu bilan birga arxitektor kontekstning, ya'ni bino konstruksiyasi va atrofdagi arxitekturani ham hisobga olish kerak.

Uslub loyiha g'oyasini aniqlovchi tildir. Loyihalash davomida g'oya shakllanib uslubning u yoki bu ko'rinishida bo'lishi mumkin. Obyektning estetik yagonalikka intilishi uslubga olib keladi.

Fikrimizni oydinlashtirish uchun bir qator uslub va uslub hosil qilish yo'lini batafsil ko'rib chiqamiz.

Interyer holati orqali xonadon sohibining didi haqida yoki zavod sexini jihozlaganiga qarab ilmiy taraqqiyot holati haqida xulosa chiqarishimiz mumkin.

Uyni eshik derazalarning shakli, hajmi, devor va shift, pol va uy jihozlarining bezagi tasviri orqali qaysi davrga mansubligini bilib olishimiz mumkin.

Interyerlar ma'lum uslubda qilinadi. Uslublar uch guruhga bo'linadi: tarixiy, eklektik, zamonaviy. Har bir guruhga ma'lum uslub taalluqli, ularning turi 50 taga yaqin.

Tarixiy uslublar

Eklektika bu – biron bir obyektни interyer yechimida ikki va undan ortiq ko‘p uslublarni qo‘llash. Eklektika shunday paytda keladiki, hukmron uslub «o‘zini qurshagan», lekin yangisi hali hosil bo‘lmagan. Bu vaqtda arxitektura tarixini boshqatan o‘rganib chiqiladi.

Shuning uchun biron bir obyektни qurishda yoki interyerni hosil qilishda uslub tanlash vazifasi qiyin. Uslubni kelib chiqish tarixini ko‘rib chiqamiz.

Klassik uslub.

Ikki xil ko‘rinishda bo‘ladi: 1. Qadimiy Rim arxitekturasi va merosi. 2. Klassik uslub. 4 xil yo‘nalishga ega: 1. Barokko. 2. Klassitsizm. 3. Rokoko. 4. Ampir. Bu uslub tabiatan bosik, vazmin yuqori lavozimdagi odamlarga yoqadi. Klassik mebellar tabiiy daraxtdan. Klassik uslub interyeri yorug‘ va osuda xonalar ortiqcha jihozlarsiz. Bezaklari: haykallar, poli mramardan. Mebel qimmatbaho daraxtdan ishlangan. Xonalarning oynalari ko‘p bo‘lib xonani keng qilib ko‘rsatadi. Oq rang uslubga xos. Mebeloq rangda yoki tabiiy rangda. Pardalar va devorlar rangi ham yorqin rangda – havoran, oqish. Quyidagi ranglardan foydalaniladi: qaymoq rang, yashilsimon, devorlar uchun jigarrang ishtiladi. Oynalar maxsus pardalar bilan bezatiladi. Shiftlar billur qandillar yoki qimmatbaho toshlardan yasalgan qandillar osiladi. 1.1.6-rasm

Mehmonxona yorug‘ qo‘lda to‘qilgan yumshok gilam, chinnidan yasalgan idishlar, stol-stullar bilan bezatilgan. Hammom och jigarrangda, poli mramardan, jumraklari tilla rangda. Shifti oq rangda bo‘lib xonani yanada katta va baland qilib ko‘rsatadi.

Klassitsizm.

Lotin so‘zidan olingan bo‘lib namunali, tartib degan manoni bildiradi. Yevropada bu uslub XVI – XVII qadimgi Rim arxitekturasi asosida Italiyalik ustalar tomonidan qayta tiklandi. U yuksalish davri Italiyalik ustalar tomonidan yaratildi. Fransiyada Lyudovik XIV davrida klassitsizm yuksaldi. Bu davrda Fransiyaning mashhur me‘morchilik nodir asarlari yaratilgan. Fransuz klassitsizmi umumiy kompozitsiyaning simmetrikligi va xushbichimligi bilan ajralib turadi. Bu davrdagi klassik uslub aniq to‘g‘ri chiziqlar, to‘g‘ri simmetrik shakllar mebellarda va hatto bog‘dagi daraxtlarda ham bilinib turadi.

Angliya klassik uslubi sovuq shakli va sipolikka xos. Klassik uslub Rossiyaga XVIII asrda kirib keldi. Unga to'g'ri burchak shakllari xos. 1.2.6-1.2.7-rasmlarda ko'rish mumkin. Fon dekoratsiyasi ajoyib rangga ega bo'lishi kerak - ochiq kulrang tonlarda, pastel dekorativ gips, mato, vinil yoki kamar fon rasmi "grisaille" (imitatsiya haykal).

Rasm, shu jumladan. portret – XVIII asr uslubida, gobelen va yonboshdan yasalgan buyumlar bilan birga.

Shift gulqog'oz bilan bezatilgan. Derazalar va eshiklar klassik uslubda ichki bezakni yaratishda katta ahamiyatga ega. Mahobatli ishlab chiqarilgan mebel boshqa yumshoq naqshli bezaklar bilan bezatilgan.



1.2.6-rasm. Klassik uslubida interyer



1.2.7-rasm. Klassik uslubida interyer.

Barokko.

Barokko – italyanchadan olingan bo‘lib, ortiqcha jimjimador degani. Bu uslubda egri chiziqdagi shakl, hajmning kattaligi birinchi o‘rinda turadi. Me‘moriy shakllardan ustunlarni bezashda ishlatiladi. Lak bilan buyash, bezashda qimmat bahomateriallar: oltin, bronza, mis, mazayka, shpon, lak bilan qoplash qo‘llaniladi. Dumaloq va oval o‘rniga murakkab spirallardan, silliq yuza o‘rniga qubba va botiq elementlardan foydalanganlar. Birinchi marta mebel va devorlari bir xil uslubda ishlangan kabinetlar paydo bo‘ldi. Barokko uslubi uy egasining boyligini va mavqeini belgilab beradi. Barokkoning vatani Rim. 1.2.8-1.2.9-rasmlar.



1.2.8-rasm. Barokko uslubida interyer.



1.2.9-rasm. Barokko uslubida interyer jihozi.

Gotika


Gotika uslubi vaqtinchalik bezaklarga ijobiy ta'sir qiladigan metafizika davrida yuzaga keldi. Faqat kech o'rta asrlarda yashovchilar nafaqat diniy, balki floristik mavzularidagi bezaklarni mebellarda va uylarda qo'llashni boshladilar. 1.2.10–1.2.11-rasmlar.

Gotika – (italyancha gotico – germanlarning got nomli qabilasi), bu uslub (XII asr o'rtasi va XV – XVI asrlarda), Uyg'onish davrida o'z nomini olib (D. Vazari), Farbiy, Markaziy va qisman Sharqiy Yevropada o'rta asrlar san'atini yakunladi.

Gotikada o'rta asrlar jamiyati tarkibidagi tub o'zgarishlar aks etdi. Shahar sobori yetakchi me'morchilik turiga aylandi. Gotik me'morchilikning sinchli tizimi (cho'qqili ravoqlar ustunlarga tayanadi; nervyurlarga yotqizilgan butsisimon gumbazlarning yon tirgagi arkbutanlar orqali kontroforslarga o'tkazilgan) balandligi va kengligi bo'yicha mislsiz sobor interyerlarini yaratishga, ko'p rangli vitrajlar qoplangan ulkan derazalar o'rnatishga imkon berdi.

Soborning yuqoriga intilishi ulkan ajurli minoralar, cho'qqili derazalar va portallar, bukilgan haykallar, murakkab naqshlar bilan ifodalangan. Haykal, vitraj, rangtasvir va o'ymakor mehrob, mini-atyura, dekorativ buyumlarda ramziy-allegoriya tizmasi yangi ma'naviy intilishlar, lirik hissiyotlar bilan uyg'unlashadi. Haqiqiy dunyoga, tabiatga, boy kechinmalarga qiziqish kuchayadi.

Interyer dizayni borasida gotika boshqa uslublardan juda sezilarli ajralib turadi: ulkan derazalar, ko'p rangli vitrajlar, yorug'lik effektlari, ulkan ajurli minoralar, barcha konstruktiv elementlarning alohida ta'kidlangan vertikalligi shular jumlasiga kiradi.



1.2.10-rasm. Gotika uslubida interyer.



1.2.11-rasm. Gotika uslubida interyer.

Etnik yoʻnalish uslubi.

Etnik stil (“Etnik”) bu toʻrtinchi yoʻnalish. Etnik yoʻnalish – bu maʼlum bir mamlakatga yoki oʻlkaga xos boʻlgan meʼmorchilik naqshlari, ranglar, amaliy sanʼat namunalari, uy jihozlari qoʻllanilgan zamonaviy interyer yechimi. Interyer yechimda etnik uslub, asosan, fragmentar ravishda (interyerni bir boʻlagida) qoʻllaniladi. Xonani bezashda ekzotik elementlar odamni maʼlum bir holatga tushushi va interyerni badiiy taʼsirini oshirish uchun qoʻllaniladi. Bunga “Markaziy” mehmonxonaning vestibulini misol qilib keltirish mumkin

Yapon uslubi.

Sintoizm falsafasi yaponlarni tabiatga yaqinroq boʻlishga chaqiradi. Tabiiy muhit bilan bogʻlanish, tashqi va ichki makonning oʻzaro bir-biriga koʻchib oʻtishi – tarhechimining asosidir. Xona va tashqi muhit oʻrtasidagi chegaralarni yoʻqqa chiqaruvchi syodzi surilma devorchalari ana shundan kelib chiqqan. Fusuma nomli surilma devorchalar ichki chegaralarning harakatchanligini taʼminlaydi. Fusuma va syodzining balandligi hamma yerda bir xil – bir yarim metrdan biroz balandroq. Polga tatami toʻshaladi, uning ustidan esa ratan panjara qoʻyiladi, u havoning bemalol oʻtib turishiga halaqitqilmaydi.

Asosiy geometrik tamoyil – toʻgʻri chiziqlar va toʻgʻri burchaklar. Kichik xonalar boʻm–boʻsh va jiddiy koʻrinadi. Kenglik – bu ich-


ki erkinlik ifodasidir. Dzen estetikasining tamoyili– vabi (va bu fe'li – boshlang'ich oddiylikka qaytish, tabiiy bo'lish). Oddiyluk yengil tugallanmaganlikka, atayin yo'l qo'yilgan nomukammallikka da'vat etadi, bu esa insonning buyumlar tabiiyligini bo'rttirib ko'rsatishni hohlamasligini anglatadi.

Dzen – buddizmning asosiy tushunchasi – bo'shliq bo'lib, u har qanday hodisaning manbai, asosi kabi va shu bilan birga – uning tugallanishi, chegarasi kabi tushuniladi. Yapon uylarida mebel kam. Devorlardagi taxmonlar shkaflar o'rnini bosadi, ulardan biri – bo'sh, poli ko'tarilgan tokonoma tantanali hollarda o'rog'liq noma, ikebana, avliyolar haykalchalari bilan bezatiladi.

Manzarali rangtasvir – surilma devorchalardagi naqshlar – fusuma va pardalardagi naqshlar – byobu qo'llanadi. Odatda uyni qurshab olgan bog' elementlari – daraxt, buta, gul, toshlar tasvirlanadi.

Yapon uslubi uchun dekordagi atayin asimmetriya, materialning nafisligini ta'kidlab ko'rsatish, qat'iy mantiq va maqsadga muvofiqlik, rang birikmalari uyg'unligi, bo'sh va dekor bilan to'ldirilgan makonning aniq nisbati xosdir. Uydagi eng oddiy anjomlarda ham tabiat, rivoyatlar va ramzlarning g'aroyib olami namoyon bo'ladi.

Shuningdek, yoritilish usuli, nur va soyaning g'aroyib nisbati orqali ham, o'ziga xoslik namoyon bo'ladi. Go'zallik narsalarning o'zida emas, balki o'ziga xos betakror nur – soya naqshini to'qiydigan chatishmasida ekanligi ta'kidlanadi.



1.2.12-rasm. Yapon uslubida interyer.

Xitoy uslubi.

An'anaviy Xitoy uslubi ustunlik qilishiga qaramasdan, milliy uslub juda kuchli, ayniqsa, rangi, qizil, qizg'ish, qahvani asosiy rang sifatida, shuning uchun Xitoy tarzi alohida ahamiyatga ega. Tantanali tonlar tabiiy qiyofaning jozibali, oqlangan dizayni ustidan hukmronlik qiladi, shuning uchun Xitoy bezaklari eng katta xususiyatlardan va savdo nuqtalarining biri. Obyektning yangi Xitoy uslubi: milliy g'oyalarni targ'ib qilish, keksa bezak egalarining milliy uslubi; Konfutsiylik dekoratsiya egalari fikri; shaxsiylashtirilgan talablar og'ir rangli bezak egalariga xosdir; bezak egalarining oqilona muhiti kabi.



1.2.13-rasm. Xitoy uslubida interyer.

Skandinaviya uslubi.

Ushbu uslublar ham kichik kvartira va keng uylar egalari uchun javob beradi. Bu oddiy, qisqa va tushunarli. Tabiiylik va tabiiylikni qadrlaydiganlar orasida mashhur. Materiallar daraxt bu uslubdagi asosiy materialdir. Ham bezatish, ham mebel uchun ishlatiladi. Skandinaviya uslubi uchun chirigan g'isht ham e'tiborga sazovordir. Yasash xonasi, oshxona yoki koridor bo'ylab devorlari biri yalang'och g'isht ishini bezash yoki maxsus holda qoldirilishi mumkin. Ranglar Asosiysi - oq, bu fon sifatida ishlaydi. U bilan birga kulrang va qora odatda ishlatiladi. Sovuq birikmalarning rang-barangligi yashil, sariq, ko'k, pushti rang ular mebel, to'qimachilik va dekor uchun ishlatiladi. xonada, yengil parda, shuningdek, turli dekoratsiya


va jonli o'simliklar dizayn mos ranglar bilan kichik mo'yna gilam, devor plakatlar foydalanish bilan tavsiflanadi 1.2.14-rasm.



1.2.14-rasm. Skandinaviya uslubida interyer.

Kantri.

Kantri – qishloq uslubi bo'lib unda romantika, qulaylik, iliqlik uyg'unlashgan. Kantri mamlakat va qishloq degani, Amerikada paydo bo'lgan. Bu uslub qulay va maqsadga muvofiq bir qavatli, yog'och yoki g'ishtdan qurilgan uy. Xonalar bir-biriga o'tadigan, devorlari yengil goho dekorativ to'siqli. Oshxona, yemakxona, mehmonxona bir tarafida joylashgan albatta kamin yoki ochiq oshxonasi bor. Bezak materiallari: dub, yong'och, bukdan olinadi. Bundan tashqari dar pardalar, gilamlar, yostiqlar, salftka, sochiqlar ishlatiladi. Bu uslubga och bo'lmagan kuyuk ranglar xos iloji boricha tabiiy rang ishlatiladi.



1.2.15-rasm. Kantri uslubida interyer.

Xind uslubi.

Hindistondagi issiq nam iqlim muayyan me'moriy elementlarni yaratadi: ichki hovlichalar, devordagi tor yorug'lik teshiklari, bo'rtiq peshtoqlar, keng qilib chiqarilgan «chadji» raxi, ikki tomoni ochiq «jomiy» panjaralari. Ustunlar katta rol uynaydi, ularnafaqat bostirmalar tayanchlari sifatida, balki muayyan badiiy obrazni yaratish uchun ham ishlatiladi.

Binolarning silliq devorlari yorqin ranglarga bo'yalgan ustunlar va boshqa me'moriy elementlar uchun fon bo'lib xizmat qiladi. Betakror bo'yoqlar – moviy, to'qqizil va to'q sariq ranglar juda ko'p ishlatiladi. Shu bilan birga, ustunning har bir qismi – ustun qoshi (kapitel), poyasi, asosi o'z rangiga ega bo'lishi mumkin. Boshqa variant – terrakota ustunga tillarang–sariq naqshlar solingan.

Devor va shift naqshlari keng ishlatiladi, bu yerda nabotot va hayvonot olami mavzulari ustunlik qiladi. Ular ijroning haqqoniyligi va jonliligi bilan ajralib turadi. Tez–tez qo'llanadigan naqshinkor kompozitsiyalar o'zlarining murakkab tugunlarida ramzlar va belgilarni ifodalaydi. Rasmning bejirimligi, ijroning puxtaligi va boyligi, kompozitsiyalarning tabiiyligi, naqsh maydonining butkul qoplanishi va detallarning ma'lum darajada bisyorligi – hind naqshining hususiyatlari ana shunday.

Pastak yog'och mebel yoppasiga o'yma naqshlar bilan qoplangan bo'lib, qadama naqshlangan. Lak surtishning turli usullari

qo'llanadi. Faol ranglarga ega bo'lgan gazlamalardan foydalanishga katta ahamiyat beriladi. Pol sathida joylashgan shamchiroqlar interyerga yengillik va qandaydir sirlilik bag'ishlaydi.

Zamonaviy yo'nalish uslublari

Xay –tek.

Xay tek hozirgi zamon yoshlar uslubi. Ma'nosi «yuqori texnologiya» bu uslub XX asr 60 – yillari sanoat dizaynidan kelib chiqqan. Uy ichiga industrial elementlarni kirib kelishi yuqori texnologiya va konstruktivizm qorishmasini hosil kildi.

Xay tek uslubida uyda murakkab har xil trubalar, liftlar, kabellar ko'rgazmaga qo'yilgandek terib qo'yilgan. Bezak elementlari: yaltiroq metall, temir detallar, shisha. Odatta berkitib kuyiladigan narsalar ochiq holda, bu uslubning asosidir. Xay tek qiziquvchan liniyada, anik shaklda, deyarli metallardan tayyorlangan. Bu uslubda makon va yorug'lik bog'langan, predmetlar aniq proporsiyada, bezak oz va makondan unumli foydalangan. Xay tek stildagi uyni kosmik kemaga o'xshatish mumkin.



1.2.16-rasm. Xay tek uslubida interyer.

Bu uslub hozirgi zamon harakatchan aniqlikni yaxshi ko'radigan odamlarga to'g'ri keladi. Bu usul katta shahar odamlariga mo'ljallangan. Bu yerda uylarni hammasi to'g'ri, yorqin va silliq devorlari, shift va eshik romlar. Bezaklarda: texnologiyaga rioya qilgan holda hohlagan narsalardan foydalanish mumkin masalan: gisht,

oyna, beton, tabiiy daraxt, tosh. Devorlar bo'yalgan yoki gul kog'oz yopishtirilgan. Polga keramik plitalari, tabiiy toshlar, lenolium yotqizilgan.

Mebel sodda ofis mebellariga o'xshash, ma'lum vazifalar uchun. Ular plastikdan, yaltiragan metallardan, teri o'rniga ishlatiladigan materialdan yasalgan. Bu uslubda shkaf bo'lmaydi, uni o'rniga stellaj bo'ladi. Oshxona shkafi dag'al sayqallab tayyorlangan va oq oyna. Bezaklari: furnitura sayqallangan aluminiydan. Stol, stullari bazelit plitalardan tayyorlangan. Idishlar bir xil rangda har xil figurada, bezaksiz matoviy. Chiroqlar mebelga o'rnatilgan bo'lishi mumkin. Bu uslubda rangli gammadan: qora, oq, kulrangdan foydalaniladi. Derazaga jalyuzi osiladi.

Konstruktivizm.

Konstruktivizm – lotincha sonstruktio – qurish, bino yaratish. XX asrda Yevropa mamlakatlarining rassomlik san'ati yo'nalishi bo'lib, unda ma'lum bo'lishicha rassomlik hisoblanadi. Kostruktivizmning rang tasvirda, grafikada, haykaltaroshlikda o'ziga xos belgilari bu – abstrakt geometrizm, kollajning qo'llanilishi, fotomantaj va muhit konstruksiyasi. Sobiq SSSR uchun atrof muhitni yaratish fikri, unga faol ta'siri, burjua tizimining dabdabali turmush sharoitiga qaraganda undagi soddalik va ortiqcha buyumlarning yo'qligi qarama qarshilik qilar edi. Konstruktivizmning asosida idish – tovoklar, matolar va mebellarning ishlab chiqarilishi turar edi. Konstruktivizm o'sha yillar sekin o'sib borayotgan funksionalizmning fikran bir xil bo'lgan qarindoshi desa ham bo'ladi. Unda mebellarni, ashyolarni qulaylik uchun yo'q qilish asosiy o'rinda turadi, mebellarning ko'rinishi, ko'rib – yig'iladigan, tranformatsionaladigan usullardan qo'llaniladi. mehmonxona, bank va maktablar uchun maxsus mebellar ishlab chiqiladi.

Minimalizm.

Minimalizm o'zgarishlar uchun qo'llaniladi. Unda faqat eng muhim buyumlar mavjud. Minimalizm bu – ideal proporsiyalar, yana ranglar gammasining izlanishidir. Bu yunalish chet – ellik dizaynerlari yangiliklar izlanish davrida paydo bo'lgan.

Bunda asosiysi hamma narsalar chiroyli va did bilan ishlatilgan bo'lishi hisoblanadi. Bizning tadbirlarimizda esa dasturxonda narsalarning shuncha ko'pligidan sinishi ham mumkin bu barchamizga ma'lum.



1.2.17- rasm. Konstruktivizm uslubida interyer.

Ushbu uslubda hamma narsa minimum tarzda ishlatiladi. Garb mamlakatlarida uzoq yillardan buyon modadan chiqmaydigan minimalizm yo'nalishi qo'llanib kelinayapti: uyda ko'proq bo'sh joylar yasatiladi, mebellarni faqat eng keraklisi ishlatiladi, transformerlanadigan mebellar qo'llaniladi. Keraksiz buyumlardan ko'ra yorug'lik va kenglik qadrlanadi. Undan tashqari zamonga qarab mebel va aksessuarlar judayam tez o'zgaradi, vaqt o'tgandan so'ng interyer yangilanadi.

Har xil vaqt mobaynida va har xil mamlakatlarda minimalizm yo'nalishi o'zining o'zgachaligini rivojlantirib bordi. yillarda Rossiya 60 –konstruktivizm va funksionalizm paydo bo'la boshladi. U vaqtda minimalizm chiroy va dabdabaliliklardan bosh tortar edi. Mebel ortiqcha bezaklar, naqsh va geometrik chiziqlarsiz edi. Janubda minimalizm kechroq ya'ni 60 – yillarda urfga kirdi. Hozirgi kunda minimalizmni ortiqcha bezaklarsiz va eng kerakli buyumlarning mavjudligi bilan izohlash mumkin. Hammasi zamonaviy, pishiq va funksional ravishda. Bu yo'nalishning eng asosiy detali – puxta

o‘ylab qilingan vazmin yorug‘likdan iborat. Bu yo‘nalishda xona icida to‘siqlarning bo‘lmasligi muhim ahamiyatga ega, derazalarning kattaligi esa yorug‘likni ko‘p tushishini ta‘minlaydi.



1.2.18-rasm Minimalizm uslubida interyer.

Minimalizmda asosiy qo‘llaniladigan ranglar – oq va kulrang hisoblanadi. Bular asosiy rang bo‘lib ularga qo‘shimcha qilib tabiiy daraxt rangi, shaffof yoki g‘isht ranglaridan foydalaniladi. Devor, pol va shift yorqin rangda ifodalanadi. Xonalarga ajratishda boshqa rangli harakatlanuvchi shisha devorlardan, yorkin matolardan foydalaniladi. Bu uslubning ashyolari asosan tabiiy daraxt, beton, g‘isht hisoblanadi. Bu uslubdagi mebellarni, to‘lqinsimon shaklda emas, o‘tkir burchaklilari, divan va yostiqnlarni ham shunday shakldagisi tanlanadi.

Aksesuari deyarli bo‘lmaydi. Derazalariga shaffof jalyuzilar osiladi. Devorlarga esa ingichka ramkali rasmlar ilinadi.

Modern.

Modern uy egasini yorkin shaxsligini bildirib turadi. Bu uslubdagi chiziqlar tulkinsimon va nafis bo‘lib o‘simlik ornamentini eslatib turadi.

Modern Garbda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida mamlakatning ruhiy hayotidan kelib chiqib paydo bo‘lgan. Modern uslubining eng asosiy goyasi – ajoyib go‘zallik yaratish edi. Bu esa hozirgi hayotimizda juda kam uchraydigan holat. Uning maqsadi hayotni yanada go‘zallashtirib yashash. Modernistlarni monifesti professional

badiiy ijodni turmushda ishlatiladigan buyumlarni ishlab chiqarish bilan uyg'unlashtirish edi. Bu esa amaliy san'atda o'ziga xos to'ntarishga olib keldi va qo'li gul rassom hosil kildi. Bu rassom bir paytning o'zida ham arxitektor, ham dekorator, ham rang tasvirchi, ham grafik. Bunga misol qilib M.A.Vrubelni keltiramiz, u rasm chizadi, haykal yaratadi, mebel yasaydi va teatrlashtirilgan dekoratsiyalarni yaratadi. Sharqiy – Yevropa modernini ajralib turadigan xususiyatlardan biri bu nafislik va ko'rkamlik hisoblanadi.



1.2.19-rasm. Modern uslubida interyer.

Modern yo'nalishida qurilgan uy, bu g'alati aylanmalar tarzida ishlangan: aylanma zinalar, metallardan ishlangan chirmashib usadigan o'simlikni eslatuvchi murakkab o'ramlar uyning fasadi va interyerlarida ishlatiladi. Pol to'k rangdagi daraxtdan yasalgan plitalardan, devorlar esa o'simlik naqshida ishlangan matolar bilan bezatiladi. Derazalar oval shaklda bo'lib, devor rangiga moslashtirilgan romlar bilan qoplanadi. Devorga murakkab shakldagi burchaklar bilan ishlangan oynalar qo'yiladi. Oshxonaga aylana shaklidagi oddiy stol va suyanchig'i ichkariga burilgan kursilar qo'yiladi. Mehmonxonada turli shakllar bilan bezatilgan billur qandil, yumshoq divan, suyanchig'i chig'anoqni eslatuvchi kreslolar, marmar va bronzadan yasalgan haykallar. Modern uslubida yaratilgan interyer – did va me'yorida yasalgan qimmatbaho qutichani eslatadi ko'rk bag'ishlaydi. Kolaversa xonani chinni haykalcha, chiroyli sandiqchalar bilan bezatsa bo'ladi.

Deraza pardalari yupka paxta matosidan tikiladi. Romantik uslubda albatta gullardan foydalaniladi, quritilgan atirgullar, gul tavadagi gullar, idishdagi chiroyli gullardan ham foydalaniladi

Avangard

Avangarduslubi orasidagi interfaollik va boshqa dizaynerlik uslublari o'rtasidagi asosiy farq, ranglardagi kontrastlikka, g'ayritabiiy shakllar bilan ongli tanlovning kombinatsiyasiga alohida urg'u beradi. Zamonaviy san'at inshootlarini bezashda siz rasmlar, plasmassalar, utilitar obyektlarning odatiy bo'lmagan shakllari - lampalar, narvonlarini va batareyalaridan himoya qismlari, aksesuarlar va xizmat ko'rsatish buyumlari - bularning hammasi aks ettirishga va bir vaqtning o'zida butun palitraning ajralmas qismiga aylantiriladi 1.2.20 – rasm.




1.2.20-rasm. Avangard uslubida interyer.

Pop-art

Bu atama (popularart – ommaviy madaniyat) Angliyada paydo bo'ldi, ammo xrestomatik asarlar AQSHda yaratildi. U 1960–yillarning tipik uslubiga aylandi. Atamani ilk marta Lourens Ellouey 1954 yilda, suratli jurnallarda reklama, sanoat dizayni va komikslarni yaratish bo'yicha ijodiy faoliyatni ta'riflash uchun qo'llagan. AQSHda pop-art uslubi etakchilik qilayotgan abstrakt ekspresionizmga javob tariqasida paydo bo'lgan.


Pop-art kundalik turmush va ommaviy madaniyat timsollarini zamonaviy “yuksak” san’atga kiritdi. XX asrning avangardistlari, masalan, dadaistlardan yoki o‘z zamondoshlari – “yangi realistlar” dan farqli o‘laroq uslub tarafdorlari qo‘pol voqeiylikni emas, balki ommaviy madaniyat fantomlarini – oddiy, vulgar, arzimas narsalarni – gazeta fotosuratlari, reklama, supermarket o‘rov qog‘ozlarini san’atga joriy etishdi. Bu yo‘nalish namoyandalari – Angliyada Richard Gamilton va Eduard Paolotssi, AQSHda Djasper Djons, Endi Uorxol va boshqalardir.



1.2.21-rasm. Pop-art uslubida interyer.

Loft

Sanoat uslubi va loft uslubi. Ular faqat katta xonalar uchun mo‘ljallangan, lekin kichik xonalarda ular tez-tez ishlatiladi va juda muvaffaqiyatli. Ushbu uslublar ilhom va ta’sirchanlikni doimo izlayotgan ijodiy kasb egalari uchun mukammaldir. Materiallar bu ichki uslublar ko‘plab materiallar va to‘qimalarning kombinatsiyasiga asoslangan. Bir xonada ba‘zan g‘isht, beton, yog‘och, plastik va tosh birlashtiriladi. Albatta, bu hayron qolarli lekin siz rasimga qaraysiz va hamma narsa aniq bo‘ladi. Ranglar klassik versiyada kulrang, qora va oq birlashma ancha keng tarqalgan. Qora va kulrang hukmron. Bugungi uslublar reproduksiyasi yanada yumshoq va kundalik hayotga moslashtirilgan. Yorqin ranglar rang oralig‘iga qo‘shiladi. Qishloq xo‘jaligi uslubi sobiq sanoat binolarida joylashgan, shuning uchun ochiq quyur liniyasi, elektr kabeli, ochiq holda ko‘rinish fa-



qatgina yoqimli. Issiqlik va qulaylik shafqatsiz to'qimachilik va rangli yumshoq mebel ushbu uslubga xosdir.



1.2.22-rasm. Loft uslubida interyer.

Nazorat savollari.

1. Uslub deganda nimani tushunasiz?
2. Uslublar necha turga toifalanadi?
3. Har bir uslub qanday bosqichlarga toifalanadi va nima uchun?
4. Ma'lum bir uslub haqida gapirib berish.
5. Tarixiy uslublarga qaysi uslublar xos?
6. Etnik uslublar aytib bering/
7. Zamonaviy uslublarga qaysi uslublar kiradi?
8. Uslublar bir biridan qaysi jihati orqali farq qiladi?

II – BOB

TURAR JOY VA JAMOAT BINOLARI INTERYERI VA JIHOZLARI

2.1 Turar joy binolarining asosiy va qo'shimcha xonalari va jihozlashda muhim omillar

Turar joy – yashash bino maskani, uy joy binolari oila istiqomat qiladigan bino, oilaning maishiy hayoti o'tadigan muhit. Turar joy ibtidoiy davrlardayoq taom tayyorlash, libos kiyish qatorida paydo bo'lgan. Turar joylar me'morlikda eng ko'p tarqalgan inshoot turi bo'lib, boshqa turdagi inshootlarning shakllanishi va rivojlanishini ko'p jihatdan belgilab bergan. Turar joyning tashqi va ichki shakllari, turlari va ko'rinishi jihatidan xilma-xilligi iqlim, tabiiy geografik sharoit taqozosi, ijtimoiy munosabatlar xususiyati, iqtisodiy moddiy turmush darajasi, madaniy va milliy an'analarga bog'liq holda rivojlanib, murakkablashib borgan. Turar joyning oddiy turlari qadimiy tosh davridan ma'lum. Turar joylar asrlar davomida tog' g'orlari, tabiatdagi oddiy boshpana bostirmalardan boshlab, zamonaviy ko'p qavatli uylargacha murakkab taraqqiyot jarayonini bosib o'tgan. Ayni vaqtda me'morlik shakli tamoyili asosini ta'minlab kelgan. Tosh davrida g'or, chayla, yerto'lalar turar joy vazifasini o'tagan. Inson o'troqlashgan sari turar joy shakli ham o'zgara borgan, o'rmonli joylarda yog'och uylar yuzaga kelgan (botqoq va suv bosadigan yerlarga yog'och, xoda qoqib, ustiga uy qurilgan).

Turar joyning eng muhim sifatlari uning qulayligi va ko'r-kamligidir. Ular ko'proq me'moriy yechim (xilma-xil, ba'zan qarama-qarshi talablarni o'zaro uyg'unlashtiruvchi reja, qurilish ashyolarining konstruktiv va badiiy sifatlarini to'la ochish va boshqalar) bilan ta'minlanadi. Mahalliy aholi turar joylarida naqqoshlik, o'ymakorlik kabi bezaklar keng qo'llangan. Turar joylarda jihoz (xonumon), jumladan, hozirgi vaqtda muhandislik ta'minoti (issiq, sovuq suvlar, gaz, elektr quvvati), oqova (kanalizatsiya), shamollatish, konditsionerlash va boshqa katta ahamiyatga ega. Turli mebellar (xontaxta, kursi, yumshoq mebel kabilar) xonalarga shinamlik baxsh etadi. Maishiy texnika buyumlari (sovutqich, televizor, kompyuter) iste'moli kengayib bormoqda. Ko'pgina jihoz buyumlarini yaratish

amaliy san'at darajasiga ko'tarilgan (kulollik, kandakorlik, gilamchilik, kashtachilik va boshqalar).

Mustaqillikdan keyin turar joy me'morligida yangi qurilish mezonlari va qoidalari qabul qilindi. Davlat tomonidan moliyalanadigan ko'p qavatli va arzon uylar bilan bir qatorda yakka tartibdagi shaxsiy uylar, jumladan, hashamatli ("elita") uylar qurish keng tarqaldi. Turar joylarda milliy va "yevropa" uslublari uyg'unlashib, yangi qurilish texnologiyasi va bezash ashyolari keng qo'llanilmoqda.

Xonadon nimadan boshlanadi? Agar teatr garderobdan boshlansa, xonadon (ko'p qavatli uylarda) daxliz bilan boshlanadi va u bilan tugaydi. Shuning uchun daxlizni boshqa xonalarga qaraganda o'z o'rnini va o'ziga yarasha mebeli bo'lishi lozim. Kiyim va oyoq kiyim uchun shkaf yoki shkaf-veshalka, ko'zgu. Bunga yana zontik uchun ustun-ilgak, oyoq kiyim yechish uchun stul qo'ysa yaxshi bo'ladi.

Daxlizdan asta-sekinlik bilan bevosita yoki bilvosita (yo'lak orqali) turar joy xonasiga o'tiladi. Shuning uchun daxlizda qanday dekorativ bezaklar qo'llanilgan bo'lsa, yo'lakda (koridorda) ham shularni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Daxliz interyerini dizayn yechimi usullarining farqi asosan detallarning shaklida va ularni bezashda namoyon bo'ladi. Daxliz rang yechimi xonadonni umumiy rang yechimiga mos bo'lishi kerak. Biroq och tusdagi devorlar sathi emotsional tarzda kichik daxliz va yo'lakni keng qilib ko'rsatadi. Bunda ko'zgularni sun'iy yoritish illyuzor ravishda cheksiz muhit yaratilganligini ko'rsatadi.

Dizaynerni vazifasi devorni quruq geometriyasini dekorativ ravishda ishlov berish va bejirimlik, qulaylik yaratish. Ushbu maqsadga haykaltaroshlik asarlari, yoritgichlar, amaliy san'at asarlari xizmat qiladi. Ikki sathda joylashgan xonadonlarda daxlizda ichki zina paydo bo'ladi, daxliz balandligini 2 qavatga teng qilib olish mumkin. Bunday daxlizlarni xoll (zal) deb atasa ham bo'ladi va undan barcha xonalarga bevosita kirish mumkin. Avvalombor daxlizdan bevosita umumiy xonaga kirish imkoniyati bo'lishi kerak. U yerda barcha oila a'zolari to'planishadi, dam olishadi, ovqatlanishadi. Shuning uchun umumiy xonani ikki zonaga: dam olish va ovqatlanish zonalariga bo'lish maqsadga muvofiq. Ovqatlanish zonasi ko'pincha oshxonaga yaqinroq joylashtiriladi. Zamonaviy dizayn yo'nalishi bo'yicha bir

xona fazosi ikkinchisiga bevosita o'tib ketadi. Misol uchun, daxliz muhiti asta-sekin bevosita (eshiklar o'rnatilmaydi) umumiy xonani dam olish zonasiga o'tib ketadi. Ovqatlanish zonasi bevosita oshxona fazosi bilan bog'lanib ketadi. Ular o'rtasida devor bo'lmaydi, faqat balandligi 1,2 m bo'lgan bar (to'siq) ajratib turadi.

Shunday qilib emotsional ravishda va ko'rinishga xonadon fazosi kengaytiriladi. Aytilgan maqsadni ko'zlab ko'p qavatli uylarda ham yozgi xonani (umumiy xona oldida veranda turidagi yozgi xona) katta darcha orqali umumiy xona bilan bog'lashadi va ovqatlanish zonasini verandaga olib chiqishadi.

Umumiy xona yuzasi yana ham kengayib, dam olish zonasining yuzasi deyarli 2 baravar oshadi va umuman olganda, bu xona mehmonxonaga aylanib qoladi. Bu yerda xonalarning ketma-ketligi hamda hajmi keltirilgan. Turar joy binolarida qanday xonalar bo'lishi talab etiladi. Bular daxliz, umumiy xona, mehmonxona, yotoqxona, bolalar xonasi, kabinet, oshxona, sanitar xona. Shulardan turar joy binolaridagi asosiy xonalar: Oshxona, ovqatlanish xonasi, mehmonxona, yotoqxona, bolalar xonasi, sanuzel, yuvinish xonasidan iborat.

Oshxona

Bizning mentalitetimizdan kelib chiqqan holda oshxonaga alohida e'tibor qaratsak asosiy ish joyi hisoblanib ayollar ko'p vaqt o'tqazilishi hisobga olinib qulaylikka ega bo'lishi talab etiladi. Bu yerda biz oziq-ovqat mahsulotlarini saqlaymiz, ovqat tayyorlaymiz. Ovqatni iste'mol ham qilamiz. Bu xona juda ko'p vazifalarni bajaradi, shuning uchun bu xonani oqilona tashkil etishimiz kerak. Oshxonaning barcha elementlari gaz plita, shkaflar, bar stol-stullari standart bo'yicha ishlanadi. Ular bitta modulga asoslanib bir-biridan kam farq qiladi. Bugungi kunda oshxona jihozlarining estetik imkoniyatlari juda katta. Ularning ergonomik jihatdan joylashuvi haqida ko'proq bosh qotirishimiz kerak. Chunki, ayollarimiz umrining ko'p qismi ana shu yerda o'tadi. Oshxona jihozlarining balandliklari shu xonadonda yashaydigan ayollarga nisbatan belgilanadi. Shunday bo'lsada taxminiy ergonomik o'lchamlar bor. Buni biz o'z tajribamizdan kelib chiqib bimalol ayta olamiz. Masalan: oshxonadagi ish stolining balandligi 80–85 sm atrofida. Tepadagi shkafning balandligi

esa pastki qismini 150–160 sm ga teng, ularning orasidagi masofa esa 60–70 sm larni tashkil etadi. Oshxona jihozlarini joylashtirishning estetika ahamiyatga ega bo'lgan tartibi, kuch va vaqtni tejaydi. Oshxonaning hajmini kichikligidan kelib chiqqan holda, ranglar kontrast bo'lmashligini va sovuq ranglardan foydalanishni maslahat beramiz. Keyingi paytlarda oshxonadagi idish-tovoq yuvish zonasi ro'parasiga ichki hovlini ko'rsatuvchi derazalar o'rnatish an'anaga aylanib qoldi. Chunki, bir kunda kamida 3 marotaba ayollarimiz idishlarni yuvish bilan band bo'ladilar. Bundan ular charchaydilar, o'sha paytda, deraza orqali hovlidagi gullar yoki bolalarning o'yinlarini ko'rib, charchoqlari chiqib ketadi. Bularni biz o'z hayotiy tajribamizda sinab ko'rdik. Bir so'z bilan ayganda dizayner, loyihani chizishdan oldin o'sha xonadonda yashaydigan insonlarni o'rganib chiqishi kerak. Chunki, har xil oilalar bor. Ba'zi oilalar, oila a'zolarini o'zaro muloqotda tez-tez bo'lib turishini hohlaydilar. Ba'zilar esa tez-tez mehmonlar kelib turishini hisobga olish kerak. Xullas har bir oila o'zining betakror xususiyatlariga ega. Har bir oilaning o'z turmush tarzi bo'lib, undagi buyumlar ularning didlariga mos bo'lishi, ayniqsa ularga qulay muhit yaratilganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbularning hammasini dizayner xona planirovkasida e'tiborga olishi kerak. Interyerlarda inson sog'ligi uchun zararsiz har qanday materialdan foydalanish mumkin. Interyerda 2 xil jihozlar mavjud bo'ladi. Ularni biz xona bezagi va undan foydalanish uchun ishlatamiz. Turarjoylarni loyihalashtirishda oshxonalarni jihozlashning uchta asosiy narsani joylashtirish hisobga olinadi. Yfni bu oshxona jihozlashning oltin qoidasi deb ham yuritiladi. Muzlatgich, gaz plita, idish yuvish joyi. Ushbu 3 ta asosiy ishchi uchburchakni to'g'ri joylashtirish ham vaqtni hamda ish unumdorlikni oshirishga xizmat qilishi kerak. Ushbu rasmda uchta asosiy ish burchagi Jihozlarning alohida buyumlari (plita, yuvish idishi, sovutkich, ish stoli, osma shkaflar) to'plami bilan jihozlar 2.1.1-rasm.



2.1.1-rasm. Oshxona interyeri.

Pastki va yuqori qator elementlariga ega bo'lgan baland shkafni namoyon etuvchi seksiyali (bo'limli) mebel bilan jihozlash, uyni qurish jarayonida montaj qilib o'rnatiladigan jihozlar bilan jihozlash.



2.1.2-rasm. Oshxona interyeri.

Oshxona mebellarini bir qator (bir chiziqli bo'yicha) qilib joylashtirish texnologik talablar natijasi hisoblanadi va estetik talablarga javob beradi. Alohida elementlarning kompozitsion birlashtirilishi bilan interyerda yaxlitlik va ko'rkamlikka erishiladi, oshxonadagi fazoviy kenglik jihozlarning alohida hajmda o'rnatiladigan oshxona-

dagiga qaraganda ancha keng his qilinadi. Jihozlar bir qator qilib, devorga taqab joylashtirilishi sun'iy yoritishning yangi yechimini talab etadi. Oshxonani sun'iy ravishda markaziy chiroqlar yordamida yoritishda ish stolining yuzasiga ishlayotgan odamning soyasi tushishi ovqat tayyorlash jarayoniga salbiy ta'sirini ko'rsatadi, buni bartaraf etish maqsadida ish stoli yuzasini yoritish mahalliy chiroqlar orqali kuzda tutilmog'i lozim. Ish stoli yuzasini yuqori shkafni yoritish past tekisliklarida osma elementlarni tashkil etish va devorga lyuminessentli trubkalar (chiroqlar)ni montaj qilish orqali amalga oshiriladi. Ushbu rasmda ovqat tayyorlash hamda ovqatlanish joyi birga joylashtirilgan. 2.1.2-rasm.

Oshxona o'Ichamlarining nisbati, xona konfiguratsiyasi, deraza va eshik oraliqlarining joylashish o'rniga bog'liq ravishda jihozlarni joylashtirishning 4 ta sxemasidan biri qo'llanilishi mumkin. Ensiz tomonida bitta derazaga ega bo'lgan cho'zinchoq shakldagi oshxonalarda jihozlarni devorning uzun tomonlaridan biri bo'ylab joylashtirish keng tarqalgan. Bu tizimning afzalligi ishchi operatsiyalarni funksional ketma-ketlikda yengil bajarilishiga erishish, injenerlik uzatmalarning tejalishi va jihozlarning oddiy tayyorlanishi (burchakli elementlarning bo'lmasligi) bilan izohlanadi. Tizimning kamchiliklariga ish frontining uzunligi va xonaning ensizligi tufayli nonushta stolini joylashtirishda qiyinchilikning yuzaga kelishi kiradi. Jihozlar qisqartirilgan tarkibda qo'llanilishi mumkin. Deraza pastki poldan 85 sm balandlikda joylashishi lozim. Bunday loyihalash foydalanish uchun juda qulay. Burchakli loyihalash qator ustunliklarga ega. Unda ham jihozlarning uzluksizligi ketma-ketligi ta'minlanadi. Agar bir qator chiziqli tizimda ish frontining uzunligi kamchiligi bo'lsa, "G" simon loyihalash bunday kamchilikdan holi bo'lib, unda xizmat qilish yo'li (masofasi) qisqaradi, uy bekasi jihozlarning hamma tugunlarini ko'rgan holda o'tirib ishlashi mumkin. Deraza orqali tushayotgan yorug'lik ishchi yuzani yaxshi yoritadi. Hamma tizimning ixchamligi barcha hollarda nonushta stolini qulay joylashtirish imkonini beradi. Bunda oshxonaning fazoviy kengligi ishchi zonasi va ovqatlanish zonasiga puxta bo'linadi. Jihozlarning burchakli joylashtirilishi deraza orqalaridagi devor yoniga ham o'rnatilishi mumkin.

Bunday jihozning bir tomoni tabiiy yoritilishga nisbatan noqulay holatda joylashadi. Jihozlarning burchakli joylashtirilishi katta va kichik yuzaga ega bo'lgan oshxonalarning shakli kvadrat yoki bo'yi uzunroq to'rtburchak, jihozlar tarkibining to'liq yoki qisqartirilishidan qat'iy nazar har qaysisi uchun ham qulaydir. Oshxonalarni loyihalashda ish joylarini tabiiy yorug'lik bilan yoritishga katta e'tibor qaratiladi.

To'g'ri va yon tomonlardan yoritilganda oshxonada ishlash uchun yaxshi sharoit yaratiladi ya'ni jihozlarning ish tekisligi deraza yoniga yoki derazaga tutashib ketgan devor oldiga joylashtirilganda ish yuzasi tabiiy yorug'lik yordamida yaxshi yoritiladi. Oshxonalarni loyihalashning yomon varianti bu jihozlarning deraza oralig'iga qarama-qarshi turgan devor yoniga joylashtirilishidir. Bunday yechim faqat oshxonaning o'lchamlaridan biri ancha uzun bo'lgan holda va tabiiy yoritish ushbu oshxona uchun asosiy deb hisoblanmagan hollarda o'zini oqlashi mumkin.



2.1.3-rasm. Oshxona interyeri.

Jihozlarni deraza atrofiga joylashtirish, shubhasiz, yaxshi usul hisoblanadi, lekin bunda osma shkaflarni o'rnatishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Deraza oynalarining ishchi tekislik balandligida joylashishi oshxonani yaxshi yoritadi va osma shkaflar ustidagi tasmasimon oynali derazalar oshxonaning bir tekis yoritilishini ta'minlaydi. Interьер hamda uy fasadining ko'rinishi nuqtayi-nazaridan bunday usul ancha qiziqarlidir.

Zamonaviy loyihalash-qurilish amaliyotida oshxonalarning uchta asosiy turi qabul qilingan: oshxona-taxmon (nisha); oshxona-yemak-xona, ishchi oshxona kvartirani loyihalashda oshxonalarning u yoki bu turining tanlanishi oila tarkibi, uyda xo'jalik yuritish xususiyati, turar-joyning shinamlilik darajasi ijtimoiy xizmat ko'rsatishining mavqei bilan belgilanadi.

Oshxona-taxmon kichik bo'lgan xonadonlarda hamda mehmon-xona turidagi arzon uylarda qo'llanadi. O'zining kichik gabaritlari tufayli u odatda yashash xonasining taxmoni (nishasi) ga joylashtiriladi va idishlarni yuvish uchun rakovina, katta bo'lmagan ish stoli va elektr yoki gaz plitasi bilan jihozlanadi.

Oshxona-taxmon, odatda, umumiy xonaga yoki dahlizga joylashtiriladi va tabiiy yoritilishga ega bo'lmaydi. Oshxona taxmonning umumiy xonaga joylashtirilishida albatta elektr plita qo'llanishi taqozo etiladi. Bunday oshxonaning maydoni jihozlarni faqat ishchi zonaga joylashtirish imkonini beradi. Taxmonning eni 70 sm dan kam bo'lmasligi, uzunligi esa elementlar to'plamiga bog'liq bo'lib, kamida 1,4 m va undan katta bo'lishi mumkin. Taxmon suriluvchan (ko'chiriladigan) pardevor yoki to'siqlar bilan to'silishi mumkin, bunday holda oshxona jihozlariga ega bo'lgan shkaf hosil qilinadi

Ayniqsa, bunday holat qishloq joylarida o'zining yaqqol tavsifini namoyon etadi. Oshxonalarning bunday qo'shimcha funksional juda qulay bo'lib, bu yerda hamma narsa "qo'l ostida" bo'ladi idish-tovoq ham, plita ham, stol ham, suv ham va h.k. Bularning hammasi faqat uy bekasi uchun qulaydir, chunki kun aksincha bo'lgan harakatlar ancha qisqaradi. Loyihaviy nuqtayi-nazardan davomida ko'p harakatlanishining oldi olinadi.

Bunday oshxona odatda ish stoli, rakovina va gaz plitasi (yoki elektr plita) bilan qo'chmas holatda jihozlanadi. Oshxona-yemak-xonaning minimal yuzasi (eng kam maydoni) – 8 m² ni tashkil etadi. Xonadonda xonalarning ko'payishiga bog'liq ravishda uning maydoni 10 m² gacha kengayishi mumkin Unday oshxonaning eni jihozlarning joylashishiga bog'liq bo'ladi: jihozlarning bir qator joylashishida oshxonaning eni 2,4 m dan kam bo'lmasligi, burchakli yoki ikki tomonlama joylashishida esa uning eni 2,5 m dan kam bo'lmasligi lozim.

Maydoni 6 m 2 dan yuqori bo'lgan oshxonada ovqatlanish uchun doimiy zonani tashkil etish mumkin, odatda bu zonadan boshqa oila a'zolari ham turli yumushlarni bajarishda foydalanishadi. Oshxona-yemakxona uning funksional yuklanganligiga muvofiq ravishda keng tarkibdagi jihozlarga ega bo'ladi. Eni kattaroq (2,1 m dan kam bo'lmagan) bo'lgan oshxonalar va shakli kvadratga yaqin bo'lgan oshxonalarning ikkita qarama-qarshi tomonlari bo'yicha har bir tomonga bir qatordan jihozlarni joylashtirish ancha qulaydir. bunday jihozlar shunday taqsimlanadiki, unda bir devordan qarama-qarshi tomonga ish jarayonida ortiqcha yurishning oldi olingan bo'lishi kerak. Oshxonalarda mehnatni tashkil etishning umumiy sxemasidan kelib chiqqan holda jihozlarni ikki qatorli tizim asosida joylashtirishda ular quyidagicha taqsimlanadi: birinchi qatorda - ish stoli, yuvish moslamasi (moyka) plita; ikkinchi qatorda – mahsulotlar va idish-tovoqlarni saqlash uchun shkaf, sovutkich, ikkinchi yuvish moslamasi (moyka)ni joylashtirish mumkin. Bu ikki qatorli tizim ajablanarli darajada ustunliklarga ega. Bu yerda ishlash zonasi qisqa bo'lgani tufayli bir vaqtning o'zida jihozlarning ikkala qatoridan ham foydalanish mumkin. Bunday oshxonani ish zonasi va oshxona zonasiga oson bo'lish mumkin. Derazaga bemalol (erkin tarzda) yetib borish imkoniyati mavjud. Lekin nonushta stolining deraza yoniga joylashtirilishi oshxona zonasiga ishchi zona orqali o'tishga halaqit qiladi.

Jihozlar joylashtirilishining ikki qatorli tizimi qo'llanilgan hollarda elementlarni P harfi shaklida joylashtirish orqali bir-biriga tutashtirish mumkin. Bu tizimlardan har biri ijobiy va salbiy sifatlarga ega. Bu usul ish joyining kompaktligini kamaytiradi, oshxonadagi fazoviy kenglikni ish zonasi va ovqatlanish zonasi kabi funksional zonalariga puxta qilib ajratib beradi. Sharoitdan kelib chiqqan holda jihozlarning uch qatorli tizimi har xil holatlarni egallashi mumkin: uchala qator ham devorga P shaklida taqalishi mumkin yoki bir qator alohida G shaklida bo'lishi mumkin. Ushbu rasmda ko'rish mumkin 2.1.4 –rasm.

Bunday yarim alohidalik nonushta stoli, shkafli seksiyalar yoki unisi ham bunisi ham bir vaqtning o'zida qo'llanilishi mumkin. Ba'zida jihozlarning elementlari shipkacha yetib bormaydigan shkafli pardevorlarning o'rnatilishi ularning ikki tomonidan ham foydalanish imkonini beradi. Bunday pardevorga nonushta stolini ham o'rnatish mumkin.



2.1.4-rasm. Oshxona interyeri.


Yotoqxonalar

Kun bo'yi mehnatda bo'lgan insonga fizik va psixologik holatini qayta tiklash uchun dam olish, uyqu muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun yotoqxonalarda tinchlik va sokinlik bo'lishi uchun ular boshqa xonalardan holi bo'lishi lozim va tegishli mebellar bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

Yotoqxonalar qay yo'sinda foydalanishiga qarab ikki guruhga bo'linishi mumkin:

- Dam olish va uyquga mo'ljallangan yotoqxonalar;
- Aqliy mehnat uchun zonasi ajratilgan yotoqxonalar.

Dam olish va uyqu uchun mo'ljallangan yotoqxonalar. Agar xonadonda aqliy faoliyat uchun kabinet ajratilgan bo'lsa yoki oila a'zolari uchun yotoqxonada aqliy mehnat uchun zona ajratilishi lozim bo'lmasa yotoqxona faqat dam olish uchun mo'ljallangan mebellar: karavot, tumbochka, kiyim uchunshkaf bilan jihozlangan bo'ladi. Dam olish va uyquga mo'ljallangan yotoqxonalar 2.1.5-rasm.



2.1.5-rasm. Yotoqxonada interyeri.

Yotoqxonada jihozlar yetarli bo'lishi uchun tryumo, kursi va ayniqsa inson qomatini boshdan oyoq ko'rishi uchun baland bo'yli ko'zgu bo'lishi shart. Yotoqxonada eng asosiy jihoz bu oddiy karavot. Yevropa davlatlarida yaqin o'tmishda karavot hozirgi zamon hayot tarziga javob bermaydi degan fikr hukmron edi. Sababi xonadon tarxi erkin loyihalash pitsipida yaratilib, bir xona hech qanday to'siqlarsiz ikkinchi xonaga o'tib ketardi, yotoqxonada kunduzgi xonalardan farq qilmas edi. Gigiyenaga bo'lgan zamonaviy talablar yotoqxonani avvalgi mohiyatini va o'rnini qaytarib berdi. Uxlash uchun mo'ljallangan karavotni qulayligiga hech qanday shubha yo'q.

Yotoqxonaning o'lchamlari, shakli va tarxiy yechimiga qarab karavotni quyidagi variantlarda o'rnatish mumkin:

- Karavot uzun tomoni bilan bitta devorga yondoshgan;
- Karavot kalta tomoni bilan bitta devorga yondoshgan;
- Karavot ikkita o'zaro perpendikular devorlarga yondoshgan;
- Karavot taxmondagi (alkovdagi) uchta devorga yondosh.

Aqliy mehnat uchun joy ajratilgan yotoqxonada. Yotoqxonada aqliy mehnat uchun zonani derazaga yaqinroq joyda ajratgan ma'qul, u yerda yetarlicha tabiiy yorug'lik bo'ladi. Aqliy mehnat uchun

quyidagi mebel va jihozlar lozim bo'ladi: yozuv yoki ish stoli, stul, kitob javoni (shkaf). Yozuv stoli, stul birga kamida 1,10 x 1,20 m yuzani egallaydi. Agar kitob javoniga joy bo'lmasa devorda osma polkalar o'rnatish mumkin 2.1.6 –rasm.



2.1.6-rasm. Yotoqxona interyeri.

Bu turdagi yotoqxonada ham karavot, kiyim shkafi, ayollar par-dozi uchun stol yoki tryumo zaruriy mebel hisoblanadi va ularning joylashishi yuqorida qayd etilgan.

Ko'p bolali oilalar yashaydigan kvartiralarda imkon qadar bolalar uchun maxsus alohida xonalar ko'zda tutiladi. Bu xonalarni loyihalash ma'lum darajada murakkab masala, chunki bu xonalar egalarining bog'cha, maktab yoshidan to katta bo'lgunga qadar jismoniy rivojlanish dinamikasini hisobga olishga to'g'ri keladi, bu esa ushbu xonalar interyer muhitini tez-tez almashtirish muammosini yuzaga keltiradi. Ularning yuzasi xuddi boshqa uxlash xonalari yuzasi kabi aniqlanadi. Bolalar xonalari yengil va quvonch bag'ishlovchi mazmunda bezatilishi va mebellar bilan jihozlanishi lozim.



2.1.7-rasm. Bolalar xonasi.

Bolalar xonasidagi jihozlar tabiiy va ekologik toza materiallardan bo'lishimaqsadga muvofiq. 2.1.7-rasm.

Bolalar xonasi boshqa buyumlar bilan ortiqcha to'ldirilishi maqsadga muvofiq emas. Mebellarni tanlashda nafaqat ularning ko'rinishiga, balki sifatiga ham e'tibor bilan yondashmoq kerak va bunda rangli, mustahkam va oddiy konstruksiyali mebellarni tanlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bolalar xonasining jihozlarini jamlashtirishda, bu jihozlar bog'cha yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan bo'lsa, u holda ularning o'yinlari va yugurishlari uchun kengroq yuza hosil qilinishini hisobga olish taqozo etiladi. Shu sababli bu xonalar yig'iladigan va transformatsiyalashadigan mebellar ikki yarusli konstruksiyasiga ega bo'lgan karavotlar bilan jihozlanishi maqsadga muvofiq deb topiladi. Bunday karavotlarning gabaritlari ularni xonaning istalgan joyiga o'rnatish imkonini beradi. Ba'zida yuqori karavot pastki karavot yarmisining ustiga joylashtiriladi va bunda bitta karavotga nisbatan bir yarim barobar ko'proq joy egallanadi.

Yuqorida joylashgan karavot tagidagi bo'sh joyga shkafchalar o'rnatilishi mumkin. Bunday yechimni ancha tejamkor deb hisoblash mumkin. Uchta karavotdan kombinatsiya ham mavjud. Ikki yarusli karavotlar tizimi bolalar yotoqxonasida uch va to'rt bola uchun nisbatan chegaralangan yuzani joylashtirish imkonini beradi. 2.1.8 –rasm.



2.1.8 – rasm. Bolalar xonasi.

Bolalar yotoqxonalarini mebelga qo‘shib qurilgan buralib ajratiladigan karavotlar, devorlariga kiritiladigan maxsus taxmon ko‘rinishidagi suriladigan karavotlar yoki shkafli pardevorlarga surilib kiritiladigan va ulardan chiqariladigan karavotlar bilan jihozlash ham mumkin. Bundan tashqari ancha tejamkor variantlar – uchta karavotdan tashkil topgan kombinatsiya, bu kombinatsiyada g‘ildirakli pastki karavot (uchinchi) yuqoridagi birinchi karavot tagiga surilib kiritiladigan va zarur paytlarda tortib chiqariladi (uxlash paytida). Bolalar ko‘zida odatdagi stul samolyot, avtomobil va paroxod ham bo‘lish mumkin, stol esa ertakdagi kabi uy, oddiy cho‘p – sevimli toychoq ham bo‘lishi mumkin. 2.1.9-rasm



2.1.9-rasm. Bolalar xonasi.

Shuning uchun bolalarning xonalarida ko'p hollarda oddiy shakldagi mebellar ko'proq qo'llaniladi, ulardan bolalar taassurotidagi boy fantaziya asosida har xil kombinatsiyalar tuzish mumkin. Mebeldan jarohat olmaslikning oldini olish uchun ularda o'tkir burchaklar va chiqib turgan qismlar bo'lmasligi kerak. Maktab yoshiga yetgach bolalar xonasini qayta jihozlash va mebelini yangilash bilan bog'liq bo'lgan tashvishlar yuzaga keladi. Ular deraza yaqiniga joylashgan, kunduzi yaxshi yoritiladigan va kechqurun ishlash uchun mos keladigan chiroq bilan ta'minlanishi zarur. Bu burchakni eni yetarli kattalikda bo'lgan taxtani ikkita tumbochka ustiga quyish bilan tashkil etish mumkin, tumbochkalar ichiga esa darsliklar va daftarlarni taxtlash mumkin.

Mehmonxona

Interyerdagi kompozitsion yechim interyer loyihalarini chizishda eng muhim narsa, uning kompozitsion yechimini to'g'ri topishdan iborat bo'lib, turar joy bino interyerlari uchun o'ziga xos kompozitsion yechim, jamoat binolari interyerlari uchun esa o'ziga xos kompozitsion yechim topish talab etiladi. Masalan: turar joy bino interyerlari misolida ko'rib chiqaylik. O'zimiz yashab turgan uyimizda har xil xonalar bor. Mehmonxona, umumiy xona, ish xonasi, yotoqxona, oshxona, bolalar xonasi va h.k. Mehmonxona hammamiz uchun eng muhim xona sanaladi. Mehmon kutish bizga avlodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan azaliy urf-odatlarimizdan

bo'lib, mehmonlarni yaxshilab kuzatishga harakat qilamiz. Shuning uchun ko'p e'tiborni unga qaratamiz. Mehmonxona uchun nafis kompozitsion yechim topilishi kerak. Shift va devorlardagi kompozitsiyalarda o'zaro uyg'unlikni topish kerak. Ya'ni ulardagi kompozitsiyalar bir-biriga bog'langan holda, bir maqsadga qaratilgan yoki bir mavzuni yoritib bera oladigan bo'lishi kerak. Bunda dizayner interyerni yaxlit tasavvur qilishi kerak. Ushbu mehmonxona yevropa davlatlariga mos bo'lib ularning mentalitetidan kelib chiqqan holda loyihalangan, umumiy xonalar mehmonxona vazifasini bajarishi ham mumkin. 2.1.10-rasm.




2.1.10 – rasm. Mehmonxona interyeri.

Shundan ma'lumki o'zimizning mentalitetimizdan kelib chiqqan holda mehmonxonalar o'zbekonaligimizdan mehmondo'stligimizdan kelib chiqqan holda loyiha qilinadi. Ya'ni ko'p mehmon kutishga mo'ljallangan bo'lishi maqsadga muvofiq.

Yuvinish xonasi

Hozirgi davrda hech qanday xonadonni yuvinish xonasi yoki sanitar xonasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bir xonali xonadonlarda sanuzel(tualet) va yuvinish xonasi bir xonada tashkil qilishga ruxsat beriladi. Ko'p xonali (ikki va undan ko'p) xonadonlarda sanitar xona

ikkita xonadan iborat bo'lishi kerak sanuzel va yuvinish xonasi. Sanuzel unitaz va rakovina o'rnatiladi. Yuvinish, vanna qabul qilish, kir yuvish vanna xonada bajariladi. Hozirgi kunda xonadon komfort darajasini oshirish va odamlarni o'sib borayotgan talablarini qondirish maqsadida yuvinish xonasi yuqorida aytilgan jihozlardan dush yoki dush kabinasi va "bide" (tahorat uchun) o'rnatilmoqda. Bide unitazga o'xshab sankeramikadan ishlanadi va sovuq suv bilan issiq suvga ulangan bo'lishi kerak. Bide o'lchamlari tarxda 70x35 sm. Bulardan tashqari yuvinish xonasi kir yuvadigan mashina uchun yetarlicha joy ajratilgan bo'lishi lozim. Hozirgi davrda hech qanday xonadonni vanna xonasisiz yoki sanitar xonasisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. 2.1.11-rasm



2.1.11-rasm. Yuvinish xonasi tarx qismi.

Unitazni tarxdagi o'lchamlari o'rtacha 75x35 sm, rakovinaniki 50-40 sm. Xona burchagiga qo'yiladigan rakovina 35x35 sm. Hozirgi davrda rakovinani dizayn yechimlari va unga qo'llaniladigan materiallar xilma-xil: metall dan tortib, tabiiy toshgacha. Bir nechta dizaynerlarni mualliflik ishlari ko'rsatilgan. Birinchi rakovina (Moody) xaytek usulida shishadan bajarilgan va sirasini etkanda oltin baliqchalar solingan akvariumni o'zi. Ikkinchi rakovina (Brontidi Frenze, Italiya) tog' billyuridan ishlangan va kumushdan hal berilgan (narxi 65000 yevro). Uchinchi rakovina (muallif Joerder, Germaniya) shisha kursiga qo'yilgan oddiy sopoldan iborat (narxi 1690 yevro). To'rtinchi rakovina Roberto Palamba sankeramikadan ishlagan.

Koʻrinishidan u uzun 160 sm, oʻrtasi bir oz oʻyilgan marmar taxtani eslatadi. Oʻyilgan joydan suv tushib ketadi. Bu yerda dizayner rakovina bilan polkalarni yaxlit bir taxta sifatida ifodalagan. Bunaqa dizayn yechim funksional jihatdan ijobiy baholangan. 2.1.12-rasm



2.1.12-rasm. Yuvinish xonasi interyeri.

Yuvinish xonasini asosiy jihozi bu vanna. Yaqin oʻtmishda bizning vatanimizda vannalar faqat emal qoplangan choʻyandan ishlanardi. Ularni oʻlchamlari tarxda quyidagicha boʻlgan: uzunligi 150 to 183 sm. gacha, eni 70 to 80 sm. gacha. Eng kichkina vanna 120x70 sm boʻlgan. Chet elda ishlangan choʻyan vannalar biznikiga qaraganda nozikroq ishlangan va devorining qalinligi 5 mm. Vanna-ning eni bir tomonga qarab torayib boradi, ammo sifati yuqori.

Yevropada hozir akrildan ishlangan vannalarga qiziqish katta. Agar XX asrni ikkinchi yarmida sanitar xonalarni dizayn yechimida gigiyenik aspektni namoyish qilish urf boʻlgan boʻlsa: devorlarda oq sayqallangan keramik plitalar, xromlangan santexnik jihozlar. Hozir boshqacha yondoshish urf boʻlmoqda. Yuvinish xonalarni ham turar joy xonalaridek katta loyihalab va shinam qilib bezalmoqda, yoritish uchun katta derazalar oʻrnatilib dam olish uchun toʻshak yoki kursilar joylashtirilmoqda. Bir soʻz bilan aytganda xona dizayniga “iliqlik”

(kinestetika) kiritilmoqda. Masalan: hozir oq plitkalar o'rniga ko'pincha sariq yoki och jigarrang plitkalar ishlatilmoqda.

Yuvinish xonasi poli isitilmoqda, unitaz qopqog'ida isitilgan suv aylanib turadi. Vanna qabul qilish uchun davolovchi tuzlar, maxsus dushlar insonga xizmat qiladi. Agar yuvinish xonasi polini yuzasi 10 m² dan ko'p bo'lsa, u yerda jakuzi firmasi vannasini qo'yish mumkin. Bunday vanna oddiy vannaga qaraganda katta va dizayn yechimi har xil. Eng asosiy farqi shundaki, uning anjomlari inson badanini har xil joyini gidromassaj qilishga imkoniyat beradi. Suv hajmining kattaligi odam vannada emas, kichkina hovuzda cho'milayotgandek o'zini his etadi.



2.1.13 –rasm. Yuvinish xonasi interyeri.

Hozirgi paytda vanna materiallari turli tuman: cho'yan, akril, shisha, pleksiglas, po'lat, yog'och, metakrilat. Zamonaviy qimmatbaho vannalar gidromassajdan tashqari aeromassaj (havo massaji), xromoterapiya (rang bilan davolash), aromoterapiya (hid bilan davolash) termostatlar (suv haroratini bir me'yorda ushlab turadi) bilan moslangan bo'ladi. Ayrim vannalarda hattoki SMS (qo'l telefoni) orqali suv to'ldirish texnologiyalari bor.

Agar xonadonda ikkita sanitar xona mavjud bo'lsa, ikkinchisida vanna o'rniga dush yoki dush kabinasi o'rnatgan ma'qul. Dush kabinasi cho'nqir yoki sayoz tagdonli, ikki yoki bir kishilik o'rindiqlar bilan har xil dushlar ("tropik yomg'ir", "Sharko dushi", kaskad) va aromoterapiya, xromoterapiya boshqarish pulti o'rnatish mumkin. Bular hammasi har xil kinestetik taassurot olish, sog'liqni mustahkamlash uchun 2.1.13 – rasm.

Yaxshi terapevtik natijaga erishish uchun avval turkcha saunaga kirib, so'ng – dush kabinasiga kirish tavsiya etiladi. Shunda o'pkalarda havo yaxshi almashadi va bu o'pkalarga, ya'ni odam sog'ligiga ijobiy ta'sir qiladi.

Endi yuvinish xonnasini xonadonning qay yeriga joylashtirish afzal. Mutaxassislar vanna xonani, hojatxonani daxlizni yonida; qo'shimcha sanitar xonani xonadon ichkarisida, yotoqxona oldida joylashtirishni tavsiya qilishadi. Ammo tashqi devorni yonida yuvinish xonani joylashtirish tavsiya etilmaydi. Chunki, qishda yuqori namli yuvinish havosi tashqi devor sathida mayda suv zarrachalariga aylanadi (kondensatsiya bo'ladi). Bu jarayonni oldini olish uchun tashqi devor va pol sathini isitadigan muhandislik moslamalarni qo'llash yaxshi natija beradi. Bunday sanitar xonalarda havoni tez almashtiradigan ventilatorlarni o'rnatish foydali, ayniqsa vanna xona xonadonning ichkarisida joylashsa va tashqi muhit bilan bevosita aloqasi bo'lmasa. Hozirgi paytda ventilatorni yoqish (ishga tushirish) chiroqni yoqish bilan birga bajarilmoqda. Boshqa xonalarga nisbatan vanna xonani qurish va jihozlash qimmatga tushadi. Santexnik jihozlarni mebel kabi surib bo'lmaydi. Shuning uchun yuvinish xonani tarxini to'g'ri hal qilish dizaynerlar uchun muhim vazifa hisoblanadi. Buning uchun masshtabda vanna xona tarxini chizib, so'ng sanitar jihozlarni joylashtirib chiqish kerak. Bide, rakovina va unitazlar atrofida odamni tizzasi, tirsagi uchun yetarli joy qoldirish zarur. Sochiq osib qo'yish uchun ilgak shunday joylashgan bo'lishi kerakki, unga vannadan yoki dushdan bimalol qo'l etish kerak.

Kichkina o'lchamdagi yuvinish xonani dizaynini hal qilish yagona yo'li – bu har bir kvadrat metr sathini tejamkorlik bilan ishlatish. Unitaz bakini (suv saqlaydigan idish) va trubalarni devorni ichkarisiga olsa qo'shimcha joy ochiladi va interyer ko'rinishi ham yaxshiroq bo'ladi. Unitaz va bideni devorga mahkamlab qo'yish

mumkin, katta vanna o‘rniga o‘tirib foydalaniladigan vannani o‘rnatish mumkin.

Katta yuvinish xonalarni tarxini, dizaynini hal etish osonroq va bu yerda odamga yetarlicha sharoit yaratib berish mumkin. Agar vanna xona derazasidan hovlini xilvat go‘shasiga manzara ochiladigan bo‘lsa, vannani deraza oldiga o‘rnatish mumkin va siz shu manzarani tomosha qilishingiz mumkin. Yuvinish xonasidan yoki jakuzi atrofida supacha o‘rnatsangiz, bu ulardan foydalanishni osonlashtiradi.

Nazorat savollari.

1. Turar joy deganda nimani tushunasiz?
2. Turar joylarning muhim xususiyatlari qanday?
3. Turar joylarni loyihalashda nimalarga e‘tibor qaratish kerak?
4. Xonadon interyerlarini xonalarga qanday ajratiladi?
5. Turar joy mehmonxonasi qanday jihozlanadi?
6. Oshxonani jihozlashda nimalarga ahamiyat berish talab etiladi?
7. Yuvinish xonasini bugungi kundagi talablarini ayting.

2.2 Turar joy binolari xonalarini jihoz yordamida funksional zonalash

Uyimizning ko‘rinishi bizning hayot tarzimizning aksidir, go‘zal ichki dizayndagi chuqur g‘oyaning kichik qismi.

Interyer (intérieur< lot. interior–me‘moriy va badiiy interyerni, estetik ma‘no va qulay yashash sharoitlarini ta‘minlaydigan binoning ichki qismi; Binoning ichki qismi yoki alohida xonasi, me‘moriy yechimi funksional maqsadlari bilan belgilanadi.

Ta‘kidlash joizki, dizaynda juda tez-tez badiiy bezatish kuza-tiladi, aslida bu aysbergning uchi xolos. Eng asosiy maqsad – “Funksional maqsadlari bilan aniqlangan me‘moriy yechim”. Ishonch bilan aytishimiz mumkinki bu 90% muvaffaqiyatli ichki dizayn-loyiha-lashtirish, funksionallikni aniqlash, ergonomikani yaratish, bu esa xonalarni va butun xonalarni qulay foydalanishga ta‘sir qiladi. Arxitektura yechimining muhim qismi – bizning holatlarimizda, funksional zonalash.

Xonalarni funksional zonalash-bu kvartira yoki xonadonni ma'lum bir vazifalar uchun bo'lish.(odatda oshxona),yurish maydonlari va hokazo.Xonalarni to'g'ri zonalash qulay tartib hosil qiladi. Keyingi qadam har bir xonani zonalash.

Xonalarda funksional zonalash – xonadondagi xonalarni bir xil vazifalarga ega bo'lgan guruhlariga aniq rejalashtirilgan holda bo'lish. Funksional zonalash qoydalari har doim oilaning ijtimoiy-demografik xususiyatlariga va uning turmush ta'rziga bog'liq.

Odatda kvartira ikki qismiga bo'linadi. Kunduzgi va tungi, dam olish yoki shaxsiy va umumiy oilaviy joy. Shunday qilib, ular oilaviy hayotning zarur jarayonlari va izolatsiyasini ta'minlaydi. Ya'ni: faol va passiv dam olish. Kunduzgi turar joy zonasi (umumiy oilaviy foydalanish) quydagi hududlarni o'z ichiga oladi: old, umumiy yashash xonasi, oshxona, hojatxonalar va hujra (yashash xonasi ovqat xonasi o'qish xonasi). Kechki turar joy (individual maqsad) binolarni o'z ichiga oladi: shaxsiy yashash xonalari (yotoqxona), hammom va karidor.

Umumiy xonalar markaziy markazda bo'lishi kerak. Yotoqxonalar, oshxona va zinapoyadan uzoqlashilsa, xonaning eng ajratilgan qismi, chuqurroq bo'lishi kerak Yotoqxonalari hammomlarga qulay tarzda ulangan bo'lishi kerak. Biz xonalarni zonalash uchun eng keng tarqalgan misollarni ko'rib chiqishni taklif qilamiz.

Usul 1. Mebel yordamida zonalash. Mebel yordamida zonalash. Dastlab, klassik shaklidagi deyarli har qanday ishkop devor sifatida xonani ajratishi mumkin. Shunday qilib, har qanday xonani ikki qismga bo'lsa bo'ladi, chunki kabinetning bo'linishini sizning narsalaringizning ombori sifatida xizmat qilishda davom etadi, har bir santimetr bu kichik hududlar uchun muhimdir.

Kabinet masalan kamot, divan yoki stul ham bu vazifani uddalaydi. Tasavvuringizni qo'llash uchun vositalar cheksiz. Shuningdek zonalarni ajratish vositasi ichki yoki yig'ma mebellar bilan jihozlashning turli usullari (shkaflar, kreslolar, konstruktiv jihatdan yig'ma mebel bo'lishi mumkin.



2.2.1-rasm Mebel yordamida zonalash
bo'shliq hisobga olingan bo'lsa.



2.2.2-rasm Arkalar yordamida zonalash.

Usul 2. Arkalar yordamida zonalash.

Arkalarning qulayligi shundaki xona hajmidan ma'lum bir joy egallamasligi bu arkaning asosiy siri bo'lib, faqatgina mantiqiy ra-

vishda xonadon xonalarini zonaga ajratadi, ham katta xonadonlar uchun universaldir. Baʼzan arkalarini qiziqarli yechimlar bilan tuzilishda qoʻshimcha vazifalarni bajaradi masalan u devorning bir qismi yoki kitoblar uchun oʻrnatilgan javonlar sifatida boʻlishi mumkin. Arkaning tanlashda asosiy qoidalar – bu uyning ichki qismiga uygʻun boʻlishi kerak.

Arkani tanlashda asosiy qoidalar - bu uyning ichki qismiga uygʻun boʻlishi kerak 2.2.2-rasm



2.2.3-rasm Podiyum yordamida zonalash.

Usul 3 Podiyum yordamida zonalash.

Podiyum- deb polni kerakli joydan koʻtarib turuvchi karkas konstruksiyasi deb ataladi. Podiyumning balandligi bir necha santimetrdan yarim metrga qadar boʻlishi mumkin. Tabiiyki, bunday holatda, siz uyda qulay tarzda harakatlanishga imkon beradi. Konstruktiv maydonda chegaralar yoʻq, u dekarativ maqsadlar uchun moʻljallangan kichik bir balandlik va oshxonaga, ovqat xonasiga yoki yotoqxonasiga mos keladigan boʻlishi mumkin. Xonaning kichik boʻlsa, podiyumga funkcionallikni qoʻshishga urinib koʻrishingiz mumkin. Eng keng

tarqalgan yechimlardan biri konstruktiv shkaf yoki yig'ma konteynerlar. Bundan tashqari, bunday tuzilmaning texnik ilovasi hammomlarda va oshxonalarda balandligi bo'lib, aloqa uchun zarur bo'lgan quvurlarni yoki simlarni yashirish mumkin. 2.2.3-rasm



2.2.4-rasm Rang va nur bilan zonalashtirish.


Usul 4. Rang va nur bilan zonalashtirish.

Rang va nur bilan zonalashtirish qo'shimcha o'rnatiladigan inshootlar bo'lmasa ham, kvartirani zonalarga ranglar yordamida ajratib ko'rishingiz mumkin. Masalan xonalarni muloqot va ovqatlanish zonasida aktiv ranglardan foydalanamiz, dam oladigan qismida passiv ranglardan foydalansak .

Qo'llash uslubi 5. Bugungi kunga kelib, dekorativ dizaynlar jumladan akvariumlar, va shishalik to'siqlarni kaminlar bilan bog'liq bo'lgan turli xil dizayn yechimlari mavjud. Ushbu yechimning afzaligi bu dizaynning qulayligi va nafisligi. Endi bo'sh devor o'rniga original gipsokartondan bo'lgan stelaj va dekorativ toshlar yoki shishalik konstruksiyani tanlashingiz mumkin. 2.2.5-rasm



2.2.5-rasm Dekorativ konstruksiya yordamida zonalash.



2.2.6-rasm Parda va mato yordamida zonalashtirish.

Qo'llash uslubi 6. Parda va mato yordamida zonalash.

Parda va mato . Har qanday mato , yoki parda osongina shkafni, kitob ponelini yoki yotoqni yashirishi mumkin. Bir qo'l harakati va siz mehmonlarni qabul qilishga tayyorsiz, xona toza ko'rinishga ega, butun chalkashliklar ko'zdan uzoqlashtiriladi. Ko'pincha

to'qimachilik xonalari yirik xonadonlarda ishlatiladi, Ammo ularning ishlab chiqarish maqsadlariga qaraganda ko'proq dizaynga e'tibor kuchliroq chunki, pardalarning yana bir tovushsiz afzalligi uning o'zgaruvchanligi. Sizning kayfiyatingiz bilan mato rangini va to'qimasini kamida har kuni o'zgartirishingiz mumkin. Ushbu dizayn yechimining yagona va asosiy ahvolga tushganligi ovoyni o'tkazuvchanligidir 2.2.6-rasm

Nazorat savollari

1. Turar joy binolari xonalarini jihoz yordamida funksional zonalashni uslublariga ta'rif bering.
2. Arkalar yordamida zonalash.
3. Podiyum yordamida zonalash.
4. Rang va nur bilan zonalashtirish.
5. Dekorativ konstruksiya yordamida zonalash.
6. Parda va mato yordamida zonalash.

2.3. Jamoat binolarini interyer yechimi va jihozlari

Qurilish amaliyotida ikki tushuncha, ya'ni "bino", hamda "inshoot" tushunchasi mavjud.

Jamiyatning moddiy, hamda ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun kishilar tomonidan bunyod etilgan hamma qurilmalar inshoot deyiladi.

Bino – kishilarning yashashi, bilim olishi, ishlashi, hordiq chiqarishi uchun, hamda maishiy va ishlab chiqarish maqsadlari, shuningdek hayvon, parrandalarni boqish va buyumlarni saqlash uchun quriladigan inshoot. Turar joy va jamoat binolari (maktab, teatr, kasalxona, magazin, hammom va h.k.) bo'ladi. Ko'pincha, umumiy tarzda fuqaro va sanoat binolari deb ataladi. Binoning asosiy qismlari: ko'tarib turuvchi konstruksiyalar (poydevor, ustunlar, devorlar), to'suvchi konstruksiyalar (pardadevorlar, yopmalar) va tom. Binolar mo'ljaldagi xizmat muddatiga qarab, muvaqqat va kapital xillarga bo'linadi. Bino funksionalligiga qarab, sanoat va fuqaro, turar joy va jamoat binolari ishlatiladigan qurilish ashyolari jihatidan har xil turlarga (g'ishtli, betonli, paxsa devor, sinchli, ko'p qavatli va boshqalar) bo'linadi.

Amaliy ish faoliyatida foydalaniladigan; binolarga aloqasi bo'lmagan inshootlar muhandislik inshootlari deb ataladi. Bunday inshootlar to'g'on, ko'prik, televizion minora, tunnel, metro to'xtash joylari, dudbo'ronlar, suv va don mahsulotlari saqlanadigan katta qurilmalar va h.k.lar, faqat texnik vazifalarni bajarishga mo'ljallangan bo'ladi.

Binolarning ichki bo'limini alohida xonalarga ajratish mumkin uy – joy xonasi, oshxona, sinflar, xizmat xonasi, sex va h.k. Bir xil balandlik darajasida joylashgan xonalar qavatlarini tashkil qiladi.

O'z navbatida qavatlararo yopmalar binoni balandligi bo'yicha qavatlariga ajratib turadi.

Har qanday binoni bir-biri bilan bog'liq bo'lgan qism va elementlarga, ya'ni bir-birini to'ldirib turuvchi va aniqlab beruvchi uchta guruhga ajratish mumkin:

- hajmiy rejalashtirish elementlari, ya'ni bino hajmining yirik qismlari qavat, alohida xonalar va h.k.lar;

- konstruktiv elementlar, ya'ni bino tuzilishini aniqlab beruvchi qismlari: poydevor, devor, qavatlararo yopma, tom va h.k.lar;

- qurilish buyumlari, ya'ni konstruktiv elementni tashkil etuvchi nisbatan kichik qismlar: g'isht, beton blok, oyna, po'lat armatura va h.k.lar.

Binolarga qo'yilgan asosiy talablar, binolarning klassifikatsiyasi.

Har qanday bino quyidagi asosiy talablarga javob berishi kerak:

- vazifasiga muvofiqligi, ya'ni bino qaysi jarayonga, maqsadga mo'ljallangan bo'lsa, u shu jarayon talabiga to'liq javob berishi kerak, yashash uchun qulay, dam olishga moslashtirilgan, mehnat qilishga qulay va h. k.;

- texnik tomondan muvofiqligi, ya'ni bino kishilarni tashqi ta'sirlardan past yoki yuqori temperatura, yog'ingarchilik, shamol va boshqalardan to'la asrash, mustahkam va ustuvor bo'lishi, ekspluatatsiya sifatlarini uzoq yil davomida saqlashi lozim;

- bino ko'rinishi me'morchilik va badiiylik talablariga mos holda tanlanish, uning tashqi eksterer va ichki interyer ko'rinishi chiroyli, shinam, atrof – muhit bilan uyg'unlashgan bo'lishi kerak;

Keng tarqalganligiga ko'ra binolar:

- andoza namunaviy loyiha asosida quriladigan ommaviy binolar (turar joy binolari, maktab, maktabgacha muassasa, poliklinika, kinoteatr va boshqalar);

alohida loyihalar asosida quriladigan nodir binolar (teatr, muzey, sport binolari, ma'muriy bino va h.k.lar) kabi turlarga bo'linishi mumkin.

Jamoat binolarining interyeri ergonomik xususiyatlarni inobatga olib, vazifasi, maqsadiga mos holda yaratilishi lozim.

Jamoat binolari ularda har xil hayotiy jarayonlarni o'tkazish maqsadida yaratiladi. Bunga ta'lim va tarbiya, jamoatga xizmat qilish, madaniyat, sport, dam olish va boshqalar kiradi. Bu ijtimoiy va biologik jarayonlar ularni tashkillashtirish uchun kerakli bo'lgan sharoitlarni yaratishni talab qiladi. U yoki bu jarayonni muvaffaqiyatli o'tkazish, hamda psixikani shakllantirishda bosh bo'g'im hisoblangan inson kayfiyati ko'p jihatdan sun'iy muhitni qanday yaratilganligiga bog'liq. Jamoat binolarining ichki fazoni tashkillashtirish juda murakkab hisoblanadi. U umuman arxitektura singari o'zaro bog'lanishlarning tizimi sifatida insonning ko'p tarmoqli jamoat va shaxsiy ehtiyojlarini, jamiyatning g'oya va estetik qarashlarini, shaharsozlik va tabiiy sharoitlarini va moddiy – texnikaviy imkoniyatlarni aks ettiradi. Insonning atrofni qabul qilishi va baholashday murakkab jarayonida asosiy joyni makon xarakteristikasi keyin devorlarning materiali va formasi, rang xarakteristikasi, yorug'lik, jihozlar egallaydi.

Tashqi fazodan chegaralangan ichki fazo – binoni yaratish uchun asosiy hisoblanadi. Shuning uchun makon, uning o'lchamlari va tuzilish prinsiplari interyerni shakllantirishda eng muhim va mas'ul bo'g'im (zveno) hisoblanadi. Jamoat binolarining interyerni yaratish o'zining mohiyatida ichki makonni shakllantirish bilan uning o'lchamlarini, formasini, qismlarining nisbatini, bo'linishlarning xarakterini, ochilish prinsiplaridan boshlanadi. Makon qulaylik, komfort va kayfiyatni yaratishda hal qiluvchi bo'lib, insonda erkinlik va cheklanganlik, osoyishtalik va tanglik, xushvaqtlik va tushkunlik xislarini paydo qiladi. Interyerni shakllantirishda tizim yo'li kerak.

Interyerga tizim sifatida qarash kerak. Bu tizim hamma bog'lanishlarning jami va uni aniqlovchilarining mantiqan tuzilishiga

bog'liq. Shularning ichidan makonni shakllantirishda hal qiluvchi talablar qo'yidagilar. Birinchidan obyektning vazifasi va ijtimoiy burchi bilan bog'liq bo'lgan talablar majmuasi, bu talablar ichki makonni tashkillashtirish mohiyatini aniqlab beradi. Ikkinchidan hajmiy-fazoviy tuzilishning umumiy prinsiplarini aniqlab beruvchi shaharsozlik talablari hisoblanadi. 1) Ba'zi bir inshootlar guruhining tarixiy rivojlanishi shuni ko'rsatadiki, utilitar funksiya talablari, ijtimoiy mazmun va shaharsozlik hammasi ham bir-biriga to'g'ri kelavermaydi. Ichki makon va tashqi hajm orasidagi birlikni buzgan shater paydo bo'ldi. Keyinchalik bu nomunosiblik boshqa xramlarda to'g'rilanib ichki makon va tashqi hajmning yechimi g'oyaviy mazmunga javob bergan holda bir-biriga to'g'ri keldi. Misir xramida funksional talablar bilan obyekt mazmuni kelishmasligi aniq ko'rinadi. 2) Shahar miqyosidagi va keng g'oyaviy mazmunli binolarni shaharsozlik talablariga ko'ra alohida urg'u berilib, ajratib ko'rsatiladi. Misol uchun, Flarensiya soborining gumbazi, me'moriy obidalaridagi gumbazlar, arklar, minoralar, Chorsu bozorlaridagi gumbazlar majmuasi va hokazolar. Yangi binolardan hokimiyat binosi va mustaqillik maydoni atrofidagi binolar kiradi. Yaqin 5 yil ichida juda ko'plab yangi binolar shaxrimizda qad rostlaydi.

Ichki makonni me'moriy tizim sifatida yechish, ichki bog'lanishlarni shakllantirishda, ichki makon elementlarining o'zaro bog'liqligini aniqlashda va funksiya nuqtayi nazaridan maqsadga muvofiqlik talablariga javob berish bilan bog'liq. Bu vazifani yechish makon tuzilishining prinsiplarini va yo'llarini bilishni talab qiladi. Bu keyinchalik berilgan tasavvurga to'g'ri keladigan xona fazosi tuzilishining shakllanishi uchun zarur. Ichki fazoning eng umumiy kerak bo'lgan prinsiplarini, kiritilishi zarur bo'lgan tartiblar, uni umumiy makonning bir bo'lagi deb qarashni, dunyo rivojlanishining obyektiv qonunlari va tabiat qonunlaridan axtarish kerak. 1) Maydonga qaratilgan, odamni qabul qiluvchi va unga qaratilgan makon. Bu usul magazinlarga, avtovokzal va hokazolarga xos. 2) Ichki fazo binoga kirish, shovqinli ko'cha yoki maydon tomonidan yopiq bo'lib ichkaridan chiroyli ko'rinishlarga qaratilgan. 3) Fazoning cho'ziqligi bilan aniqlanadigan bo'ylama tuzilish ikkala tomonga ham birday ochiladi. Bu usul ko'rgazma binolariga,

restoranlarga, yopiq stadionlarga, park ichidagi binolarga xos. Binoning butun ko'lam bo'yicha ochiqligi, uning tashqi makon bilan maksimal bog'lashga imkoniyat yaratadi. Asosiy yadro atrofida tuzilgan konsentrik fazo boshqaruvchi prinsip sifatida zamonaviy me'morchilikda keng qo'llaniladi. Bu yerda ikki yo'nalishni kuzatish mumkin. Birinchisi – yopiq, tashqi dunyodan chegaralangan makon; ikkinchisi – perimetri bo'yicha keng ochilgan makon. Bu chekkadan markazga qarab va markazdan chetga qarab rivojlangan makon. Yopiq fazoga o'tiradigan joylari, sport maydoniga, arenaga qaratilgan stadionlar va sirkalar kiradi. Bundan tashqari xollning, tomosha zalining, ichki hovlining markaziy fazosi o'zining atrofida boshqa xonalarni tashkil qiluvchi kompozitsiyaning boshlovchisi va asosiy elementi bo'lishi mumkin. Konsentrik ochiq va tashqi muhit bilan makon markazdan chetga qarab rivojlangan va tashqi fazo bilan bog'langan murakkab tizimdan iborat. Bu usul ichki va tashqi makonning organik bog'lanishi uchun imkoniyat yaratib beradi. Erkin makon tuzilishi va rivojlanishi asosida berkitilgan va aniqlanmagan, lekin ba'zida o'ta noziq, o'ta muhim bog'lanishlar kiritilgan. Fazo tuzilishida ma'lum darajadagi erkinlik, oldindan berilgan parametrlarning qat'iy geometrik formalari bilan bog'langan. Erkin tuzilgan makon hamma uslublarni o'z ichiga qamrab oladi. O'qlik tuzilishi qat'iy simmetriyaga o'zgarishlar kiritish bilan yumshatiladi. (Berlindagi filarmoniya zali, Sidney teatri) bo'ylama kompozitsiyalarga erkin joylashtirilgan alohida elementlar kiritiladi. (Vilnyusdagi ko'rgazmalar zali). Konsentrik rivojlanish fazo tashqi fazo bilan har xil bog'lovchilar yordamida atrof-muhitga organik qo'shilib ketadi. Ichkariga bo'ylama va bir joyga jamlanib rivojlanadigan makonlarni tuzilishning boshlang'ich elementlari deb hisoblash mumkin. Ba'zi obyektlarda u yoki bu asosiy prinsip boshqa usullar bilan qo'shiladi. Bu yerda murakkablik ikki bir necha prinsiplarning yig'indisi bilan ifoda etilib, ulardan biri, asosiy aniqlovchi, qolganlari yordamchi hisoblanadi. Misol uchun, Kalugadagi Siolkovski muzeyi. Kompozitsiyaning asosiy yaxlit makonning bo'ylama o'q yo'nalishi bo'yicha cho'zilgan hajmga joylashishdan iborat. Birlik va yaxlitlik bir necha usullarning - hamma hajmlar uchun umumiy shift, yorug'lik sistemasi, qavatlararo

yopilmalarning teshiklari, zalning bor balandligiga ishlangan mozaikali panno bilan ta'kidlangan. Boshqa tomondan bu asosiy fazoga muzeyni ko'rib chiqish bilan bog'langan vertikal bo'yicha rivojlangan murakkab tizimli fazo qarama-qarshi qo'yilgan. Bu usul kompozitsiyani murakkablashtiradi, hamda bir vaqtning o'zida uni boyitadi. Jamoat binolari ko'p sonli tashrif buyuruvchilarning vaqtinchalik tashrifi uchun mo'ljallangan (teatr, univermag, stadion va boshqalar). Shuning uchun kommunikatsiya hamda tashrif buyuruvchilarni qabul qilish va ularni tarqatish jamoat binolari uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Shunga muvofiq ravishda jamoat binolarida gorizontal va vertikal bog'lovchilar (vestibyullar, koridorlar, liftlar, nishabli yo'laklar, eskolatorlar va boshqalar)ga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, jamoat binolarining harakat belgisi bu – ko'p sonli odamlarga mo'ljallangan xonalar, zallardir. Odatda jamoat binolari mikrorayonda, turar joy hududida, shahar yoki markaziy hududlarni egallaydi va arxitekturaviy ansamblni yaratishda asosiy ob'yekt bo'lib xizmat qiladi

Masalan, kasalxona, restoran, maktab, mehmonxona va h.k. Binoning ichki qismlari 3 turga bo'linadi: A. Asosiy qism. Binoning asosiy vazifasi uchun. B. Yordamchi qismlar. D. Kommunikatsion qismlar. Bunda kompozitsiyaning turli sxemalari bor:

Demografik omillar: Jamoat binolari o'zining asosiy vazifalari aholi punktlarida joylashgan rejabiy tuzilmasi, asosiy xonalar tarkibi, arxitekturaviy kompozitsiyalarning g'oyaviy badiiy tasvirlanishi bo'yicha tavsiflanadi. Jamoat binolarining joylashish o'rni, uning ahamiyatiga ularga shahar, qishloq, tuman yoki mikrorayon aholisining ehtiyoji darajasida xizmat ko'rsatiladigan aholining toifalariga hamda uning bajaradigan vazifalariga ko'ra aniqlanadi. U yoki bu guruhdagi binolarning hajmiy – rejabiy tuzilmasi ko'p yillik loyiha – qurilish va undan foydalanish amaliyoti natijasida shakllanadi. Bu ko'p yillik shakllanish natijasida rejalashning va hajmiy fazoviy kompozitsiyalarning maqbul (optimal) tizimlari belgilanadi (o'rnatiladi) va bu tizimlardan tipik tarzda foydalaniladi. Xuddi shu asosida jamoat binolarining tashqi qiyofasining xarakter, ularning badiiy tasviri ham shakllanadi. Bularning barchasi har xil turdagi jamoat binolarining tipologik tavsifini yaratish uchun shart-

sharoit hozirlaydi. Bu tipologik tavsiyalar jamoat binolarini asosiy tipologik belgilar bo'yicha guruhlariga ajratish imkonini beradi. Iqlim sharoitlari, tabiat, aholi turmushining madaniy-maishiy jihatlari va xalqning an'analari jamoat binolarining kompozitsiyasida o'z aksini namoyon etadi, lekin ularning tipologik tavsifini o'zgartirmaydi.

Bozorlar, maydon, kinoteatr va ko'rgazma zallari. Markazlashgan Univermag, supermarket, muzeylar, anfiladli bir yoki ikki tomondan kommunikatsion koridor orqali bir-biriga bog'lanuvchi binolar koridorli seksiyali uylar seksiyali kompozitsiya aralashgan holda yaxlit aralash interyerni tashkil qiladi. Zal va anfiladli turar joy va jamoat bino interyerlarini tashkil qilishdagi asosiy jihatlardan biri bu interyerdagi kompozitsion yechimni inson ruhiyatiga ta'siri.

Har bir jamoat binosi tegishli vazifani bajarish uchun mo'ljallangan. Ular asosiy xonalar (maktabda-sinflar, Oliy o'quv yurtida - auditoriya zallari va h.k.z) ga ega bo'ladi. Asosiy xonalardan tashqari har bir jamoat binosi yordamchi xonalar (vistibyullar, foe, koridorlar, zinapoyalar, va boshqalar)ga ham ega.

Tabiiy omillar: Binoning arxitekturaviy fazoviy yechimini hal etishda, eng avvalo shaharsozlik sharoitlari hamda atrofdagi binolarning kompozitsion va statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'ylab oxirgi 30 yil mobaynida elektr tokiga bo'lgan ehtiyoj ikki barobar ortgan. Energetik resurslar hozirgi kun sivilizatsiyasining eng muhim hayot manbai hisoblanadi. Shuning uchun tabiiy resurslardan oqilona foydalanish maqsadida jahonning rivojlangan mamlakatlarida energoeffektiv binolardan foydalanish keng yo'lga qo'yilmoqda. Bu konsepsiya eksperimental izlanishlar natijasida ishlab chiqilgan bo'lib, energoeffektiv binoni loyihalashda o'z navbatida bu konsepsiya binoning ba'zi arxitekturaviy va qurilish prinsplarga amal qilinishini talab etadi.

- Energiya samarasini kuchaytirish maqsadida:

- shamol ta'sirini hisobga olgan holda arxitekturaviy hajmni muvofiqlashtirish (optimallashtirish);

- Binoning quyoshga nisbatan qulay joylashishi (bu quyosh radiatsiyasidan maksimal foydalanishni ta'minlaydi);

- Binoga toza havo bilan ta'minlovchi, ishlatib bo'lingan havodan xalos qiluvchi, xonalarga issiqlikni taqsimlovchi ventilatsion

sistemani loyihalash tavsiya etiladi. Yuqorida ko'rsatilgan faktorlarning qo'llanilishi energiya manbaining minimal sarflanishini ta'minlaydi.

Mehmonxonalar

O'zbekiston mehmonxonasi

Toshkent shahrining markaziy "Amir Temur" hiyobonida joylashgan "O'zbekiston" mehmonxonasi (mualliflar I.A Merport., L.E Ershov, 1974 y.) o'z shakli bilan ochiq kitobni eslatadi. Bino tarzini jozibali qilish uchun kvadrat shaklidagi quyoshdan saqlagichlarni ritmik ravishda joylashtirib chiqilgan. Mualliflar quyoshdan saqlaydigan panjarani shakli va proporsiyalarini yaxshi topishgan va shu bilan birga me'morchilik an'analarini ishlatib bilishgan.



2.3.1- rasm.Mehmonxona tarz ko'rinishi.

Mehmonxona 2003 yil qayta ta'mirlandi, natijada servis (xizmat ko'rsatish) sifati va turi ancha o'zgarib, u xalqaro standartlar me'yori bo'yicha 4 yulduzli otel darajasiga ko'tarildi. Vestibyl, restoran, kafe, sog'lomlashtirish markazi, turar joy nomerlari interyeri zamonaviy dizaynga ega bo'ldi. Ammo binoning tashqi ko'rinishi o'zgarmadi, faqat asosiy kirish oldiga soyabon o'rnatildi.2.3.1-rasm.

Ko'p qavatli binoning birinchi qavatini deyarli hamma yuzasini vestibyl egallaydi. Kirish eshigidan to'g'rida liftlar joylashgan. Uning yonida chiroyli aylana zina yordamida ikkinchi qavatga ko'tarilish mumkin. Ikkinchi qavatda ma'muriy – xizmat ko'rsatish xonalari joylashgan. Vestibylni o'n tarafida, ancha ichkarida,


chiroyli to'siq (bar) orqasida qabul qilish bo'limi (reception) joylashgan. Vestibulyuni shu qanotida mehmonlarni dam olishi uchun divan va kreslolar o'rnatilgan. Ularning orasida bejirim ishlangan "jurnal" stollari qo'yilgan. Stol usti sayqallangan tabiiy tosh bilan qoplangan.

Vestibulyuni chap qanotida "Vena" bari joylashgan. Bu bar tarxiy jihatdan foyeni davomi bo'lsa ham uni dizayn yechimi o'zgacha. Devorlar rangi (bayrang), jihozlar, bar to'sig'i to'q ranglarda bajarilgan. Kichik hovuzcha va tuvakdagi o'simliklar barni foyedan ajratib turadi, bu chegaradan o'tgandan so'ng, biz boshqa muhit, o'zga dunyoga tushib qolganday bo'lamiz. Vestibulga kirishingiz bilan to'g'rida 500 o'rinli "O'zbekiston" restorani joylashgan. Savdo zalining o'rtasidagi qator ustunlar uni ikki qismga bo'ladi. Har bir qismning gipsokartondan ishlangan shiftini ishlanishi o'zgacha. Devorlarni bezashda ganch o'ymakorlik san'atidan foydalanilgan. Polga qizil kovrolan to'shalgan. Restoranga kiraverishdan chap tomonda katta (200 o'rinli) va kichik (60 o'rinli) majlislar zallari joylashgan. 17 qavatda asosiy maydonni "Shaxrezada" restorani egallaydi. Bu restoranda milliy (45 o'rin) va yevropa (100 o'rinlik) zallari mavjud.

Milliy zalda devorlar somon suvoq bilan qoplangan. Bu zalni dizayn yechimida an'anaviy sopol, misdan ishlangan idish-tovoqlar, amaliy san'at asarlaridan foydalanilgan 2.3.2-rasm.

Yevropa zali xuddi 1 qavatdagi restoran zali kabi ustunlar yordamida 2 qismga bo'lingan. Devorlar sathiga badiiy ishlov berish maqsadida quyma ganch taxtachalardan foydalanilgan. Polga to'q qizil rangdagi kovrolan solingan. Derazalarga yondosh bo'lgan zal bo'lagini pol sathi asosiy pol sathidan 25 sm baland ishlangan.

"Shaxrezada" restoranining bari Yevropa zalini foyesida joylashgan. Bar to'sig'i va uni ustidagi yoritgichlarni quyuq ko'k va qizil ranglarda ishlangani va oyna orqasidagi go'zal Toshkent manzarasi – bular hammasi odamni kayfiyatini oshirishga va xursandchilikka moyil qiladi. Shu qavatda sog'lomlashtirish markazi (fitnes markaz) joylashgan. Uning tarkibiga trenajer zal, massaj xonalari, dush kabinalari kiradi. Cho'milish hovuzi ayni paytda ta'mirlanmoqda.



2.3.2 - *rasm.* Mehmonxona interyeri.

Turar joy nomerlari.

“O‘zbekiston” mehmonxonasida hammasi bo‘lib 166 nomer bor. Shulardan 160 tasi bir xonali. Ikki xonali va lyuks nomerlar oltita. Standart shaklidagi bir kishilik nomerlar 38 ta, kattaroq bir kishilik nomerlar 63 ta, ikki kishilik (twin room) bir xonali nomerlar 59 ta.

Bir kishilik kengaytirilgan nomerdagi mebellar joylashuvi quyidagicha: eshikdan kiraverishda to‘g‘rida ikkita kreslo va jurnal stoli dam olish zonasini tashkil qiladi. Kreslolar qizil mato bilan qoplangan. Deraza yonida yozuv stoli va stul joylashtirilgan. Dam olish zonasidan chapda, alkovda ikki kishilik karavot qo‘yilgan. karavot yonida tumbochkalardan tashqari jamodon qo‘yish uchun past balandlikdagi (55 sm) kichkina stol qo‘yilgan.2.3.3-rasm.

Sanitar xonaga alkovdan kiriladi. Sanitar xonada gigiyena uchun hamma jihozlar mavjud: vanna, rakovina, unitaz, soch quritish uchun fen. Rakovina bilan bir sathda marmardan polkalar ishlangan. Eshikdan nomerga kiraverishda, chapda kiyim uchun shkaf o‘rnatilgan, undan so‘ng tumba ustida televizor joylashgan. Butun nomer polini qizg‘ish rangdagi kovrolan qoplagan.



2.3.3-rasm. Turar joy nomerlari.

Lyuks nomerini dizayn yechimi xuddi bir xonali nomerdagidek, biroq bu yerda dam olish zonasi alohida xonaga joylashtirilgan va kreslodan tashqari katta yumshoq divan bor. 2.3.4-rasm.

Biz mehmonxonada bo'lganimizda Prezident nomerida ta'mirlash ishlari olib borilyotgan ekan, shuning uchun biz uni ko'rib tahlil qila olmadik.



2.3.4- rasm. Turar joy nomerlari.

“Toshkent palas” mehmonxonasi.

2003 yilda ta'mirlangan mehmonxonalar qatorida “Toshkent” mehmonxonasi (mualliflar: arx. Bulatov M.S., Karash L., injener Levchenko V) bor edi. Qayta ta'mirlash loyihasi (mualliflar: arx. A.To'xtaev., X.Bajaridji) bo'yicha tarzga va tarxga bir oz o'zgartirish, hamda SH.Rashidov ko'chasi tarafiga ko'p funktsionalli zal, biznes markaz bloklarini qurish ko'zda tutilgan edi. Ta'mirlash natijasida binoning tashqi ko'rinishi deyarli o'zgarmadi, o'zining arxitekturasi bilan, u o'sha oldingi mehmonxona tarzini saqlab qoldi: sharafali karniz, milliy me'morchilik elementlaridan ishlangan ustun, peshtoq. 2.3.5-rasm.



2.3.5-rasm. “Toshkent palas” mehmonxonasi

Ta'mirlangandan so'ng mehmonxona to'rt yulduzliga aylandi, uning tarxiy yechimiga va nomerlar dizayniga jiddiy o'zgarishlar kiritildi. Mehmonxonada konferens zal, sport-sog'lomlashtirish markazi paydo bo'ldi.

Vestibul tarxiy yechimi quyidagicha: asosiy eshikdan kirgandan so'ng to'g'rida zina-lift xolli joylashgan. Lift kabinalari to'rtta, ulardan ikkitasi shaffof to'siqli. Kiraverishda chapda qabul bo'limi (reception) egallagan. Risipshin an'anaviy to'siqsiz hal qilingan: ikkita stol va kreslo. Foyeni chap qanotida sport-sog'lomlashtirish markazi, go'zallik saloni, kichik konferens zallar mavjud. Kiraverishdan o'ngda, foyenning o'ng qanotida pivo bari joylashgan. Bar

to'sig'i, stullari, kreslolar zamonaviy dizaynda hal qilingan. Foyeda mehmonlar dam olishi uchun divan, kreslo va jurnal stolchalari katta maydonni egallaydi. Pivo barining orqasida restoran joylashgan. Restoran foyesiga mehmonxona foyesidan hamda ko'chadan kirish mumkin. Restoranda ikkita zal bor. Katta "Alisher Navoiy" zali va kichkina banket zali.

Turar joy nomerlari binoni ikkinchidan to beshinchi qavatigacha joylashgan. Hammadan ko'p bir xonali nomerlar (149 ta), ularni deluxe – S2L deb atashadi. Katta yuzali bir xonali nomerlar (KV superior) – yigirma beshta. Komfort jihatidan bulardan yuqoriroq turadigan yarim lyuks (polulyuks) nomer – executive room - ikki xonadan iborat, yotoqxona va umumiy xona. Umumiy yuzasi 41 m². Nomerda bitta sanuzel bor. Umumiy xonada divan, ikkita kreslo, jurnal stolcha va televizor qo'yilgan.



2.3.6- rasm. Turar joy nomerlari.

Junir suite (biznes) deb ataluvchi lyuks nomerda, yotoqxonada ham umumiy xonada ham alohida sanitar xona bor. Umumiy yuzasi 54 m² bo'lgan bu nomerda yotoqxonada ikki kishilik katta karavot, umumiy xonada katta stol, oltita stul, ikkita kreslolar joylashtirilgan. Har bir xonada televizor, kiyim uchun shkaf bor.

Yuzasi 81 m² bo'lgan prezident nomeri (executive suite) 3 xonadan iborat: yotoqxona, dam olish xonasi va katta stol, oltita stul

qo'yilgan umumiy xona. Har bir xonada o'zini sanitar xonasi bor, televizor, kiyim shkafi o'rnatilgan. Mehmonxonada prezident nomeridan ikkita hamma nomerlar dizayni minimalizm yo'nalishida, dekorativ bezaklarsiz, och ranglar uyg'unligida hal qilingan. Devorlar och sarg'ish rangdagi oboylar (gul qog'ozlar) bilan qoplangan. Shiftni oq rangi xonani yorug' va balandroq qilib ko'rsatadi. Yums-hoq mebel, poldagi kovrolan, deraza pardalari ranglari bir-biriga uyg'un ravishda tanlangan. 2.3 6-rasm.

Maktabgacha ta'lim muassasalari

Bolalar bog'chalariga to'xtaladigan bo'lsak hozirda MTM davlat tomonidan tashkil etilgan ya'ni SSSR davrida qurilgan bir xil andozadagi bog'chalarni tashkil etadi. Ushbu bog'chalar sovet tuzumini talablariga javob beradigan tarx bo'yicha qurilgan. Bog'chalar standartiga ko'ra 2 qavatdan oshmagan galereyali tipida bu yerda xonalar kirish xonasi, kiyinish, ovqatlanish, yotoqxona va sanuzeldan iborat. Hamma guruhlar shu-shu tarzda yechilgan. Shahar aholisini bolalar shu bog'chalarga borishadi aholini joylashganiga qarab har 300-500 metrda oralig'ida tashkil etilgan. Xonalar katta oynali to'g'ri to'rtburchak shaklida binoda 2 ta chiqish tushish zinasidan iborat 500-1000 ta bolaga mo'ljallangan. Tarzda bolalar uchun qiziq shakl rangdan iborat bo'lgan deb bo'lmaydi. Landshaftga alohida e'tibor berilmagan. Yaqin-yaqindan muassasalarni kiraverishga bolalar o'yingohlariga haykalchalar multfilm qahramonlarini haykallarini qilina boshlandi. Interyerda ham bolalar psixologoyasiga yondashilmagan. Rng shakl borasida bolalarni jalb etadigan qiziqarli kompozitsiyalar yo'q. Shkaf stullarni interyerni jihozlanishiga alohida yondashilmagan. Ovqatlanish va yotoqxonalari ba'zi bog'chalarda bir xonada joylashtirilgan. Bu bolalar uchun noqulayliklar tug'diradi. Aytish joizki interyer tushunchasi yaqin 20-yildan bizda rivoj topgani sabab u yerda bunday narsalarga e'tibor qaratilmagan. Jihozlashda ham funksionalikka, interyer yechimiga to'xtalilmagan. Ushbu bog'chalar faqat sobiq ittifoq davri standartiga javob bergan. Davlat stadartidagi bog'chalardan tashqari xususiy bog'chalar ham qurilmoqda. Ushbu bog'chalarni afzalliklari ko'p bo'lib bolalar uchun hohlagan mashg'ulotlari bilan shug'ullanishga

imkoniyat yetarlicha. Hatto shundaylari ham borki bolalarni maktabga tayyor qilib chiqarib beradi. Interyer ekstererga to'xtalsak zamon talablariga javob beradi. Bu yerda bolalar uchun hamma sharoit sport to'garaklari, qo'shimcha mashg'ulotlar, qo'shimcha til gimnastika maktabga tayyorlov kurslari bor. Ushbu bog'chalar yaqin 5-10 yiloldin qurila boshlandi. Bunday bog'chalar Toshkent shahrida sanoqli.

Prezidentimiz tashabbuslari bilan M.T.M katta e'tibor qaratilib, qurilish qayta ta'mirlash ishlari keng yo'lga qo'yildi.

O'zbekistonda maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalari 6 - 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun davlat tarbiya va sog'lomlashtirish muassasalari hisoblanadi.

Sog'lom va aqli raso maktabgacha yoshdagi bolalar uchun umumiy turdagi muassasalari asosiy hisoblanadi .

- Maxsus turdagi bolalar muassasalari quydagilar.

- Bolalar uylari (ota – onasidan ajralgan bolalar uchun).

- Sanitariyaga sog'lomlashtirish (yuqumli kasalliklar bilan kasallangan bolalar uchun) uylari.

- Maxsus (yuragi parog, ko'zi ojiz, aqli zaif bolalar uchun) muassasalar.

- Bolalar muassasalari sig'imiga qarab quydagi tartibga bo'linadi:

- kichik sig'imli – 4-5- ta guruh;

- o'rta sig'imli – 5-8- ta guruh;

- katta sig'imli – 9-14- ta guruh;

- 14 ta guruhdan oshgan BM kompleks hisoblanadi.

Sig'imiga qarab hozirgi zamon normalariga asosan BM 6 ta guruhdan iborat, ya'ni ular 50, 95, 140, 190, 280, 330 o'rinli bo'lib, mos ravishda, 2, 4, 6, 8, 12, 14 ta guruhga to'g'ri keladi. 560 - 660 o'rinli BMlar bolalar yasli bog'chasi kompleksi hisoblanib, 24 - 28 ta guruhdan iborat bo'ladi.

Bolalar muassasalarida guruhlar joylashishi.

Interyerni kompozitsion yechimlari va rangli yechimlari. Bolalar bog'chasi (bolalar xonasi) o'z qiyofasi bilan boshqa xonalardan keskin farq qiladi, bu tabiiydir: bolalar kattalardan faqat jismoniy jihatdan emas, balki o'zlarining barcha hissiy – ruhiy tuzilishlari

bilan ham ajralib turadilar. Bu yerda odamlarda bo'lgan ikkita nuqtayi nazar qarama – qarshi qo'yiladi: ulardan birining tasdiqlashicha, bolalarga shunday narsa kerakki, ular o'z qiyofasi bilan kattalarga mo'ljallangan narsalarga o'xshash bo'lsin, faqat ularning hajmi tegishli ravishda kichili bo'ladi. Ikkinchi nuqtayi nazar shundan iboratki, bolalar muhiti faqat o'zining xususiyatlariga xos bo'lgan narsalarga ega bo'lgani ularning bolaning o'zi yaratgani yaxshi.

Bola o'z atrofidagi buyumlarni yaratishda o'zi faolroq qatnashsa bu yana ham ma'qul bo'ladi. Bunday fikr psixologlar va pedagoglarning ancha salmoqli va aniq tadqiqdlariga asoslanadi. Bolalar burchagi odatda tayyor mebellardan foydalanib bezatiladi. Bolalar mebeli maxsus, lekin uni shunday joylashtirish kerakki, u yerda "Bolalar" interyeri hosil bo'lsin. Masalan ikki qavatli kravatdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday qurilma bolalarga qiziqarli bo'ladi - u o'yinlar uchun juda yaxshi joy bo'lib o'zining ichki bo'shlig'iga ega, uni qisman va butunlay bekitib qo'yish ham mumkin. Bunda foydali maydon ancha ko'p tejaladi, chunki bolalarga keng joy kerak, u ko'p vaqtni harakatda, dinamik o'yin bilan o'tkazadi. Bolalar rasm chizishni yaxshi ko'radilar, shu sababli ularga ham qanday yuza jozibador tuyuladi, shu sababli bolalar burchagiga, agar imkon bo'lsa shit, taxta qo'yib, ularni rangli linolium bilan qoplash yoki moyli bo'yoq, emal bilan bo'yash kerak. Bunday yuzaga rastel yoki rangli bo'r bilan rasim chizish qulay bo'ladi. Shularni hisobga olgan holda men ham interyerining kompozitsion yechimida yorqin ranglardan foydalanishga harakat qildim va bunga erishdim deb o'ylayman. Bunga misol qilib rang-barang fizik ashyolarini keltirish mumkin.

Shaharsozlik omillari: Bolalar bog'chalari normalaridan bizga ma'lumki ota-onalarga qulaylik yaratadigan bolalar uchun xavfsiz ya'ni ko'cha ichida bo'lgan va bolalar qatnashiga yaqin aholi zichligidan kelib chiqqan holda loyiha qilib joylashtiriladi. Aholi soniga qarab har 300-500 metr yaqinlikda bo'lsa maqsadga muvofiq.

Bolalar muassasalarining shaharda joylashishi: Shaharda 140 o'rinli, shahar tipidagi aholi markazlarida 90 o'rinli va qishloq sharoitida esa 50 o'rinli BM tavsiya qilinadi. BMlarning ommaviy

tiplari asosan mikraronlarda joylashtirilib, shu mikraronni o'ziga xizmat qiladi. qo'shilgan yoshi - bog'cha uchun xizmat qilish doirasi 300m ni tashkil etadi. Sutkali, haftali BM (internatlari) tuman, kichik shahar, qishloq yoki posyolka miqiyosida bo'lib, bolalar turadigan joyda aloqasi, bolalar turadigan joydan uzoqroq bo'lmasligi mumkin, shu sababli xizmat doirasi belgilanmaydi. Maxsus va sanitar – soq'lomlashtirish BMLar, asosan shahar chetidagi ko'kalamzor mikroiklimli joylarga quriladi..

BMning ommaviy tiplari mikraronlarda, alohida ajratilgan ko'kalamzor yerlarda va umumiy ta'lim maktablari qurilgan hududlarda joylashishi kerak.

BM shahar chegarasiga va tuman magistral ko'chalariga yaqin joylashtirish tavsiya etilmaydi. Uchastkada BMLari qizil chiziqdan 15 metr tashlagan holda joylashtirishi kerak va asosiy bolalar xonalari (o'yinxonalar, oshxonalar va guruh xonalari) janubga yoki janubiy sharqqa va sharqqa qarab joylashishi kerak. Bolalar xonalarini shimolga, shimoliy – g'arbga, shimoliy – sharqqa qaratib qurish tavsiya etilmaydi.

Bolalar muassasalari bolalarni qiziqtiradigan ularni o'ziga qamrab oladigan muassasa bo'lishi kerak. Interyer qismi juda qiziq qilib ishlangan, jihozlardan ham kerakli foydalanilgan interyeridagi ranglar gammasi bolalarga xos va mos bo'lishi talab etiladi. 2.3.7-rasm



2.3.7-rasm. Bolalar muassasasi interyeri.

Nazorat savollari.

1. Bino va inshoot tushunchasi.
2. Jamoat binosi tushunchasi.
3. Jamoat binosini dizayn konsepsiyasini yaratishda inobatga olish lozim bo'lgan shartlar qanday?
4. Jamoat binosiga qanday binolar tashkil etadi?
5. Jamoat binosi turar joy binosidan nimasi bilan farqlanadi?
6. Jamoat binosini interyeri qanday uslublarda jihozlash mumkin?
7. Mehmonxonalarni interyer jihozlashda nimalarga ahamiyat berish kerak?
8. M.T.M jihozlash va bolalar muassasalarini jihozlashning e'tiborli jihatini ayting.

III BOB

BINO INTERYERLARIDA QO‘LLANILADIGAN VA ZAMONAVIY PARDOZLASH ASHYOLARI. INTERYERDA YORUG‘LIK

3.1. Binolari interyerida qo‘llaniladigan zamonaviy materiallar va pardoqlash ashyolari

Shakl o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi, u hamisha moddiylikka egadir. Ichki fazoviy kengliklardagi to‘siqlar (to‘suvi konstruktur-siyalar) yuzasidan insonga bevosita yaqin turishi, uning oldida turli-tuman tavsiflarga ega bo‘lgan materiallar sifatida namoyon bo‘ladi va bunda metall, yog‘och, tosh va boshqa tabiiy materiallarning inson tomonidan qabul qilinishi unda boy murakkab his-tuyg‘ularni vujudga keltiradi. Interyerda qo‘llaniladigan materiallar o‘zining boy va turli-tuman sifatleri bilan insonga taniqli bo‘lgan tabiiy, an‘anaviy, materiallarga va insonga hech bir hissiyot bermaydigan, shu tufayli interyerni yaratishda faqat shakl hosil qiluvchi yuzaning sof abstrakt ifodasi sifatida ishtirok etadigan sun‘iy materiallarga bo‘linadi. Tabiiy tosh va yog‘och o‘zining tabiiyligi (naturalligi) bilan go‘zallikni, ko‘rkamlikni hosil qiladi va ular ilk qurilish materiallari sifatida ishlatilganligi tufayli qadimiy va doimiy ekanligi bilan ham ajralib turadi.

Granit, marmar, tuf va ohak o‘zining individual tavsiflari bilan o‘zining chuqur tarixiga ega va o‘zining tuzilishida tabiatning murakkabligini, turli-tumanligini, go‘zalligini va kuchini o‘zida mujassam etgan holda doimo saqlagan. Yog‘ochni ko‘ndalang va bo‘ylama kesish orqali ajoyib shakllarni hosil qilinishi, o‘zining hayotiyliigi va o‘tmishi, tabiiyligi, iliq bag‘ishlashi bilan va ajoyib xossalari bilan go‘zallik, ko‘rkamlikni namoyon etadi. Tabiiy materiallarning ishlatilishi bilan interyerning obrazli ko‘rinishini yaratish ularning katta imkoniyatlari ochilib boradi. Bu zamonaviy restoran interyeridagi ochiq balkalar misolida yaqqol namoyon bo‘ladi. Zamonaviy jamoat binolarini interyerlarida keng qo‘llaniladigan tabiiy materiallar plastik qoplama va pardozni, turli qotishmalarni, kartonlar, mumlar va chegarasiz turli-tumanlikdagi sun‘iy bo‘yoqlarning yaratilishida faol namoyon bo‘ladi.

Hozirgi vaqtda sun'iy materiallar inson tomonidan qabul qilinadigan va unga tanish bo'lgan ikkita faktura va rang kabi sifatlar bilan tavsiflanadi. Faktura bu rasm yoki tasvirning tashqi yuzasining oyna kabi silliq (tekis) bo'lib, yaltiroqligi, dag'al yengil ko'rinishi va yirik donador ko'rinishi, holatida ko'rinishi ifodalaydi.

Sun'iy materiallarning rangi turlicha bo'lishi mumkin va juda nozik did bilan qabul qilinadigan rangdagi materiallardan ishlangan buyumlar ham ko'plab ishlab chiqarilayapti.

Qurilish materiallarining vazni va muatahkamligi – bu ikkita o'zaro bog'liq bo'lgan muhim sifat konstruksiyaning ratsional mantiqiy qurilishida o'z ifodasini topadi. Bino interyerida ishlatiladigan materiallar inson ongida turli hissiyotlarni (his-tuyg'ularni) uyg'otishga qodir. Masalan, tabiiy materiallardan yog'och issiqlik (iliqlik)ni his qildiradi; granit marmar, metall esa sovuqlik hissini tug'diradi.

Interyerda yengillik va u bilan bog'liq bo'lgan shovqinni yutish kabi sifatlarga ega bo'lgan materiallardan foydalanish maqsadga muvofiqdir, ba'zan esa aksincha materiallarning bikrlilik sifatlari (xossalari)dan oqilona foydalanishga to'g'ri keladi. Teri, yog'och, pardoqlash buyumerasi, po'kak kabi yumshoq materiallardan dam olishga mo'ljallangan xonalar interyerini tashkil etishda foydalaniladi, chunki bu xonalarda jimlik va osoyishta muhitning yaratilishi juda muhim ahamiyat kasb etadi, bunday interyerlardagi muhit bevosita insonni xotirjamlashtirishi, undagi kuchlanganlik holatini bartaraf etmog'i va undan charchoqlikni chiqarib tashlash uchun xizmat qilishi lozim.

Granit, beton, metall, oyna kabi qattiq materiallardan vokzallar va katta vestibyullar, xollar va shunga o'xshash joylarda foydalaniladi. Bunday joylarda odamlar kam vaqtini o'tkazadilar va atrofdagi yuzalarning bunday qattiq materiallar bilan qoplanishi shovqinni yutmaydi aksincha kuchaytiradi, taassurotni oshiradi.


Interyerda qo'llaniladigan materiallar qatori talablarga javob berishi taqozo etiladi.

Birinchidan, materiallarning obyekt mazmuniga muvofiq (mos) kelishi. Interyerga qo'llanadigan material bino ichida ro'y beradigan jarayonga muvofiq kelishi va bu materiallar jarayon kechayotgan

paytda yuzaga keladigan ta'sirlarga qarshi reaksiya beradigan hissiyotni hosil qilishi kerak. Mana shuning uchun ham shinam restoranlarda mijoz vaqtini o'tkazishni hohlaydi, ular tabiiy materiallar – yog'och, ishlov berilmagan tosh bilan pardozlanadi. Ko'chadan ichki fazoviy kenglikka o'tadigan joyining tashkil etuvchi vestibyullarni tabiiy qo'pol toshlar bilan pardozlash ayniqsa juda o'rinlidir, ish joylarini va auditoriyalarni yengil neytral ton hosil qiluvchi ochiq rangli shtukaturka bilan pardozlash maqsadga muvofiqdir, shu sababli bunday pardozlangan interyer ish va o'qish jarayonida halaqit bermaydi. Umuman olganda interyerni bezatishda pardozlash va qurilish materiallaridan foydalanilganda turli materiallarning yagona kompozitsion yechimda uyg'unlashuvini topish bosh talab sifatida namoyon bo'ladi, bunda ular orasida bosh yetakchi materialga o'rin ajratiladi.

Bunga devorning yog'och bilan qoplanishi, g'isht qalanmasi bilan qoplangan yuzalar misol bo'la oladi. Boshqa ikkinchi darajali materiallar bosh yetakchi materialga muvofiq tarzda tanlanadi. Bu yog'ochning metall, tosh, bilan kontrastli taqqoslanishi yoki yog'ochning turli toshlarning har xil qayta ishlanishi va plastiklar bilan taqqoslanishi va h.k. Bunda nafaqat materiallarning tanlab olinishi, balki ularning zarur bo'lgan va yetarli darajadagi miqdori ham muhimdir. 3.1.1-rasm.

Badiiy vositalar ichida san'atning dekorativ-amaliy turlari eng kuchli ta'sir ko'rsatishga qodirdir. Fazoviy kenglikning



3.1.1-rasm.

jo'shqin to'ldirilganligiga erishish uchun tasviriy vositalarning qo'llanilishi zarur bo'ladi. Monumental rang tasvir jivopisdan panno, tasvirlar sifatida foydalanishda takt, me'yorni ushlashga rioya qilish,

alohida asarlarning eng yaxshi joylashish variantlarini tanlash talab etiladi.

Interyerning bezatilishida arxitektura, rangtasvir, haykaltaroshlik, grafikaning o'zaro aloqadorligi garmoniyaning qonuniyatlariga asoslanadi, interyerning bezatilishi esa uning nimaga mo'ljallanganligiga bog'liq bo'ladi.

Ichki fazoviy kengliklarni tashkil etishda maxobatli asarlardan keng foydalaniladi. Ular kompleksga panno, haykallar, fazoviy kompozitsiyalar sifatida kiritiladi.

Panno uchun mozoika, freska, relyef bajarilishining samarador usullari tanlanadi. Yanada yangi materiallarning, bir vaqtning o'zida eski materiallarning qo'llanilishi, qayta ishlash usullarining kengaytirilishi interyerlarni loyihalashning uslublarini takomillashtirish uchun chegarasiz imkoniyatlarni namoyon etadi. Metallni qayta ishlash variantlari – kovkalash, qo'yish, egish, payvandlash, toblash, kesish, silliqlash, donador shakllantirish, qoraytirish, kuydirish, laklash, travlenie, bo'yash – materialning hamma bunday qayta ishlaniishi turli kompozitsiyalar, panno, pardevorlar, bezaklar, chiroqlar, deraza panjaralarini, eshiklar yaratish maqsadida amalga oshiriladi.

3.1.2-rasm.



3.1.2-rasm. Devor mozoikasi

Qadimgi keramika eng ommabop bo'lib qolaveradi. Bu – dekorativ taqsimchalar, panno, hajmli haykallar va relyeflarning hamda vazalar, kosa-tovoqlar, gul tuvaklar, kashno, utvarlarning dekorativ bezak sifatida interyer fazoviy kengligiga qo'yilishidir. Zamonaviy interyerlarda yog'ochdan ishlangan buyumlar keng qo'llanilmoqda – bunday buyumlarga pardevorlar, devorlar, panno, mebel, plafonlar kiradi.

Yog'ochning qayta ishlanish imkoniyatlari turlichadir: kuydirish, o'yish, silliqlash, tonirovka qilish, loklash, turli lak-bo'yoqli tarkiblar bilan bo'yash. Interyerdagi alohida shinamlikni mato yaratadi. Uni gobelenlar, pardalar, shtorlar, gilamli yo'lakchalar, mebel qoplamalari ko'rinishida interyerga kiritish mumkin.

Kanop (dranirovochnaya tkan) mato nafaqat dekorativ funktsiyani bajaradi, balki u derazalarga yengil taramli holatda osilganligi bilan jazirama quyosh nurlaridan ham himoya qiladi, ancha tig'izroq holatda bo'lsa sezilarli darajada shovqinni ham yutadi, juda ham zich holatda to'qilgan kanop xonaga sovuq havoning oqib kirishiga to'sqinlik qiladi. Silliqliq matolar ancha keng tarqalgan bo'lsada, lekin ular kamroq ko'rkamlik bag'ishlaydi, ular o'ziga xos tuzilmaga ega – faktura va rangi bo'yicha chiroylidir. 3.1.3-rasm.



3.1.3-rasm. Kanop.

Sherst, ipak, paxtadan tayyorlangan tuzilmali matolar ma'muriy komplekslarda almashtirib bo'lmaydigan darajada o'z o'rniga ega. To'qilgan va tasviriy matolar bilan bolalar muassasalarini, mehmonxonalar, xollarni bezatishda foydalaniladi.

Keng oynali oraliqlarni yopish uchun va umuman butunlay bir tomonni qoplaydigan pardalar keng qo'llanilmoqda. Tomosha zalini bezaydigan sahnadagi parda markaziy rolni bajaradi. Alohida tasviriy asarlar interyerli muhitda yanada keng qo'llanilmoqda. Ularning tabaqalarini tanlashda fazoviy kenglik bilan mos o'lchamlarini e'tiborga olish juda zarurdir. Yashash muhitida – mehmonxonalar, kvartiralar, yotoqxonalar, dam olish uylarida – litografiyalar, ofortlar hamda original akvarelli rasmlarning qo'llanilishi juda o'rinnidir.

Umumiy xonada, mehmonxonada, yotoqxonada, bolalar xonasida, kabinetda polning ustki qatlamini parket yoki torket bilan qoplash maqsadga muvofiq bo'ladi. Mehmonxona, umumiy xonada parket polga gul tushirib ishlash interyer dizaynini boyitadi. Poldagi gulni shu parketni bo'lakchalaridan ishlanadi, ammo tusi fonga nisbatan ochroq yoki to'qroq qilib olinadi.

Gilamni butun xona yuzasini qoplaydigan, ovqatlanish stoli yoki jurnal stoli tagiga, karavot yoniga solish tavsiya etiladi. Ikki sathda hal qilinadigan xonadonlarda umumiy xona yoki mehmonxonaning balandligini ikki qavatga teng qilib olish ayrim jihatlardan xonadonni – tarxiy yechimiga afzalliklar bag'ishlaydi. Umumiy xonani hajmi ikki baravar oshadi, u haqiqatdan xonadon fazoviy markaziga aylanadi. Forma o'z holicha mavjud bo'lmaydi. U moddiy, ichki makon devorining yuzasi har xil xarakterlanadi, materiallarni tanlash bilan bog'liq. Me'mor interyerni obrazini ifodalaganda materiallarning xususiyatlarini ongli ravishda bilib foydalanadi. Ular bilan qo'yidagilarni his qilish – issiq va sovuq, og'ir va yengil (mustahkam), qattiq va yumshoq, faktura va rang kabilar bog'liq. Interyerda qo'llaniladigan materiallarni tabiiy va sun'iy larga bo'lish mumkin. Tabiiy materiallar – yog'och, tosh, granit, metall, beton, marmar, tuf va boshqalar. Yog'och – uni qimmatli dekorativ materialga aylantiruvchi, ko'pgina sifat larga ega; unga teginganda iliq, har xil bezaklash imkonini beradi, konstruktiv sifat larga ega, boshqa bezaklash material lari bilan yaxshi birikadi. Tabiiy tosh interyerda

qo'yidagi ko'rinishlarda qo'llaniladi: tabiiy ishlov berilmagan (shag'al, yumaloq katta toshlar, plitalar, mayda toshlar); maydalangan (uvoqlar, xarsangtosh); kesilgan (plitalar, brekchiya); qayta ishlangan sun'iy (beton, g'isht). Ularning tovlanishi darz ketishi (sinishi), rangi, fakturasi (silliq, g'adir - budir) materialning estetik sifatlarini aniqlaydi. Ular ko'pincha magazin, restoran, kafe, kinoteatrlar va hokazolarning interyerida ishlatiladi. Ishlov berilishiga qarab yuzaning ustki qismida har xil fakturalarni olish mumkin (qoya, g'adir-budir va hokazolar). Marmar, granit, tuf va ohaktoshlarning tuzilishi hamma murakkablikni, turlilikni, ifodalilikni va o'zining tabiiy kuchini, o'z tuzilishini saqlab qoladi. Sun'iy materiallar-plastiklar, har xil qo'yilmalar, kartonlar, smolalar, sun'iy ranglovchilar o'zining xilma-xilligida jamoat binolarida keng ko'lamda qo'llaniladi. Faktura har xil rasmi, eng nozik nyuanslarda ranglarga ega bo'lgan turli yuzalarga ega. Ular interyerda oldindan beriladi va boshqariladi. Qurilish materiallarining og'irligi va mustahkamligi ikki o'zaro bog'langan sifatlardan iborat bo'lib insonga nimagadir o'xshashlik, qayerdadir qurganlik (assosiasiya) taassurotini beradi.

Shunday qilib teginganda iliq bo'lib tuyuluvchi materiallar – yog'och, tabiiy tuflar, probkalar (g'ovvaklar). Sovuq materiallar – granit, marmar, metall, tosh. Materiallarni sovuq va iliqqa ajratish ularning og'irlik, issiqni o'tkazish, issiqni qabul qilish xossalariga mos keladi. Yog'ochdan interyerda foydalanish, unga iliq va yumshoq ko'rinish beradi. Tabiiy tosh, granit, marmar, g'isht, ochiq beton, shishalar qattiq materiallar bo'lib rasmiy xonalarda ishlatiladi. Bular – vokzallar, vestibyullar, xollar, magazinlar va hokazolar – odam kam vaqtini o'tkazadigan joylar. Bu yerda materialning qattiqligi kontrastni ta'kidlab, taassurotni ko'chaytiradi. Yumshoq materiallar – teri, yog'och, bezak fanerasi, g'ovak dam olishga mo'ljallangan, sokinlik, tinchlik va zo'riqishni tushiradigan xonalarda foydalaniladi. Materiallardan interyerda foydalanish bir qator talablarga javob berishi zarur. 1) Materialning obyekt mazmuniga to'g'ri kelishi. Material bino ichidagi jarayonlarni o'tkazishga mos bo'lishi kerak. Sokin sirli restoranlar yog'och va toshlardan foydalanishi. Vestibyullar – ko'chadan ichki makonga o'tishni tashkil qiluvchi tabiiy toshlar. 2) Har xil materiallarning garmonik

birikmasini topish. Bu yerda interyerda bosh boshqaruvchi materialni tanlash kerak. Qolgan materiallarni boshqaruvchi materialga mos qilib tanlash kerak. Bu yerda iliq va sovuq materiallarning keskin solishtirish yoki iliqni iliq bilan, sovuqni sovuq bilan solishtirish. 3) Konstruksiyaviy mantiq talablari Og'ir va yengil, mustahkam va joyiga qarab mustahkamligi kamroq bo'lgan materiallarni turgan o'rniga qarab foydalanish (konstruksiya nuqtayi nazaridan).

Hozirgi kunda xonalarda devor sathlarini "gulli qog'oz" (oboy) yoki interyer uchun mo'ljallangan mato bilan qoplashadi.


Gulqog'oz kabi pardoqlash materialining ommalashish tarixi bizning eramizdan 200 yil avval Xitoyda devorlarni guruchdan yasalgan qog'oz bilan yopishtirishdan boshlangan. O'sha paytdan boshlab qurilish mollari bozorida narxi, sifati, materiali va bo'yalishi bo'yicha farqlanuvchi ko'pgina gulqog'ozlar paydo bo'ldi. Ustabor.uz ekspertlari har bir 8-asosiy gulqog'ozlarning tarkibi, afzllik va kamchiliklari, hamda narxi haqida so'zlashadi.

1. Qog'oz gulqog'ozlar – eng qari va hammaga odatiy gulqog'oz turi, hozirgi kungacha past narxi va ko'pgina rangbarangligi hisobiga bozorda talabgordir. Qog'oz gulqog'ozlari birqatlamli (simpleks), ikkiqavatli (dupleks), strukturaviy va fotogulqog'ozlar bo'ladi. Ko'rsatkichlarda unchalik farqlanishiga qaramay namlikka va yorug'likka turg'un qog'oz 3.1.4-rasm.

Afzalliklari: uzoq muddatli (10 yilgacha), mustahkam (yonmaydi, yirtilmaydi), namlikka turg'un.

Kamchiliklari: qimmat narx, montajning murakkabligi, havo o'tkazmaydi, toksik.

Xonadonda shiftni eng oddiy hal qilinishi bu shift sathini tekislab, so'ngra bitta rangda bo'yash. Shift perimetri bo'yicha quyma gips taxtachalari o'rnatiladi.



3.1.4-rasm. Qog'oz gulqog'ozlar.

3. Flizelin gulqog'ozlar – flizelindan (sellyuloza to'qimalari) birqavatli gulqog'ozlar. Flizelinni yuqori mustahkamligi va yong'inga turg'unligi uchun “yaxshilangan qog'oz” deb nomlanadi. Bu to'qilmagan va rangsiz materialdan qomatni ushlab turish uchun kostyum va yuqori kiyim detallarini ishlab chiqarishda ham foydalaniladi. Flizelindan gulqog'ozlar ikki turda bo'ladi: flizelin gulqog'ozlar va vinil qoplama asosli flizelin gulqog'ozlar. Rangsiz flizelin gulqog'ozlar odatda qayta bo'yash uchun tanlanadi. Ular fakturali, ornamentli; ularni boshqa rangda bo'yash va yangi gulqog'oz yopishtirishda olib tashlamasa bo'ladi. Vinil qoplama asosli flizelin gulqog'ozlarni qayta bo'yash mumkin emas, ular so'ngi variantda sotiladilar. Ammo, agar dizaynni o'zgartirish ishtiyoqi bo'lsa, u holda vinil flizelindan oson olinadi.

Afzalliklari: yong'inga turg'un, bo'yaqlashga imkonli, havo o'tkazuvchan (vinil qatlamdan tashqari).

Kamchiliklari: yuqori narx, murakkab yopishtirilishi, fakturali gulqog'ozlarda past mustahkamlik (qirilishlar, ezilishlar), faktur gulqog'ozlarda chang to'planishi.

4. Tekstil gulqog'ozlar – bu matodan ishlab chiqarilgan gulqog'ozlar, ularning asosiy qatlami sifatida flizelin, qog'oz yoki

sintetika bo'lishi mumkin. Tekstil gulqog'ozlarga lyonli, ipakli, djutli, fetrli, velyurli, jakkardli, "yapon maysali" va boshqa sintetik asosdagi gulqog'ozlar bo'ladi.

Hashamatli matoli gulqog'ozlar qimmat turadi va klassitsizm, barokko va ampira stillaridagi interyerlarda qo'llaniladi. Har bir matoning o'zining xususiyatlari mavjud, ammo barcha tekstil gulqog'ozlar odatda o'xshash afzalliklari va kamchiliklariga egadirlar.

3.1.5-rasm.



3.1.5-rasm. Flizelin gulqog'ozlar.

Afzalliklari: tashqi ko'rinish, tabiiy material, havo o'tkazuvchanligi, shovqin va issiqlik izolatsiyasi.

Kamchiliklari: yuqori narx, yopishtirish murakkabligi, changni tortib olishi, quyoshda tabiiy matoning kuyishi, yong'inga chidamliligi va namlikka turg'unligi past.

5. Probkaviy gulqog'ozlar – tabiiy material bo'lgan daraxt terisidan tayyorlangan gulqog'oz. Probkalardan butunlay tashkil topgan gulqog'ozlar qog'oz asosidagi probkaviy qatlamga ega bo'lgan gulqog'ozlardan qimmatroq turadi. Avvalambor barcha probkaviy gulqog'ozlar bir-biri orasida bir xil bo'lib ko'rinadi, ammo

yaxshilab qaralsa daraxt terisi har xil faktura va ranglarga egaligini ko'rsa bo'ladi.


Afzalliklari: ekologik, mustahkam, yong'inga chidamli (probka yonmaydi), yuqori shovqin va issiqlik izolatsiyasi, parvarishlashda turg'un va yengil, antibakterial va suv itarish xususiyati.

Kamchiliklari: qimmat, namlik ko'tarilganda buzilishi (vanna-xonalarga to'g'ri kelmaydi).

Afzalliklari: montajning yengilligi, ulanishlarning umuman yo'qligi, chang yig'ilishini oldini olish, a'lo shovqin va issiqlik izolatsiyasi.

Kamchiliklari: yuqori narx, namlikka turg'unligi past.

6. Suyuq gulgog'ozlar – devorlarni gulgog'ozlar bilan pardo-
lashning zamonaviy yondashuvi. Suyuq gulgog'ozlar o'zi bilan
sellyuloza/ipak/ipak-sellyuloza to'qimalari va KMS elimidan tayyor-
langan suyuq aralashmani taqdim etadi. Suyuq gulgog'ozlarni
tanlayotganda devorlardagi darzlar yoki notekisliklar mavjudligi nok-
ritik – suyuq gulgog'ozlarni montaj qilayotganda barchasini to'g'ir-
lasa bo'ladi. Suyuq gulgog'ozlar tarkibiga changni itarib yuboruvchi
manfiy elektr zaryadlangan elementlar kiradi 3.1.6-rasm.



3.1.6-rasm. Suyuq gulgog'ozlar.

7. Shishamatoli gulgog'ozlar – shisha iplarning o'ralishi va
strukturasi bo'yicha matoni eslatuvchi yangi o'ylab topilgan va qim-

matbaho pardoqlash materialidir. Shishamatoning qattiqligi modifikatsiyalangan kraxmalning shimilishi yordamida yuzaga keltiriladi. Shishagulgog'ozlar materialining qattiqliligi uchun mustahkamlik va uzoq muddatlilikda barcha boshqa gulgog'ozlardan ustun turadi. Shishagulgog'ozlarni yopishtirishdan keyin ular devorga domiy mahkamlanadi va o'zining mustahkamligi hisobiga devorlarni turg'unsizlikdan asraydi. "O'rgimchak to'ri" yoki malyar shishaxolost mavjud, ular yuzalarni tekislash va rangsizlanishi va burdalanishidan himoya qilish uchun ishlatiladilar. Bu tur shift uchun ham to'g'ri keladi. Shishamatoli gulgog'ozlar bo'yalish uchun mo'ljallangan. Shishagulgog'ozlarni qo'lqoplarda, niqobda va uzun yengli ko'yalakda yopishtirish kerak. 3.1.7-rasm.



3.1.7-rasm. Shisha matoli gulgog'ozlar.

Afzalliklari: ekologik, mustahkam, uzoqmuddatli (30 yilga yaqin), yong'inga chidamli, namlikka turg'un, havo o'tkazuvchi.

Kamchiliklari: yuqori narx, pardoqlashda ish tikanli, montaj murakkab, yelim va bo'yoqni tez shimadi, bo'yayotganda yoyilmalar, bo'yoqdan dog'lar ketmaydi. Yoyilmalar vujudga kelmasligi uchun shishagulgog'ozlarni ikki qatlamda bo'yash zarur: avval vertikal, keyin esa gorizontal. Agar yelimni va bo'yoqni ko'paytirib yuborilsa gulgog'ozlar ularning og'irli ostida tushib ketishi mumkin.

8. Metall gulqog'ozlar – bu alumin folgasidan qimmat va original gulqog'ozlardir. Metall gulqog'ozlarning asosi qog'oz, flizelin yoki mato bo'lishi mumkin. Birinchi metall gulqog'ozlar insonlarni elektromagnit nurlanishdan saqlash uchun yaratilgan.

Afzalliklari: namlikka turg'un, parvarishlashda oson, yorug'lik va issiqlikni qaytaradi.


Kamchiliklari: yuqori narx, havo o'tkazmaydi, folganing qirishlarga chidamsizligi, montajning o'ziga xosligi. Metall gulqog'ozni yopishtirayotganda elektrni o'chirish zarur, hamda gulqog'oz simlar bilan tegishmayotganligini kuzatish kerak, chunki metall gulqog'ozlar o'zidan elektr tokini o'tkazishi mumkin.

Shiftlar

Yuqori shiftlar toifasiga ship-saillar kiradi. Bu dekoratsiya xona sining eng noodatiy usullaridan biridir. Ushbu turdagi shiftini o'rnatish uchun shisha tolasi bilan PVX folga ishlatiladi. Ushbu material yorug'lik bilan turli xil rang va yorug'lik effektlarini yaratishga imkon beruvchi yarim o'tkazgichdir. Tarmoqli tuzilmalar dizayni "suzib" uslubi Londonning "Serpaitan" galereyasini ushbu uslubda yaratgan Zaxa Hadid tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu original va samarali dizayni kunduzi va kechqurun hayratga soladi. Aniqlanishning boshlanishi bilan ular orqa yoritgichni yoqadi, bu esa shiftni o'ziga xos jozibasi bilan ta'minlaydi 3.1.8-rasm.

Yulduzli osmonni simulatsiya qiluvchi shiftlar turar-joy va ijtimoiy-siyosiy maydonlarga tegishli. Ushbu dizayn dizayni bar va kazinolarda muloqot qilish uchun do'stona muhit yaratishda faol foydalaniladi.

Zamonaviy yoritish texnologiyasi sizga tungi osmonning turli xil ko'rinishlarini yaratishga va o'ynashga imkon beradi: yulduzlar va sayyoralarning harakati, kometallarning va meteorlarning qulashi.



3.1.8-rasm London galereyasidagi
Serpentine Sakkler galereyasida cho‘zilgan shift.

"Yulduzli osmon"

Ushbu turdagi chimpanzorlar bitta yoki ko‘p qatlamli bo‘lishi mumkin. Xonalar dizaynida ko‘pincha yorug‘lik elementlarining kombinatsiyasidan foydalaniladi. Masalan, dam olish zonasi ustidagi "yulduzlar osmoni" qurilgan, qolgan qismi esa ko‘p qavatli bino bilan qoplangan. Zamonaviy cho‘ziladigan shiftlar juda ko‘p turli to‘qimalarga ega bo‘lishi mumkin: zamsh, metall, relyef naqshlari bilan, marmelat. Birinchidan sirt bir-biriga mos ravishda nozik tarzda ishlab chiqarilgan teriga taqlid qiladi. Bunday shiftlar obro‘-e‘tibor qozonadi va ofis va jamoat binolariga tegishli 3.1.9-rasm.



3.1.9-rasm. "Yulduzli osmon" shifti.

Osmon obrazi bilan cho'zilgan shiftni o'rnatish

Metall chinni yordamida turli xil konfiguratsiyalarni yaratish mumkin. Bu oson ish emas, faqat materiallar va vositalarni boshqarish qobiliyatini emas, balki dizaynerning qobiliyatini ham talab qiladi. Lekin hamma narsa o'rganilishi mumkin: chiroyli chiziqli rasmlarning fotosuratlarini optimal dizayni tanlashda sizga yordam beradi, asta-sekin yo'riqnomalar o'rnatishning barcha nuanses haqida sizga ma'lumot beradi.

Ko'p darajali shiftlar har qanday xonani bezattirishi mumkin.

3.1.10-rasm.



3.1.10-rasm. Osmon obrazi shift.


Yoritgichlar shift qatlamlarining orasiga va pastki qatlamni tagiga o'rnatiladi.

Hozirda Yevropa davlatlarida maxsus material tortilgan shiftlar qo'llana boshlandi. Biroq bunday shiftlarni qurish ancha qimmatga tushadi, shu sababli bizning mamlakatda u hozircha kam qo'llanilayapti.

1. Xona bezagi uchun: qandillar, pardalar, vitrajlar, kolonnalar, devor va shiftdagi kompozitsion shakllardir. 2. Foydalaniladigan ji-hozlar: stol, stul, mebel, stenka, stol lampa, gilam, televizor, musiqiy markaz va h.k. Mana shu narsalarni bir-biriga bog'lab o'zaro uyg'unligini topish muhim omil sanaladi. Ana shu uyg'unlikni ham shaklda, ham rangda topish kerak bo'ladi. Agar o'sha mutanosiblik topilsa bu uyda yashash, ishlash qulay va maroqli bo'ladi. Bunday joylardan odamlarni ketgisi kelmaydi. Interyer va undagi jihozlar uchun rang-barang materiallar mavjud. Imkoniyatlar juda katta, ayniqsa, bugungi texnika asrida, bugun yaratilgan mahsulot ertangi kun talabiga to'g'ri kelmayapti. Bu ulkan rivojlanish va o'sishdan dalolat beradi. Ana shunday boy imkoniyatlarga ega mamlakatda yashayotgan fuqarolarimiz, biz baxtiyor insonlarmiz deyishga haqlidirlar.

Devor ko'rinishlari

Shisha panellar har xil rangli va fakturali bo'lishi mumkin. Shu sababli, interyerga to'g'ri keladigan modelni tanlash qiyinchilikni hosil qilmaydi. Ko'pincha, shisha panellar boshqa ishlovdagi devor ustidan o'rnatiladi, masalan, g'ishtli yoki toshli devorlar ustidan. Shu bilan interyerda 3D ko'rinishidagi devorlar hosil bo'ladi. 3.1.11-rasm.



3.1.11-rasm. Shisha panellar

Ko'p hollarda gipsli 3D panellar oq holatda sotiladi va ishlovda shu holatda ishlatiladi. Lekin bo'yalganda, ular qiziqarliroq ko'rinadi. Undan tashqari, shu bilan ular interyerga bimalol ravon to'g'ri ke-laoladi.



3.1.12-rasm. Gipsli 3D panellar.

Yirik toshlar


Yirik toshlarning ishlovi turmushda kam ishlatiladi, ammo kichik toshlarning ishlovidan ular chiroyliroq ko'rinadi. Bu ishlov interyerga to'g'ri kelishi uchun devorni butunlay yirik toshlar bilan qoplashni va ular orasida katta masofani qoldirishni maslahat qilamiz. 3.1.13-rasm.



3.1.13-rasm. Yirik toshli devor.

Egiluvchan tosh

Bumaterial o'zida egilgan asosda yopishtirilgan mayda toshlarni yoki polimer materiallarni ko'rsatadi. Egiluvchan tosh haqiqiy tosh fakturasini qiyin bo'lgan tekisliklarda namoish qila oladi. Shunday bo'lsada, uning narxi arzondir. 3.1.14-rasm



3.1.14-rasm. Egiluvchan tosh.

Interyerda yorug'lik.

Yorug'likning vazifalari Yorug'lik – interyerni eng muhim tashkil etuvchilaridan biri hisoblanadi. Yorug'lik inson kayfiyatining turli holatini paydo qiladi. U kayfiyat g'amgin va sirli, sirli va yengil-lik beruvchi, uyg'otuvchi va sergak bo'lishi mumkin. Interyer yorug'ligini loyihalashda quyidagi vazifalar birga yechiladi; - funksional – xonada aniq ishni bajarish uchun kerak bo'lgan yorug'lik sathini ta'minlash; - Me'moriy – interyerning badiiy ifodaliligini yaratish; iqtisodiy – yorug'likni, funksional va me'moriy talablarga asoslanib optimal, eng qulay variantini aniqlash. Yorug'likning uchala vazifalari tomonini jamlaganda – utilitar, psixologik va estetik, interyerning yorug'lik me'morchiligi paydo bo'ladi. Yorug'likdan badiiy maqsadda foydalanish yangilik emas. Rus klassisizmi me'morlari zallarga serxashamlilik, bayram va fazoviylikni berish uchun qandillar va oynalardan yaxshi bilib foydalanishgan. Toshkentdagi Navoiy nomidagi opera va balet teatridagi har bir vi-loyatni bildiruvchi zallardagi naqshinkor qandillar va hokazolar. Zamonaviy interyerda yorug'likning ahamiyati shunchalik ustinki, ko'p hollarda interyer arxitekturasini idrok qilish yorug'lik bilan aniqla-nadigan bo'lib qoldi. Interyerni yoritish yo'nalishi tabiat yaratadigan yorug'liklardan olingan nisbiy yorqinlikka qarab baholanadi. Interyerni yoritish yo'nalishi tabiat yaratgan yorug'liklar yo'nalishi

bo'yicha olingan nisbiy yorqinlikka qarab belgilanadi. Tabiatdagi yorug'lik ko'zni quvontiradi. Tabiiy yorug'likning xarakterli tomonlari

1) Ko'z tushish maydonida yorug'liklar bo'linishiga ma'lum aniqlik kiritilganligi. Osmon maydonining yuqori qismi eng yorug', yerga yaqin pastki qism - eng kam yorug'likka ega.

2) Gorizontdagi narsalar o'rtacha yorug'lik bilan xarakterlanadi. Bu xususiyatlar insonga interyerda ham o'rganilgan holday bo'ladi.

3) Yorug'likning tekis maydonlarda teng bo'linishi va qiyshiq-qing'ir maydonlarda va notekis bo'linishi interyerda tekis bo'lingan yorqinlik, tekis yuza bilan notekis yorqinlik qiyshiq chiziqli yuza bilan tasavvur qilinadi.

4) Tabiiy yorug'lik yo'naltirilgan tarqalish va har xil nisbatda turli sharoitlarda aks ettirilgan nurlar bilan yaratiladi. Interyerda soyalar bilan erkin ifodalangan kontrast yorug'lik quyosh nuri bilan yoritilganlikni-soyasiz esa bulutli kun yorug'likni eslatadi.

5) Tabiiy yorug'likning yo'naltirilganligi. Uning yordamida me'moriy ritm, yorug'lik-soya ritmi bilan kuzatib boriladi. Anolog bo'yicha, interyerda agar uning tabiiy ko'rinishi zarur bo'lsa, yorug'lik-soya ritmi me'moriy ritmga mos tushishi kerak.

6) Yorug'likni yuqoridan yo'naltirilishi. Yuqoridan yoritilgan interyer tabiiylik tuyg'usini uyg'otadi; pastdan yoritilgani o'zgacha, teatrlashtirilgan tuyg'uni uyg'otadi.

7) Konstrast yorug'lik. Ko'rish. Tabiatning ba'zi kontrastlariga o'rganib qolganlik interyerda ham insonni tashlab qo'ymaydi. Yuqorida aytilganlardan qo'yidagi xulosalarni qilish mumkin. Interyerni yoritishga ikki xil yondashish mumkin.

1. Yorug'likning tabiiy sharoitlariga intilib borish-maktablarning o'quv xonalari, sport zallar, kasalxonalar va hokazolar.

2. Xonada «teatr» effektini berish-bu tomosha zallari, restoranlar, ko'rgazma zallariga to'g'ri keladi. Saroylar xarakteridagi muhtasham binolarda yorug'lik muhim me'moriy badiiy rolni bajaradi. Me'moriy ifodalikni yaratadi. (Syezdlar Saroyi Moskvada, Ukraina saroyi, Toshkentdagi xalqlar do'stligi saroyi va hokazolar). Yig'ilishlar zali, konferensial zal va shunga o'xshash boshqa xon-

alarda me'moriy talablarga ega qurilish bilan bog'liq bo'lgan funksional talablar qo'shiladi.

Yorug'lik aksentini yaratish yordamida interyerda asosiy kompozitsiya nuqtasini ajratib ko'rsatishi mumkin. Interyerda yorug'lik yordamida tektonik masalalar yechiladi. Formalar aniqlanib olinadi, konstruksiyaning mohiyati, uning turg'un ishi ochiladi. Nuqtali yoritgichlar yordamida yulduzli osmon illyuziyasi (aldanish) yaratiladi, shipni ko'rish yo'qotiladi va hokazolar. Mavzu mazmun va formaning o'ziga xos bog'lovchisi hisoblanadi. Bu degani mavzuni, qarab chiqish g'oyaviy mazmunni ifodalovchi rasmiy vositalar bilan va aniq formada ko'ringan badiiy mazmun bilan ham bog'liq. Me'morchilikda mavzu keng abstraktlik bilan tavsiflanadi. Mavzu bosh yo'llantiruvchi elementlarni aniqlashda, mavzuli va badiiy turli xil o'lchovga tushmaydigan va taqqoslab bo'lmaydigan sifatlarni bir xil yaxlitlikka bog'lashda va ularni badiiy obrazni shakllantirishda asos hisoblanadi. Me'morchilikda mavzu vaqt davomida va makonda rivojlanadi. Ba'zi formalarni, makonni, ranglarni, materiallarni ritmli navbatlash yo'li bilan uning insonga ta'sirini ko'chaytiruvchi mavzu rivojlantiriladi. Interyerda mavzuni tanlash muallifga bog'liq emas. Obyektning mazmuni mavzuni tanlashda aniqlovchi hisoblanadi. Bu mazmunning rasmiy badiiy ifodalash butunlay me'morning g'oyasiga bog'liq. Fazoda ustunlar tizimi, har xil zallarning umumiy bir xil materialdan foydalanish, devorda, zinapoyalarda va hokazolar - hammasi mavzuning rivojlantirish usullari hisoblanadi. Loyihalashda ijodiy g'oyani shakllantirish juda murakkab jarayon hisoblanadi. Misol uchun, aerovokzalning mavzusini tuzish uning sof utilitar funksiyasiga asoslanadi. Bu yerda asosiy bo'lib yo'lovchilarning keliishi va ketishi hisoblanadi. Makonda yo'lovchi, eng qisqa kommunikatsiyalar (harakat, yo'l), axborotni tezkorlik bilan berish - bu talablarning hammasi me'moriy vositalar bilan yechilishi kerak. Interyerni yaratishda aniqlovchi yo'nalishlar boshqa tashkil qiluvchilardan ham bo'lishi mumkin.

Plastik ishlangan va obrazi talqin qilingan konstruksiya, o'zining aniq ifodasida, me'moriy mavzu bo'lishi mumkin. Tokiodagi olimpiada suv stadioni misol bo'la oladi. Ba'zida jamoat binolari interyerida assoziativ ijod qo'llanadi, ya'ni obrazni qayerdadir qurilgan yoki solishtirish

analoglariga asoslangan holda assosiasiya sifatida shakllantirish, tanish hodisalarni aksi sifatda ko'rsatish. Bu yerda ko'proq ijodiy elementlar zarur. Chunki me'moriy solishtirish mumkin bo'lmagan holatlarni uddaburonlik bilan o'zgartirib ishlash lozim. Masshtab yordamida makonning, uning obrazi har xil sifat tavsifi yaratiladi. Kichkina zallarda me'morchilikning ahamiyatlilikiga masshtabning kattaligi bilan erishiladi. Bu yerda fazoning o'lehovlari emas, balki katta me'moriy elementlar ustun turadi. Moskvadagi Soyuzlar uyining ustunli zali, zamonaviy interyerlarga katta bo'lmagan xonalar, mehmonxona xollari, vestibyullari imkon boricha ixcham va detallardan holi. Ustunlarning, yoritgich plafonlarining, mebelning bu makonda ahamiyati o'sadi. Chunki, makon kichik masshtabi esa katta. Katta davlat teatrlarning zallarida Moskvadagi katta teatr, Kievda, Odessadagi teatr zallarida balandligi 15-20 metr bo'lgan katta ustunlar makonni o'zini og'irligi bilan bosib qoladi. Zalni yaruslarga bo'lib ishlash, ko'p bo'laklarga bo'lish, zal katta bo'lgani uchun masshtabini buzmaydi. Bu yerda taassurot elementlarining kattaligi bilan emas, balki ularning ko'pligi bilan va shu bilan birga makonni anchagina ko'paytirib topshiradi. Hozirgi katta interyerlarda keng ko'p ustunli zallar, ko'p yarusli xollar, murakkabroq bo'lingan, ham vertikal (balandligi), ham gorizontal yo'nalishlar bo'yicha me'morchilikning bo'linish nisbati oddiydan murakkabgacha balandligi bilan birga o'sadi. Interyerda masshtabning tavsifi va uni taqqoslash vaqt davomida amalga oshadi. Interyerni bu qabul qilish shartidan badiiy effekt va katta me'moriy kontrastlarni olish uchun foydalaniladi. Interyerda katta bo'linish va katta masshtabni yaratish vositalaridan biri konstruksiya hisoblanadi.

Stol tepasiga lyustra osib qo'yish maqsadga muvofiq. Dam olish zonasida torsher, bra kabi yoritgichlar o'rnatiladi. Agar shift ikki yoki uch yarusli (qatlamli) ishlangan bo'lsa, bir nechta nuqtali galogen yoritgichlarini pastki qatlam tekisligida yoki ikkita qatlam orasidagi fazoda joylashtirish mumkin. Shift qatlamlarining rang yechimi har xil bo'lishi mumkin, ammo ton (tus) jihatidan (tusi bo'yicha) ular och bo'lishi lozim. Shunda xona emotsional ravishda balandroq ko'rinadi.

Agar yoritgichlar joyini topib, o'z o'rnida qo'yilgan bo'lsa, shift — baland ko'rinib, xona shinam bo'ladi, aksi bo'lsa odam ruhiyatiga salbiy ta'sir qiladi. Yoritgichlarni tanlayotganda xona zonalarini va

kun davomida yoritish miqdorini o'zgarib borishini hisobga olish lozim bo'ladi. Sun'iy yorug'lik bilan interyer detalini; san'at asarini, shiftdagi ganch bezagini; kabinetdagi ishchi stolni alohida urg'ulab ko'rsatish mumkin.

Nazorat savollari.

1. Interyerda qo'llaniladigan materiallarga tarif bering.
2. Granit, beton, metall, oyna kabi qattiq materiallardan qayerda foydalaniladi?
3. Umuman olganda interyerni bezatishda pardoqlash va qurilish qanday materiallaridan foydalaniladi?
4. Interyer jihozlashda qo'llaniladigan dekorativ va qurilish ashyolarini ayting.
5. Interyerda yorug'likning ahamiyati qanchalik muhim rol o'ynaydi?
6. Interyerda tabiiy va sun'iy yorug'likni qanday qo'llash mumkin?
7. Yorug'likni qanday xonalarga ko'proq ishlatish mumkin?
8. Yorug'likni funktsionallik jihatlarini aytib bering.


3.2 Interyerda flora

Odamzod uning mavjudligi mobaynida o'zi bilmagan holda tabiatga, sivilizatsiya olamining beshigiga intilgan. Ekstremental tabiatning nafisligi va nafisligiga ega bo'lish istagi aholi punktidan tashqariga chiqmasdan amalga oshdi. Ichki vertikal bog'dorchilik g'oyalari tez tarqalishi tufayli shaharning tosh cho'llari o'rtasida xususiy uylar voha bo'lishi mumkin. Vertikal kompazitsiyalarning mashhurliqi quyidagi omillarga bog'liq:


- xonadonda kerakli bo'lgan joyni tejash;
- kunduzgi yorug'likning chegaralanishini cheklamaydi, derazaning joylanishidan qat'iy nazar xonaning ichki qismini bezatadi;
- mobil fito modullar vertikal bog'dorchilikda juda katta hissa qo'shadi va xonalarni rayonlashtirishda ishtirok etadi;
- namligini muntazam bug'lanishi bilan xonadonning kislorod bilan to'yinganligi sababli mikroiklimni takomillashtiradi.

Kvartiraning ichki qismida vertikal bog'dorchilikning tashkil qilishning birqancha usullari mavjud.

- landshaft kompozitsiya yaratish uchun an'anaviy shkaf olinadi va u yoqtirga o'simliklaringiz bilan to'ldiriladi 3.2.1-rasm.



3.2.1-rasm. Interyerda vertikal ko'klamzorlashtirish



3.2.2-rasm. Xona devorida flora dizayn

Tayyor vertikal modullar sotib olib yoki ularni mustaqil ishlab chiqarish yashil o‘tlar bilan to‘ldirib, ajoyib fito devor yaratish imkoniyati bor. 3.2.2-rasm



3.2.3-rasm. Xona devorida flora dizayn



3.2.4-rasm. Xona devorida flora dizayn (potolokdan) devordan devorga osilgan yoki gorizintal yuzaga o‘rnatiluvchi sukkulentlar yoki moxlarning panjarasini yaratish.



3.2.5-rasm. Xona devorida flora dizayn

Vertikal bog'dorchilikning murakkab namunalari ham mavjud. Ular professional uskunalarsiz va fito dizayni haqida chuqur bilimga ega bo'lmay turib tashkil etib bo'lmaydi.



3-2-6-rasm. Interyerda flora dizayn.

Vertikal ichki bog'larni egallash, o'simliklar tanlashda ehtiyotkorlik bilan yondashishni ta'minlaydi. Qaysi sifat ko'rsatkichlari xonadon-

ning ichki qismida yashil rangni nostandart joylashtirishga qo'yiladigan talablarga maqbul muvofiqligini ko'rsatadi:

- kuchli ildiz tizimi yetarli darajada ishlab chiqilgan bo'lib, mustahkam o'rnatish uchun mo'ljallangan:
- shoxlari kalta yoki jingalak, uzun kabi- barglarning shakllanishi:



3.2.7-rasm. Interyerda flora dizayn



3.2.8-rasm. Interyerda flora dizayn

Floristlarning fikriga ko'ra vertikal bog'dorchilikka quyidagi hosildorlarning vakillari e'tiborga loyiq:

- tezda o'sib chiqadigan xususiyatlarga ega bo'lgan ampel turdagi filodendron, hoya kabi o'simliklar:

- amur uzumlari, shingil, xitoylik lemongrass va polipodium fern:

- gullash vaqtida va oraliq vaqt davomida estetik ko'rinishga ega spatipillomalar, xlorofitlar, fittoniya:


- yetarli miqdordagi namlik bo'lmasa yoki issiq iqlim xonadan bo'lsa kichik sukkulentlar va kalta sansiverlar. Oshxona interyerida yalpiz, jo'xori rayhon va mayda bargli ot'lar va ko'katlar bilan bezatish mumkin.

Dizayn imkoniyatlari. Tayyor fito modullar.

Xonadonda tayyor fito modullar ishlatish vertikal bog'larni o'stirishga sezilarli darajada osonlashtiradi.


Bu tavsiya etilgan avtomatik sug'orish tizimiga bog'liq. Ular juda ixchamdir. Chuqurligi 20 smdan oshmaydi. Shuning uchun xonadonning maydoni deyarli o'zgarmaydi. Do'konlar plastmassadan tayyorlangan vertikal bog'dorchilik uchun fito modullarini taqdim etishadi. Muhrlangan orqa tomon devorda namlik qolib ketishini oldini oladi. Dizaynda qo'shimcha gidrofobik qatlamlarga ehtiyoj

yoq. Gullarni ekish uchun maxsus kameralar bilan jihozlangan, ular avtomatik tomchi sugʻrish tizimini oʻrnatishgan. Vertikal bogʻdorchilik uchun fito moduli vertikal suv bilan taʼminlanish uchun vosita yaʼni kichik motor, suv toʻplash uchun maxsus idish va namlikni oʻlchash uchun vositalar oʻrnatilgan.



3.2.9-rasm. Interyerda flora dizayn

Suv taqsimoti jadvali boshqaruv paneli yordamida oʻrnatiladi. Ichki sensor namlik darajasiga javob beradi va zarur boʻlganda avtomatik sugʻorish tizimini ishga tushiradi. 3.2.9-3.2.10-rasm



3.2.10-rasm. Interyerda flora dizayn


1) maxsus qoplama bilan yopilgan simli setka butun yashil devorning asosi hisoblanadi.

2) tomchilab sug'orish kanali butun vertikal bog'ni sug'orish imkonini beradi.

3) o'simliklarni o'stirish oson, paneldagi tashqi qatlamda kichik teshik hosil qiling. Tuvak idishlardan yosh o'simliklarni olib eking. O'simliklar tezda moslashishadi.

4) orqa devor suvga chidamli materialdan tayyorlangan, uning kattaligi tizimning qolgan qismidan biroz kattaroqdir. Qo'shimcha gidrolizatsiya vositalari shart emas.

5) maxsus to'ldiruvchi ildiz tizimining optimal rivojlanishini ta'minlaydi va buning natijasida o'simliklar devorga mustahkam joylashadi. 3.2.11-rasm



3.2.11-rasm. Interyerda flora dizayn

Qo'l qurilmalar. Xonaning ichki qismini bezatib, vertikal bog'dorchilik uchun mo'ljallanhan qurilmani o'z qo'lingiz barpo etish-ingiz mumkin. Faqatgina qiyinchilik avtomatik sug'orishning yetishmasligi. Vertikal bog'dorchilik uchun qiziqarli modellar mavjud. Eng oson yo'li quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- devoridan 5 sm masofa tashab, bir biridan 50-70sm masofada alyumindan yasalgan quvurlar yoki yog'ochdan yasalgan ikta vertikal tayoq tayyorlanadi

- yerdan potolokkacha quvurlar(tayoqlar) o'rtasidagi masofa bo'ylab qotiriladi

- tayyor qurilmaga tuvaklar qo'yiladi va o'simliklar ekiladi va yaqin vaqt ichida bu o'simliklar interyeringizga chiroy qo'shadi

Tayoqlar va tuvaklar o'rniga polipropilen quvurlar ishlatish mumkin. Ularni qirralarini yamang, so'ngra strukturani mos tuproq bilan to'ldiring va gullarni tartibga soling. Eslatma! Vertikal bog'dorchilik uchun bunday modul suyuqlik oqimini oldini olish uchun o'rtacha sug'orishni ta'minlaydi.12-rasm.




3.2.12-rasm. Interyerni flora dizaynda jihozlash




3.2.13-rasm. Interyerni flora dizaynda jihozlash.

Sukkulentli yoki moxli panellar. Xonadonning interyeriga chiroy qo'shish uchun juda chiroyli uslublar bor, bulardan biri sukku-lentlardan tayyorlangan paneldir. Buni amalga oshirish uchun sizga pastki qismlar uchun oddiy idishlar kerak bo'ladi va ekiladigan o'simliklaringiz u ilgari gorizontal holatda o'stirilgan bo'lishi shart. Idishlar oarsidagi boshliq dekarativ materiallar bialn to'ldiriladi, ma-salan mox yoki somon ihatishi mumkin. Bu ichki ko'rinishdagi ixcham landshaft tashkil etishning eng oson yo'li. Idishlar o'rniga quti gidrofobik material sifaqtida sphagnum moxlar bilan to'ldirish mumkin. Va o'simliklarni to'g'irlab turish uchun maxsus setka ish-latiliniadi 3.2.14-rasm



3.2.14-rasm. Interyerni flora dizaynda jihozlash.

Xonadonning bezatish uchun moxlar bilan qoplangan vertikal yog'och panel ishlatsa bo'ladi. Buni amalga oshirish uchun gidro-fobik gelni mox va suv bialn blenderda aralashtiriladi. Undan keyin aralashmani yog'och sirtiga surtiladi. Bu kompozitsiyani to'g'ri par-varish qilish uchun har hafta suv sepib turish shart.



3.2.15-rasm. Fasad devorida flora dizayn



3.2.16-rasm. Uy binosida flora dizayn

Nazorat savollari.

1. Vertikal kompazitsiyalarning mashhurligi qanday omillarga bog'liq?
2. Kvartiraning ichki qismida vertikal bog'dorchilikning tashkil qilishning qancha usullari mavjud?
3. Vertikal bog'dorchilikka qanday hosildorlarning vakillari e'tiborga loyiq?
4. Xonadonning interyerida bezatish uchun moxlar bilan qoplangan vertikal yog'och panel ishlatlsa bo'ladimi?
5. Sukkulentli yoki moxli panellar qayerlarda ishlatiladi?

3.3 Interyerdagi akvariumlar va suv havzalari.

Zamonaviy interyerlarni dekorlash usullaridan biri – bu akvariumlar va sun'iy suv havzalaridan foydalanishdir. Akvarium shaklining to'g'ri tanlanishi o'simliklar va baliqlar hayot faoliyati uchun normal sharoitni ta'minlaydi: o'simliklar uchun yetarlicha miqdorda yorug'lik, baliqlarga esa – erkin harakatlanish uchun fazo kerak. Akvariumning mumtoz (klassik) hajmi 100...600 l.

Akvariumlar vazifasi va ularni klassifikatsiyalash

Akvarium — hech bo'lmaganda bitta devori shaffof bajarilgan sig'imdir. Dekorativ akvariumlar – akvariumlarning eng ko'p tarqalgan turidir. Ular urbanlashgan insonning tirik tabiatni tomosha qilish talabini qondirish va relaksatsiya uchun, xonani bezatish uchun mo'ljallangan. Dekorativ akvariumlar bezatishning turli tumanligi bilan farqlanadi:

1) aralash – baliqlar va o'simliklar umumiy kelib chiqishi bilan birlashtirilmagan;

2) geografik – baliqlar va o'simliklar umumiy bitta arealdan kelib chiqishi bilan birlashtirilgan;

3) biotopli – aniq suvosti landshafti hosil qilinadi;

4) gollandiyali – aksent o'simliklarga qaratiladi;

5) turga mansub – bitta turdagi baliqlardan foydalaniladi;

6) ochiq – o'simliklarning suv ustida o'sishiga hech narsa halaqit bermaydi;

7) sun'iy — baliq va tirik o'simliklarsiz, lekin harakatchan unsurlar bilan: havo pufakchalari, plastmass shariklar, parafin, yorug'lik va x.k.

Biznes-akvariumlar — dekorativ akvarium baliqlari, tirik savdo baliqlari va qisqichbaqasimonlarni sotish maqsadida namoyish qilish uchun savdo tashkilotlari tomonidan ishlatiladi. Hidrobiontlarning sotishdan avvalgi saqlanishi faqat akvariumlarda emas, balki noshaffof devorli sig'implarda (vanna, basseyn) ham amalga oshiriladi, ular odatda xizmatchi xonalarda montirovkalanadi.

Reklama akvariumlari — suv ta'siridan qo'rqmaydigan tovarlar namoyishi uchun mo'ljallangan (soat, suvosti uskunolari va x.k.).

Shou-akvariumlar — klub, restoranlarda inson va gidrobiontlar ishtirokida suvosti shousi namoyishi uchun ishlatiladi.

Maxsus akvariumlar — baliqlarni ko'paytirish, ilmiy tajribalar, tryukli kino va video tasvirlar va x.k. lar uchun mo'ljallangan.




3.3.1.rasm Akvariumlarni interyerda joylashtirish

Akvarium joyini tanlashda, interyer qismlari o'lchamlarini hisobga olish kerak. Uy suv havzasi ulkan shkaflar orasida "cho'kib" qolmasligi kerak. Sig'imning o'zini tomoshabin ko'zi darajasida joylashtirish kerak. Juda yorqin oboylar fonida, hatto juda yorqin baliq ham rangsiz ko'rinadi, shuning uchun, orqa devorni yaxshiroq dekorlash kerak. Akvariumni baland shovqin manbalari (ko'p baliqlar shovqindan qo'rqadi), hamda deraza yonida joylashtirish kerak emas. O'simliklarga baribir deraza oynasidan o'tuvchi yorug'lik yetarli

emas, to'g'ri quyosh nurlari esa, suv o'tlarining juda tez o'sishiga sabab bo'ladi. Akvarium katta massaga ega, uning katta qismini suv tashkil qiladi va suvda yoki bevosita suv yaqinida joylashgan bir necha elektr uskunalari mavjud, akvarium juda ham nozik inshootdir. Shuning uchun, uning xavfsizligi kafolatlangan. U chidamli gorizontal asosda turishi kerak. Bunda SNiP 2.08.02—89* bilan reglamentlashuvchi qavatlararo to'sinlarning me'yoriy yuklamalari haqida unutmazlik kerak, u $600...800 \text{ kg/m}^2$ ni tashkil qiladi. Masalan, $1,6 \times 0,45 \times 0,9 \text{ m}$ o'lchamli silikat oynali akvarium suv, tuproq, bezaklar va qopqog'i bilan taxminan 800 kg og'irlikka ega bo'ladi. Asos maydoni $0,72 \text{ m}^2$ bo'lganda, yuklama 1100 kg/m^2 dan ko'pni tashkil qiladi, bu me'yordan ancha yuqori. Yana bu podstavka to'siniga ta'sirdan tashqari, uni monolit-g'ishtli qilib, loyihalab, tayyorlangan. Balandligi $0,87 \text{ m}$ bo'lgan bunday podstavka massasi 870 kg ga yaqin. Quvurlardan tayyorlangan metall karkasdan foydalanish yoki akvarium proporsiyasini o'zgartirish (masalan, enini) masalaning yechimi bo'ladi. G'ishtli-monolit va beton podstavkalarining kamchiliklari ortiqcha vazn bilan chegaralanmaydi. Akvarium filtri uning ichida emas, tumba-podstavka ichida joylashganda, akvariumga xizmat ko'rsatish qulay bo'ladi. Bundan tashqari, filtrning tashqi joylashuvi — bezatuvchi oldiga akvarium ichidagi filtrni dekorlar bilan to'sish masalasini qo'ymaydi va shu bilan birga, vaqti-vaqti bilan tozalash uchun unga etish qulayligini ta'minlashni talab qiladi. Agarda podstavka tekis yuzali monolit temir-beton inshoot bo'lsa, u holda kafolat bilan muammo bo'lmaydi. Lekin, filtr va boshqa uskunalarini joylashtirish bilan murakkabliklar tug'iladi. Akvarium polli, qurilgan, dioramali yoki osma bo'lishi mumkin. Uni xona o'rtasiga yoki devor bo'ylab, mehrobga joylash yoki bo'sh burchakga o'rnatish, to'siq sifatida foydalanish mumkin. So'nggi holatda, sig'im ikki qarama-qarshi tomoni shaffof bo'ladi. Agarda akvariumni qo'yishga joy bo'lmasa, uni devorga ilinadi. Xavfsizlik nuqtayi nazaridan, konsol mahkamlangan akvariumlar sm dan ortiq massaga ega bo'lmasligi kerak. Deyarli har doim bunday kostruksiyalar baget bilan o'raladi va shuning uchun, akvarium-kartina deb nomlanadi. Akvarium-kartina devorda o'ziga xos ko'rinadi va deyarli joy egallamaydi. Demak, eni $10...12 \text{ sm}$ li ikki, uch chelakli idishda

faqat juda mayda baliqchalar boqiladi, ularni uzatilgan qo‘l uzunligi masofasida kuzatish qiziqdir. Oddiy kartina sifatida, kartina-akvariumni tik turgan inson boshi darajasida osiladi.



3.3.2-rasm. Akvariumlarni interyerda joylashtirish

Agarda joy bo‘lmasa, akvarium tagida mehrob qilish mumkin. Masalan, eni 130 sm va chuqurligi 35 sm bo‘lgan mehrobga juda katta 200-litr hajmli banka joylashadi. Mehrob o‘rniga devorda teshik hosil qilish ham mumkin. U holda, akvarium funksionalligi sezilarli ortadi. Chunki, bitta akvarium bir yo‘la ikki xonada joylashgan bo‘ladi. Faqat barcha devorlar ham, bu uchun yaroqli bo‘lmaydi. Qurilgan akvarium mehrob yoki xonalararo to‘siq qismi bo‘lishi mumkin, shuning uchun, uning chuqurligi odatda 350 mm dan oshmaydi, eni esa ko‘pincha 3 m ga etadi. Kichik gabaritli xonadonlarda akvarium-to‘siq juda qulay. Kunduzi u ko‘proq yorug‘ xonadan kuzatish uchun qulay, kechqurun esa, ajoyib yotoq yoritgichi sifatida xizmat qilishi mumkin, chunki u aralash xonalardan bir xil ko‘rinadi. Bu konstruksiyaning kamchiligi – bu akvarium asosi va uning ostida devor qalinligining deyarli bir xilligidir. Natijada, akvariumga xizmat ko‘rsatish imkoniyatini

ta'minlash uchun, uni teshik balandligidan quyiyoqqa yoki akvariumni teshik balandligi bo'yicha joylashtirib, uni enini minimum ikki martaga oshirish kerak, shunda ixtiyoriy joydan qo'l bilan tubigacha etish mumkin bo'ladi. Bunda tubning butun maydon bo'yicha ishonchli tayanchi uchun qo'shimcha podstavka tayyorlashga to'g'ri keladi.



3.3.3-rasm Ish joyidagi akvarium.

Bu kutish vaqtini bezatish uchun mijozlarni qabul qilish joyi ham, rahbar xonasi ham bo'lishi mumkin. Rahbar xonasi – universal xonadir: unda ishlaydilar, murakkab kelishuvlar, majlislar olib boriladi va dam olinadi. Zamonaviy ofis interyerida akvarium tinchlantirish va yumshatish vazifasini ajoyib bajaradi. Ma'lumki, rahbarlar katta o'lchamli akvariumlarni afzal ko'radilar. Bu faqatgina ularning yetakchilik mentalitetiga mos kelibgina qolmasdan, lekin akvariumning optimal funksiyasiga ham ko'mak beradi. Qiziqarlisi shundaki, interyerining boshqa unsurlaridan farqli ravishda, akvarium xonaning vizual qatori garmoniyasini buzishi mumkin bo'lgan o'lchamlar bo'yicha cheklolarga ega emas. Akvarium buyurtmasi texnologiyasini va uni bajarish imkoniyatini aniqlovchi asosiy omil – bu uning transportabelligidir, tayyorlangan joydan montaj joyigacha “o'tkazuvchanlik” va “o'tuvchanlik” dir. Agarda akvarium juda og'ir (yuzlab, hatto minglab kilogramm og'irlikda) bo'lganda, eshikdan o'tmasa, burilishlarda tiqilib qolsa va x.k. holatlarda, uni faqat o'sha joyda tayyorlash mumkin, bu germetikning noxush hidlari va ustalarning bir necha kunlik mehnati bilan bog'liqdir.

Akvariumlarni bezatish

Suvosti dunyosi uchun zaruriy bo'lgan uskunalarining standart to'plami – tuproq, toshlar, ildizlar, korallar, malyuskalar chig'anoqlari va o'simliklar – bilan tajribalar o'tkazib, eksklyuziv akvariumli dizayn yaratish mumkin. Oddiy yechimlardan biri – akvariumning vizual markazini tanlashdir (yirik baliq, ekzotik o'simlik, noodatiy toshlar), u butun suvosti kompozitsiyasini tashkil qiladi. Akvarium interyer rangi bilan uyg'unlashishi kerak. Asosiy (dominant) rangni o'simliklarning massiv guruhi, tuproq yoki baliqlarning o'zi beradi. Qoida bo'yicha, dengiz peyzajlarida alohida sariq, olov rang va qizil ranglarning kontrast yorqinliklari bilan sovuq ko'k-zangori rang gammasi ko'proq uchraydi. Bunday akvarium o'tish hududida qiziqarli ko'rinadi, lekin ko'p soatli kuzatish va charchoqni yechish uchun haddan ortiq og'irdir. Chuchuk suvli akvariumlarda issiq va tinch yashil va tillasimon-jigar rangli tuslar dominantdir. Aynan shu rangli yechim tinchlanish va dam olish imkonini beradi. Bundan tashqari, u asosiy materiallari natural – ya'ni, turli-tuman daraxt turlari, mato, charm-teri bo'lgan mumtoz interyer bilan juda mos keladi. Bunday akvariumni dam olish hududi (divan yoki kreslo) qarama-qarshisiga o'rnatgan afzal. Tirik o'simlikli barcha sig'imler tepada osilgan lampa bilan yoritiladi, shunga ko'ra, suvosti hayoti tabiiy ko'rinadi. Agarda akvariumda tirik o'simliklar bo'lmasa, yoritish juda g'aroyib rangda bo'lishi mumkin: qizil, sariq, yashil, ko'k, binafsha ranglarda. Bu holatda, mebel, oboy, pardalar, pol qoplamalarining umumiy gammasiga eng yaxshi mos keluvchi variantlar tanlanadi. Suvosti peyzajini bezatishda qanchalik ko'p fantaziya jalb qilinsa, akvarium shunchalik qiziqarli bo'ladi. Suvda tirik jonzorlar umuman bo'lmasligi mumkin, qasr, cho'kkan kema, cho'qqilarning qandaydir panoramasi joylashishi mumkin. Akvariumlar ko'pincha juda g'aroyib shaklga, masalan baland va g'alati qayrilgan ustun shakliga ega bo'ladi. Bu havo pufakchali yorqin favvorali suvning ajoyib ustunidir. Avangard yechimlar sohasiga ko'pgina pufakchali panellar va sharsharalar kiradi. Bu yerda asosiysi – xona dizayni bilan ideal mos kelishdir. Qoida bo'yicha, bunday akvariumlar ko'pincha qurilish ishlari jarayonida hosil bo'lgan, bo'sh qolgan mehroblarni to'ldiradi, xonalararo to'siqlar, yoqimli yarim


qorong'ulikni hosil qiluvchi o'ziga xos bra vazifasini bajaradi, yoki dizaynerning qandaydir g'oyasini oddiy ta'kidlaydi. Akvarium uslubini aniqlab, uning jonzotlari haqida ham o'ylab ko'rish kerak. Ba'zilar ekzotik rangdagi mayda chaqqon baliqchalarni, boshqalar – dangasa yirik karplarni afzal ko'radi, bu karplar xo'jayini harakatiga boshqa jonzotlar kabi javob reaksiyasiga egadir. Ixtiyoriy holatda, baliqlarga yashash uchun komfort sharoitlar yaratish kerak. Yirik turlarga suzish uchun kenglik talab qilinadi, shuning uchun akvariumni dekorativ unsurlar bilan, ayniqsa, bu baliqlar yomon chiqishuvchi o'simliklar bilan to'ldirish kerak emas.

Akvarium faqat o'yin yoki interyer bezagi emasligi haqida unutmaslik kerak. Akvariumni joylashtirish, yoritish, bezatish bo'yicha ixtiyoriy yechimlarni – uning jonzotlari qiziqishlaridan kelib chiqib qabul qilish kerak. Baliqlar uchun hayotiy fazoni to'g'ri tashkil qilish va ularni uzluksiz parvarishi natijasida, akvarium xonaning haqiqiy bezagi bo'ladi.

Interyerdagi suv havzalari.

Suv havzalari vazifasi va komponentlari

Zamonaviy texnologiyalar dekoratsiyalar yaratish uchun, suv, yorug'lik va ajoyib bezak materiallaridan foydalanish imkonini beradi, ularning turli-tkmanligi ko'pincha faqat dizayner fantaziyasi bilan chegaralanadi. Interyerlar dizayniga suv havzalarini qo'shish – diqqatni aksentlashning, mehmonlar va mijozlarni jalb qilish, interyer dizaynini tabiiy unsurlar bilan to'ldirish va ofis yoki turar-uy xonasini namlashning doimiy qulay usulidir.



3.3.4-rasm. Interyerdagi suv havzalari

Ixtiyoriy sun'iy suv havzasi quyidagi komponentlardan tashkil topgan.

Suv havzasi lojesi — bu kotlovan bo'lib, suv havzasiga quyilgan suv unga "tayanadi". Shunga ko'ra, suv havzasi lojesi bir nechta funksiyani bajaradi:

- 1) suv havzasi qirg'oqlari konturini beradi;
- 2) suv havzasi tubi relyefini beradi;
- 3) suv uchun tayanchdir;
- 4) gidroizolyatsiya uchun asosdir.

Suv havzasi lojesi plastik va shishatolali tayyor shakllar asosida tayyorlanadi yoki gidroizolyatsion materiallar: beton va turli plenka materiallardan foydalaniladi. Yaqinda sun'iy suv havzasini betondan qurish qabul qilindi. Shuni aytish joizki, beton tubli suv havzasini o'rnatish — yaxshi g'oya emas, chunki suv havzasini o'rnatishda xatolik holatida, uni to'liq buzishga to'g'ri keladi. Zamonaviy texnologiyalar juda turli-tuman materiallar kombinatsiyasidan foydalanish imkonini beradi, masalan, bir suv havzasida beton, plastik, rezina, shisha, oyna birligi ishlatilishi mumkin. Bugungi kunda sun'iy suv havzasi — bu murakkab va estetik konstruksiya, unda eng zamonaviy texnologiyalar ishlatiladi. Ko'pincha, shishatola asosli kompozit tayyor shakllar ishlatiladi.

Suv havzasi gidroizolatsiyasi — bu maxsus materiallardan tashkil topgan to'siqdir, u suv havzasiga quyilgan suvning oqib ketmasligi, tuproqdan chiquvchi suvning esa, suv havzasiga tushmasligi uchun xizmat qiladi.

Oziqlanish/avariyali suv chiqarish tizimi issiq havoda suvning parlanishini kompensatsiyalaydi va suv havzasining toshib ketmasligi uchun xizmat qiladi. Filtratsion tizim suv havzasining estetik ko'rinishini ushlab turish uchun zarur bo'lgan, suv havzasidagi suv sifatini ta'minlaydi. Suv havzasining dekorativ qo'shimchasi — bu favvoralar, sharsharalar va boshqalar.

Sharshara — bu turli sathlarda joylashgan ikkita suv havzalari orasidagi suvning pastga oqishi uchun tabiiy yoki sun'iy o'rnatilgan oqim. U doim insonni mahliyo etib, diqqatini tortgan. Aynan shuning uchun, bugun sun'iy sharsharalar juda turli-tuman interyerlar dizaynining ajralmas qismi bo'lib qolgan. Ular xonaga ajoyib ko'rinish

berishga, uni qiziqarliroq qilishga yordam beradi. Ofislardagi, masalan, dam olish hududlari, xollar, yo'laklar yoki kelishuv xonalaridagi sun'iy sharsharalar katta ommaviylikka egadir. Ko'pincha sun'iy sharsharalarni restoranlar, kafe, bar, dam olish va savdo markazlarida uchratish mumkin. Sharshara konstruksiyasiga baliqli akvarium yoki hovuzni, kaltakesak, ilon yoki timsohli terrariumni kiritish mumkin.

Yengil, chidamli va uzoq muddatli plastik konstruksiyalar sharsharani ixtiyoriy xonada joylashtirish imkonini beradi. Plastikdan tashqari, sharsharani tayyorlashda polimerbeton, tabiiy tosh, shisha, daraxt, bambuk va x.k.lar ishlatiladi. Suv – tabiatda eng ko'p tarqalgan modda, u barcha ixtiyoriy materiallar bilan mos tushadi. Suv pastga alohida irmoqlar bilan oqadimi yoki g'adir-budur yovvoyi toshni yupqa yaltiroq plenka bilan qoplaydimi; karnizdan shleyf ko'rinishida oqadimi yoki metallning polirovkali yuzasida million yaltiroqlar bilan o'ynaydimi; ichidan yoritiluvchi optotola yuzasidan yoki vitraj shishalari ustidan oqadimi; yog'ochli tegirmon g'ildiragini aylantiradimi yoki o'simliklar bargini qimirlatadimi qat'iy nazar, sharsharalarning har biri interyerning haqiqiy bezagi hisoblanadi. Ipli (ipsimon) sharsharalar – sun'iy toshdan yasalgan mumtoz sharsharalarning va haddan ortiq tarqalgan shishali va oynali xay-tek uslubi-dagi sharsharalarning uslubiy muqobilidir. Ular ikki ko'rinishda bo'ladi: irmoqli (ipsimon irmoqlar) va yomg'irsimon (ipsimon yomg'ir).


Yomg'irli sharshara – bu ipsimon sharsharalarning eng samarali va original turidir. Suv xuddi yo'q joydan paydo bo'lib, ingichka iplar bo'yicha, tomchilab oqadi, bunda noreal suvli parda hosil bo'ladi. Yomg'irli parda – grafik tasvirlar va kompaniya logotiplari uchun ajoyib fondir. Bunday sharshara tomchilarining tushish tezligini boshqarish mumkin.

Yomg'irli sharsharalar ofislar, ko'rgazma va uylarda ajoyib ko'rinadi. Sharshara diqqat-e'tibor markazi, interyer dizayni aksenti bo'lib xizmat qiladi.

Yomg'irli sharsharalar juda tinchlantiruvchi va zo'riqishni oluvchi sifatida qabul qilinadi, bu ayniqsa, zamonaviy inson uchun, uning tezkor hayot ritmida juda muhimdir. "Ipli yomg'ir" ga tinchlanib va hamma narsani unutib, soatlab tiqilish mumkin. O'lchamlari va shakllari bo'yicha farqlanuvchi ko'p sonli sharsharalar mavjud,

ular ulkan va haqiqatdan buyuklardan to yetarlicha oddiygacha bo'ladi, lekin insoniyat nazari va qulog'ini katta samara bilan sehlrab qo'yadi. Odatda, sharshara suv oqimi yo'lida sathlarning sezilarli o'zgarishiga ega, cho'qqisimon qirralarning uchrashida hosil bo'ladi. Qoida bo'yicha, uning uchun 10...15 sm kenglik yetarlidir. O'ziga xos sun'iy sharsharani loyihalash uchun, toshli tepalikda toshlarni shunday joylashtirish kerakki, bunda suvli oqim o'ziga xos oqimli rasmga ega bo'lsin.

Favvora (ital. fontana, lotincha: fons, fontis — manba, kalit) — yuqoriga otiluvchi yoki pastga oquvchi suv oqimlari uchun asos yoki qobiq bo'lib xizmat qiluvchi inshoot. Dastlab favvoralar faqat ichimlik suvi manbasi sifatida qurilgan. So'ngra harakatlanuvchi suvning arxitektura, haykaltaroshlik va yashil ekinlar bilan uyg'unligi — arxitektura va bog'-park san'atida turli yechimlarni yaratish vositalaridan biri bo'lib qoldi. Favvoralarining tashqi ko'rinishi diqqatni tortadi, suv sharqirashi esa, asablarni tinchlantiradi va fikrlarni tartibga solishga yordam beradi. Yana favvoralar havo namlantiradi, shuning uchun, favvoralar yonida yengil nafas olinadi. Zamonaviy texnologiya va uskunalar ixtiyoriy o'lchamdagi xonada haqiqiy favvorani yaratish imkonini beradi. Interyerli favvoralar — bu doimo yangilovchi, ilhomlantiruvchi va tiriltiruvchi narsadir. Ularning yordamida, faqatgina uyda emas, balki ofisda ham sog'lom iqlim yaratish mumkin. Interyerdagi fontan havo ionizatsiyasi bilan ham shug'ullanadi.



3.3.5-rasm Interyerdagi suv havzalari

Suv havzasini yoritish

Suvning yorug'lik bilan o'zaro ta'sirida ko'pgina o'ziga xos xususiyatlarga egadir, aynan, ularni hisobga olib, suv havzasini yoritishda rioya qilinuvchi bir qator prinsiplar hosil bo'lgan. Suvli tekislikning bosh xususiyati – yuqori yorug'lik qaytaruvchanlik xususiyatidir, ya'ni tushuvchi yorug'likning kattagina qismi suv yuzasida akslanadi, uning qalinligidan o'tmaydi. Suv ostidan yo'naltirilgan yorug'lik esa, aksincha, hech bir to'sqinliksiz xonaga tarqaladi. Shu qarashlarga ko'ra, suvni tashqaridan emas, ichkaridan yoritgan afzaldir. Suvdan xonaga soyalar tushuvchi yoritish mumkin emas. Bu talab albatta, suv qalinligida yorug'lik oqimlarining taqsimlanishida, hisobga olinishi kerak. Suvosti yoritish uskunolari bir-biriga qarama-qarshi o'rnatiladi, chunki ular hosil qilgan nurlar gorizontaal yuza bo'ylab bir-biri bilan uchrashuvchi yo'naltirilsin. Suv havzasini yoritish ishida funksionallik va xavfsizlik aspektlari sezilarli ahamiyatga egadir. Yetarlicha yorqin yorug'lik ham havo, ham suvli fazoni bir tekis yoritishi kerak. Yoritish vazifasi va xarakteri bo'yicha (yoritish samarasi) turlicha bo'lgan, suv havzalari uchun yoritgichlarning bir nechta turlarini ko'rib chiqamiz.

Suvosti proyektorlari – bu suvda turli chuqurlikda joylashgan, quvvatli yoritgichlardir. Suvosti proyektorlar yorug'lik oqimining tarqalish burchagi va quvvati bilan farqlanadi. Projektorlarda rangli samaralarni yaratish uchun bir necha yorug'lik filtrlari o'rnatilishi mumkin.

Ular hovuzning turli bo'laklarini va qirg'oq sohalarini yoritishi mumkin, ayniqsa, favvoralarda o'rnatishda samaralidir.

Suzuvchi yoritgichlar – issiqlikka chidamli, sinmaydigan materialdan tayyorlanadi, suvda ham, qirg'oqda ham ishlatilishi mumkin. Ular ichkaridan chiquvchi yumshoq nur taratadi, juda dekorativ. Shuningdek, yuzada suzib, suv tubini yorituvchi yoritgichlar turi ham mavjud, bu kunning qorong'i vaqtida, ayniqsa suv jonzoqlarini kuza-tish uchun juda samaralidir.

Nuqtali yoritgichlar – ko'p sonli kichkina obyektlar (turli o'simliklarga ega hududlar, alpinariy, irmoqlar va kaskadlar) ni yoritish uchun ishlatiluvchi kichikroq suvosti yoritgichlari, mayda lampochkali elektr girlyandalarga o'xshab ketadi. Ular suvda ham, qirg'oqda

ham o'rnatiladi. Suv havzasi uchun barcha sanab o'tilgan yoritgichlar mutlaqo xavfsiz, 12 V li kuchlanish tarmoqlaridan oziqlanadi.

Nazorat savollari

1. Interyerda akvariumlar qanday joylashtiriladi?
2. Ixtiyoriy sun'iy suv havzasi qanday komponentlardan tashkil topgan?
3. Akvarium joyini tanlashda, nimalarni hisobga olish kerak hisobga olish kerak?
4. Interyerdagi suv havzalarini yoritish xususiyatlari qanday?
5. Suv havzalarini yoritish turlari qanday?

GLOSSARIY

Aksonometriya (yun. *axon* – o‘q va *metriya* – o‘lcham) – predmetlarni chizmada parallel proeksiyalar yordamida tasvirlash usuli. Uch koordinata kesmalari bir xil o‘zgaradigan (izometriya) va faqat ikki koordinata kesmalari bir xil o‘zgaradigan (dimetriya) aksonometriyalar ko‘proq uchraydi. Aksonometriya yaqqol bo‘lishi bilan birga, unda tasvirlangan narsaning o‘lchamlarini topishga, predmetning askonometrik tasviri uning koordinatalar sistemasiga nisbatan to‘la shaklini va joylashishini tiklashga imkon beradi.

Antik davr (lot. *antiquitas* – qadimgi) – keng ma‘noda qadimgi davrni anglatuvchi atama; iste‘molda bo‘lgan ma‘noda esa Yunoniston va Qadimgi Rim tarixi va madaniyatining ellinizm davrini anglatadi.

Applikatsiya (lot. *application* – yopishtirish) – gazlama, qog‘oz va boshqa materiallarga rang – barang gazlama, qog‘oz bo‘laklarini tikish yoki yopishtirish yo‘li bilan naqsh ishlash, bezash. Shu usulda yasalgan gul, tasvir ham applikatsiya deb ataladi.

Arka (ravoq) – toqning bir turi; bino devorlaridagi deraza va eshik o‘rinlarining yuqori qismiga qo‘yiladigan mehrobiy yoysimon qurilma. Ravoq yonilgan, tabiiy yoki sun‘iy toshlar, beton, temir-beton, yog‘och va po‘lat singari materiallardan ishlanadi. Ravoqning tayanch qismi tovon, markaziy ponasimon g‘ishti yoki toshi esa qulf deb ataladi. Ravoqlar shakliga ko‘ra: yakka markazli, yarim aylana shaklli, baland markazli taqasimon, bir necha markazli nayzasimon, tuxumsimon bo‘ladi. Ustunlarga tiralgan bir xil hajm va shakldagi ravoqlar qatori qatorak (arkada) deb nomlangan.

Arxaizm (yun. *Archaios* – qadimgi, ko‘xna) – eskirib, iste‘moldan chiqib qolgan so‘z yoki ibora. Leksik (arkon, mirzo va h. k.), fonetik (ersa, birlan, emdi va h. k.), morfologik (bilur, turur, bo‘lg‘ay, burung‘i va h. k.), shuningdek frazeologik, semantik arxa-

izmlar bo'ladi. Arxaizm ko'proq adabiyotda o'tmish manzarasini aks ettirish, davr ruhini berishda uslubiy vosita sifatida qo'llaniladi.

Arxitektor (me'mor) – (qadimiy yunoncha. αρχι – bosh, katta, yunoncha – τέκτων – quruvchi, duradgor) – turli imorat va inshootlarni me'morlik qonun va qoidalari asosida ijod etuvchi va loyiha-lar ishlovchi mutaxassis.

Arxitektura (me'morlik) – foydalanishdagi maqsad va vazifa-lar, zamonaviy texnik imkoniyatlar va jamiyatning estetik qarashlari-dan kelib chiqib bino va inshootlarni, tabiat manzaralari bilan bog'liq muhitni bunyod etish, bog'lar yaratish sohasi bog'sozlik (bog'-park) san'atidir.

Arxitekturaviy loyiha – loyihalanishida me'morning qatna-shishi lozim bo'lgan va o'zida hajmda me'moriy yechimlarni mujas-samlashtirgan qurilish va shaharsozlik hujjatlarining me'moriy qismi.

Asimmetriya (qad. yunon. Ασυμμετρία – o'lchamlarning bir – biriga to'g'ri kelmasligi, μετρέω – o'lchayman) – simmetriyaning bo'lmasligi yoki buzilishi. Vizual obyektlarga nisbatan va tasviriy san'atda qo'llaniladi. Badiiy ijodda asimmetriya ko'pincha shakl yasovchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Baza – ustun, pilyastraning ostki qismi.

Bino – kishilarning yashashi, bilim olishi, ishlashi, hordiq chiqarishi uchun, hamda maishiy va ishlab chiqarish maqsadlari, shuningdek hayvon, parrandalarni boqish va buyumlarni saqlash uchun quriladigan inshoot.

Blik – nурсoya elementi – qattiq yoritilgan tekis yoki bo'rtib chiqqan silliq yuzada paydo bo'luvchi yorug' dog'. Asosan yorug'lik manbaining ko'zguli yoki ko'zguli – diffuz aksida yuzaga keladi, ma-salan quyosh nurlarining bir jismga urilishida.

Bosh reja (asosiy reja) –

1) me'morlikda shahar va binoning kelajakdagi rivojini aks ettiruvchi ilmiy asoslangan loyiha. Aholi yashaydigan manzillar (shahar, qishloq, yo'ldosh shaharcha va b.) da yangi binolar qurish, me'moriy obidalarni ta'mirlash, ko'kalamzorlashtirish, ko'cha, maydon, transport yo'llari, yer osti yo'llari, kanalizatsiya va boshqani vujudga keltirish kabilar aks etadi. Shahar qurilish ishlari (me'morlik, muhandislik, tibbiy, ijtimoiy taraqqiyot darajasi bilan qurish va loyihalash ishlari, aholi o'sish darajasini hisobga olish) va boshqa loyihalar bosh rejaga bo'ysundiriladi. Unda shaharning ma'lum yillarda ko'zda tutilgan taraqqiyoti, qayta tiklash ishlari, qurilishlarning muddatlari mujassamlangan bo'ladi;

2) sanoat korxonasini bosh rejasi korxona loyihasining asosiy qismlaridan biri bo'lib, tarkibiga ishlab chiqarish binolarini joylashishi, transport aloqalari, hududini obodonlashtirish va boshqa masalalarni rejalashtirishni uyg'unlikda hal qilish kiradi.

Buyurtmachi – unga nisbatan ish, vazifalarning bajarilishida manfaatdor bo'lgan shaxs (jismoniy yoki yuridik).

Dargoh (dargah) – 1) bo'sag'a, ostona, uy va hovli – joy, makon; 2) o'rda, qasr, saroy.

Dizayn (ing. design – loyiha, chizma, rasm) – narsalar muhitini estetik va funksional sifatlarini shakllantirish maqsadiga qaratilgan loyihalash faoliyati turlarini ifodalovchi atama.

Dizayner – rassom – konstruktor, turli xil sohalarda badiiy – texnik faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxs.

Diagonal – bir – biriga qarama – qarshi bo'lgan burchaklardan tortilgan kesim.

Diametr – (lot. *diametros* – ko'ndalang) aylana markazidan o'tuvchi vatar. Shu vatar uzunligi (ikki radiusga teng).

Eksterer – (fr. *Extérieur*, lot. *Exterior* – tashqi) – badiiy yoki meʼmoriy tashqi koʻrinish.

Element (lot. – dastlabki, boshlangʻich modda, materiya).

Eskiz (frans.) – badiiy asar yoki uning alohida qismlari gʻoyasini aks ettiruvchi dastlabki qoralama, homaki asar.

Fokus (lot. *focus* – oʻchoq, olov), optikada – nurlarning parallel dastasi optik tizimdan oʻtganidan soʻng dasta nurlari kesishadigan (yoki, agar tizim parallel dastani yoyiluvchi dastaga aylantirsa, nurlarning davomi kesishadigan) nuqta.

Fragment – (lot. *fragmentum* – singan boʻlak, parcha) – butun narsaning qismi.

Gorizontal – jisim, chiziqli va h.k.ning ufq tekisligiga parallel holati.

Grafika (yun. *graphike*, *grapho*– yozaman, chizaman) – tasviriy sanʼat turi. Rasm va rasm sanʼatiga asoslangan, lekin oʻz tasvir va ifoda vositalariga ega boʻlgan bosma badiiy asarlar.

Interyer (frans. *Interieur* – ichki) – meʼmorlikda – bino va inshoot (turar joy, jamoat va sanoat)larning badiiy bezatilgan va jihozlangan ichkari qismi.

Kapitel (lot. *capitellum* – kallak) – ustunning tepa bezatilgan qismi.

Kolonnada (frans. *colonnade*) – ustunlar qatori, gorizontal tarzda usti yopilgan qatorak. Toʻgʻri yoki egri chiziqli boʻylab bir yoki bir necha qator qoʻyilgan kolonna (ustun)lar usti yopilgan galereya.

Kompozitsiya (lot. *composition* – tuzilish, birlashish, bog‘lanish) – badiiy asarning mazmunan, xarakteri va maqsadi jihatidan bog‘langan qismlarining joylashishi.

Konsol (frans. *console*) – 1) bir uchi erkin, ikkinchi uchi qo‘zg‘almas qilib mahkamlangan balka, ferma yoki yuk ko‘taruvchi konstruksiya, shuningdek, konstruksiyaning tayanchidan chiqib turgan qismi;

- 2) qurilishda imorat uchun ishlatiladigan qism;
- 3) xonalardagi gul va haykalchalarning tagligi.

Konstruksiya (lot. *constructs* – tuzilish, qurilish) – 1) mashina, inshoot yoki "uzel" va detallarning tuzilish sxemasi, shuningdek, mashina, inshoot, "uzel"lar, hamda ularning detallari. Konstruksiyada kerakli qism va elementlarining shakli, hamda o‘zaro joylashishi, ularni birlashtirish usullari, o‘zaro ta’siri va qanday materiallardan yasalishi hisobga olinadi;

- 2) ilmiy yoki badiiy asarlarning tuzilishi;
- 3) bir sintaktik birlikni tashkil qiluvchi so‘zlar birikmasi.

Kontrastlik (frans. *Contraste* – keskin ifodalangan qarama – qarshilik) (psixologiyada) – obyekt yoki uning bir qismidagi tafovutlarning subyektiv ravishda oshirib idrok etilishi; qarama – qarshi sifatga ega bo‘lgan avvalgi yoki bir vaqtdagi qo‘zg‘alish tufayli sezgirlikning o‘zgarishi.

Kontur (frans. *Contour* – tashqi ko‘rinish) – 1) predmet yoki uning detallari umumiyqiyofasini ifodalovchi ko‘rinish, abris, chiziq. Kontur tasviriy ifodalash vositalaridan biri hisoblanadi. Uning yordamida shaklning xarakteri, harakati, qiyofasi ta’kidlanadi;

- 2) elektrotexnika va radiotexnikada induktivlik, sigam, elektr qarshiliklardan iborat berk zanjir.

Lessirovka – (olmon. *lasierung* – glazur) – asosiy rang ustidan yarim shaffof ranglarni qo‘llab chuqur turlanuvchi rang olish texnikasi.

Landshaft (nem. *land* – er, *shaft* – manzara) – tipologik tabiiy komplekslarni umumlashtiruvchi tushuncha: geologik zamini, relyefi, iqlimi, tuproqlari, o'simlik turkumi, hayvonot dunyosi, gidrologik rejimining bir xilligi bilan ajralib turadigan va tabiiy chegaraga ega bo'lgan hudud.

Maket (ital. *macchietta* – homaki loyiha) – 1) me'morlikda loyihalananayotgan yoki mavjud inshoot, ansambl, me'moriy majmua-ning kichraytirilgan hajmda tayyorlangan nusxasi. Maketlar gips, yog'och, plastmassa, karton kabi mahsulotlardan asl ko'rinishiga o'xshatib tayyorlanadi;

2) poligrafiyada matn grankalari va rasmlar nusxasi yopishtirilgan, bo'lg'usi nashr bichimidagi qog'oz varaqlari; unga sahifalashga doir texnik ko'rsatmalar ilova qilingan bo'ladi;

3) nashrning badiiy bezaladigan eskiz loyihasi.

Masshtab (nem. *mastab*, *map*– o'lchov va *stab* – tayoq), miqyos – chizma, plan, aerofotos'yoomka yoki xaritada joydagi masofalar uzunligiga nisbati. Masshtab sonli, chiziqli va ko'ndalang bo'ladi.

Mehrob (arab. – harb joyi; bu yerda namoz paytida shayton bilan imom o'rtasidagi urush joyi ma'nosida) – masjidning Makka (Kaaba)ga qarata yo'naltirib devor ichiga ishlangan ravoq shaklli joy, sajdagoh. Mehrob yarim aylana, ko'p qirrali, to'g'ri to'rtburchak shaklda ishlanib, tepasi ravoq yoki yarim aylana shaklida bezaladi, atrofi hoshiyalangan bo'ladi. Ayrim mehroblar yog'och, ganch, naqshinkor marmar va koshinlar bilan qoplangan, badiiy bezakli ustunlar va ravoqli hoshiyalar bilan bezatilgan.

Model (lot. *modulus* – o'lchov, me'yor) – 1) mashinasozlikda – ko'plab ishlab chiqarish uchun etalon (standart) sifatida ishlatiladigan namuna; biror mahsulot, konstruksiyaning turi, markasi;

2) san'atda – a) buyumning loy, mum, gips, yog'och va boshqa materialdan tayyorlangan namunasi; keyinchalik undan qolip yoki

andoza olib, boshqa chidamli material (bronza, granit, marmar, metall va b.) dan asl nusxa (monument, haykal) ishlanadi;

b) rassom rasmini chizayotganda ma'lum vaziyatda turadigan kishi (naturachi) va, umuman, tasvirlanadigan obyekt;

3) qurilishda – bino, inshoot, mexanizm va boshqaning ilmiy, amaliy maqsadlarda qo'llaniladigan kichik (ba'zan, katta) masshtabdagi nusxasi, maketi;

4) matematika va mantiqda – muayyan aksiomalar sistemasining modeli obyektlari bo'lib, xossalari va ular o'rtasidagi munosabatlar muayyan aksiomalarni qanoatlantiradi;

5) tilshunoslikda – biror (morfologik, grammatik va b.) sistema etaloni (namunasi)ni bildiruvchi mavhum tushuncha; til sistemasi yoki uning biror tarmog'i ta'rifining umumiy sxemasi.

Modul (lot. *modulus* - me'yor, o'lchov) – me'morlik va qurilishda – majmualar, inshootlar va ularning qismlari o'lchamlarini ifodalash uchun qabul qilingan asbob, o'lchov. Modulni qo'llash natijasida bino, inshoot yoki uning qismlari o'lchamlaridagi takrorlanuvchan (karrali) nisbatlari beriladi, qismlar uyg'unlashadi, qismlarning mutanosibligi ta'minlanadi, hamda qurilish ishlari osonlashadi.

Monoxromiya (yunon. *mono* – bir va *chroma* – rang) – san'at asarining rang (kolorit) echimi; biror bir rangning bir tusli yoki uning tuslanishi (bir rangga bo'yash)ga asoslanadi. Masalan, grizayl.

Naturalizm (frans. *Naturalisme*, lot. *naturalis* – tabiiy) – XIX asrning oxirgi choragida Yevropa va AQSH adabiyoti va san'atida yuzaga kelgan oqim va ijodiy metod; real borliqni obyektiv, aniq va hissiz aks ettirishga intilgan. Asosiy tasvir obyekti – inson, uning tabiiy va fiziologik hayot tarzi; tabiat va atrof – muhitni uning maishiy va moddiy muhiti deb bilgan.

Ortogonallik – (yunon. *ὀρθογώνιος* – to'g'ri burchakli, *ὀρθός* – to'g'ri, *γωνία* – burchak) – skalyar asar kiritilgan chiziqli fazo uchun perpendikularlikni birlashmasi.

Obyekt (lot. *objectum* – narsa, anjom) – falsafiy toifa, epistemologiya doirasida haqiqatda mavjud bo'lgan, kuzatuv (o'rganish) jarayonining va subyektning (kuzatuvchining) e'tibori qaratilgan predmet, voqea, hodisadir.

Palitra (frans. *Palette*) – 1) rassom ishlash jarayonida bo'yoqlarni aralashtiradigan moslama; yog'och, metall, chinni (fayans)dan yupqa qilib to'rtburchak yoki oval shaklida tayyorlanadi;

2) ko'chma ma'noda – rassomning rangtasvir (ranglar tanlash va ishlatish) uslubi, hamda alohida rangtasvir asari uchun xos bo'lgan ranglar to'plami.

Parallel (yun. *parallelus* – yonida boruvchi) – 1) geografiyada – Yer yuzasida ekvatorga parallel o'tkazilgan shartli doira chizig'i;

2) astronomiyada – osmon sferasining kichik aylanasi; tekisligi osmon ekvatori tekisligiga parallel bo'ladi. Osmon sferasining olam o'qi atrofida ko'rinma sutkalik aylanishi natijasida osmon nuqtalari (olam qutblaridan tashqari) o'tgan yo'llardan iborat.

Parallelepiped (yun. *parallelus* – parallel va *epipedon* – tekislik) – qarama – qarshi o'qlari o'zaro parallel va teng parallelogrammlardan iborat oltio'qlik.

Parallelogramm (yun. *parallelus* – parallel va *gramma* – chiziq) – qarama – qarshi tomonlari parallel bo'lgan to'rtburchak. Parallelogrammning qarama – qarshi tomonlari tengdir.

Pavilon (frans. *pavilion*, lot. *papilio* – chodir) – 1) atrofi ochiq, yengil va ixcham qurilgan ko'shksimon imorat, shiypon;

2) Yevropa saroylarining tarkibiy qismi: tomi alohida yopilgan yengil bino;

3) vaqtincha yoki doimiy foydalanish uchun qurilgan yengil inshootlar;

4) teatrda – interyerni gavdalandiruvchi dekoratsiya.

Perpendikular (lot. *perpendicularum* – tik) – to‘g‘ri chiziq (yoki tekislik) ni to‘g‘ri burchak ostida kesuvchi to‘g‘ri chiziq.

Perspektiva (lot. *perspicio* – aniq ko‘raman) – mavjud borliqni inson idrok etganidek biror tekis yuza (qog‘oz, taxta, devor va b.) da fazoviy holati va ularning bo‘laklarini kuzatish nuqtasidan uzoqlashuvini tasvirlash tizimi.

Planshet (frans. *planchette* – taxtacha) – 1) menzulaning bir qismi; 40 sm*40 sm dan 60 sm*60 sm gacha bo‘lgan kvadrat shakldagi taxta;

2) ko‘z bilan chamalab planga olishda ishlatiladigan chiziqli qog‘oz, kompas o‘rnatilgan papka yoki taxtacha;

3) geografik va topografik xaritalar joylanadigan, tashqi tomoniga shaffof plastinka o‘rnatilgan tekis sumka;

4) artileriyada o‘t ochish uchun ishlatiladigan ishchi hujjat;

5) teatr binosida alohida o‘yiq taxtalardan ishlangan sahna poli.

Polixromiya (yunon. *poli* – ko‘p va yun. *chroma* – rang) – amaliy bezak san‘ati, haykaltaroshlik, me‘morlik asarlarida ikki va undan ortiq ranglilik. Asar yaratishda turli xil rangdagi xom ashyolarni ishlatish yoki asarlarni turli ranglarga bo‘yash orqali polixromiyaga erishiladi.

Proporsiya (lot. *proportion* – munosabat), mutanosib – 1) matematikada – a, b, s, d to‘rt kattalikning ikki nisbati orasidagi tenglik: $a:b=s:d$;

2) san‘at va me‘morlikda – badiiy asar yoki bino (inshoot) elementlarining bir – biriga nisbatan uyg‘unligi;

3) keng ma‘noda – qismlarning o‘lchamlarining o‘zaro nisbati, umuman, narsalar o‘rtasidagi miqdoriy munosabat.

Radius (lot. *radius* – nur) – aylana (yoki sfera)ning ixtiyoriy nuqtasini uning markazi bilan tutashtiruvchi kesma. Radius aylana diametrining yarmiga teng.

Refleks (lot. *refl exus*– orqaga qaytgan, shu’la) (tasviriy san’atda) – rangtasvir (ba’zan grafika)da biror narsadan qaytgan rang va nur shu’lasi; narsalarga uni o’rab turgan obyektlar (qo’shni narsalar, osmon va h.k.)dan qaytayotgan nurning aksi tushishidan hosil bo’ladi.

Relyef – (frans. *relief*, lot. *relevo* – ko’taraman) (geografiyada) – Eryuzasi, okean va dengiztubidagi tashqi ko’rinishi, o’lchamlari, kelib chiqishi, yoshi va rivojlanish tarixiga ko’ra turli tuman notekisliklar: tog‘, tekislik, past tekislik, adir, yasstog‘, tepalik, qir, vodiyy, botiq, soylik, jarlarva boshqa past – balandliklar majmui.

Standart (ing. *standard* – me’yor, namuna, o’lcham) – keng ma’noda – boshqa obyektlarni taqqoslash uchun dastlabki obyekt deb qabul qilingan namuna, etalon, model; standartlanadigan obyektga qo’yiladigan va vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan me’yorlar, qoidalar, talablarni belgilovchi me’yoriy texnik hujjat.

Standartlash – standartlarni belgilash, hamda ularni fan va texnika, xalq xo’jaligi tarmoqlarida qo’llash jarayoni. Standartlash fan, texnika va amaliy tajribalarning umumlashtirilgan yutuqlariga tayanadi.

Sxema (yun. *schema* – qiyofa, tashqi ko’rinish) – 1) muayyan qurilma, inshoot, mashina va boshqaning umumiy muhim tomonlari shartli belgilar bilan masshtabsiz ifodalangan chizma;

2) biror narsaning umumiy tasviri, bayoni, ifodasi.

Tarhyoki sxema deb biror qurilma, inshoot, umuman har qanday yetarlicha murakkab obyekt yoki jarayonni sodda tasvirlab beruvchi chizma,tasvirga aytiladi.

Tarz (fasad) – me’morlikda bino, inshootning tashqi (old, orqa, yon hovli, bog‘, ko’cha) tomondan umumiy ko’rinishi.

Tektonika – (yunon. τεκτονικός – qurilishga oid) – Yerning qattiq qobig'ining tuzilishini o'rganuvchi geologiya bo'limi.

Tokcha – xona devoriga ishlangan, uy – ro'zg'or buyumlari terib qo'yiladigan maxsus joy. O'rta Osiyo turar joy me'morligida mehmonxona to'rining 2 yoniga (o'rtasiga taxmon), yotoqxonaning o'rtasiga kiyimlar taxlash uchun (2 yoniga sandiq qo'yilib ko'rpa – yostiqlik taxlangan) ishlangan.

Trapetsiya (yun. *trapezion* – stolcha) – ikki qarama qarshi tomoni parallel bo'lgan to'rtburchakdir. Odatda, qolgan ikki tomoni parallelemas deb o'rganiladi. Trapetsiyaning parallel tomonlari trapetsiyaning asoslari, parallel bo'lmagan tomonlari esa uning yon tomonlari deyiladi.

To'sin – bino va inshootlarning tomi, orayopmalari, poliga ishlatiladigan va tayanchlarga tayanadigan konstruktiv elementi. Joyiga qarab temirbeton, metall va yog'och to'sinlar ishlatiladi. Ko'ndalang kesimi shakliga ko'ra, to'g'ri to'rtburchak, tavr yoki qo'shtavr, trapetsiya va doiraviy bo'lishi mumkin.

Ufq (gorizont) – (yun. *horizo* – chegaralayman) – ochiqjoyda Yer yuzasining ko'rinadigan chegara qismi yoki Yer yuzasining osmon sferasi bilan kesishadigan qismi.

Ustun – binoning tayanch qismi. Asosan, tomoni ko'tarib turishga xizmat qiladi. Ustun deyarli hamma xalqlarning me'morligida qadimdan mavjud. Ustunning shakli, hajmi, bezaklariga asoslangan me'morlik orderlarida kolonna va kolonnadalarining turli tasvir va naqshlar bilan bezatilgan o'ziga xos turlari mavjud kelgan.

Vertikal – pastdan yuqoriga 90° ostida tik turadigan chiziqli jism va h.k.

Zina (zinapoya) – bino va inshootlarning yuqoriga chiqib, pastga tushiladigan pog'onali qismi.

Chizma – bu texnik tasviriyl hujjatdir, u aniq va ko'rgazmali bo'lishi, quruvchiga me'mor va dizaynarning g'oyasini amaliyotga tadbiq etish uchun asos bo'lib xizmat qilishi kerak. Chizma o'z masshtabiga, o'lchamiga va shartli belgilariga ega bo'lishi kerak.

O'lcham – narsaning katta – kichikligi va hajmini ifodalaydigan raqam. Chiziqli, hajmiy, burchakli, ichki, tashqi va boshqalar turlarga bo'linadi.

ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBAALARI

Asosiy adabiyotlar:

1. M.I. Razikberdiev, O.K. Qosimov “Bino interyer jihozlari va arxitektura qismlarini loyihalash” «faylasuflar» nashriyoti toshkent – 2014.

2. A.A. Saidov. “Ergonomika” учебное пособие. Tasi, 2014.

3. A.A. Saidov. “Interyer loyihalash”. Taqi. 2009.

4. Л.Ю.Главатхски. “Специальное оборудование в нтерьеры” учебное пособие. Волгоград 2011..

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning “2017-2021 yillardagi O'zbekistonni rivojlantirishning 5 ta ustavar yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risidagi” 2017 yil 7 fevraldagi farmoni.

2. Зараковский Т.М. «Введение в Эргономику» 1974 г. М.сов. радио

3. А.А. Тиц. «Архитектура, стандарт, красота» Киев: Будивельник, 1972

4. П.Е Шпара., И.П Шпара. «Техническая эстетика и основы художественного конструирования». Киев, Издательское объединение Выща школа», 1989 г.

5. Холмянский Л.М., Щипанов А.С., Дизайн – М. Просвещение, 1985 г

6. Турсунов С.Т. Основы эргономики в бурении. Ташкент. ТГТУ, 2005.

7. Мейстер Д. Эргономические основы разработки сложных систем. Издательство «Мир»., М.1979 г.

8. Р. Арнхейм. Динамика архитектурных форм М.: Стройиздат – 1984 г.

9. И.П. Савченко и др. «Архитектура»М: В.Ш. 1982 г.

10. Бартенев И. А, Батжкова Б. И «Очерки истории архитектурных стилей» Москва Изобразительное издательство 1983 Б.54

11. Egamov A, Akilova K. B, Nishonova “Markaziy Osiyoda dizaynni rivojlantirish istiqbollari”.–Toshkent:Yangi nashr nashriyot, 2007. –B. 40.

12. Ubadullaev X, M Inog‘omov M. M “Turar joy va jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslar” Toshkent; 2009 Voris nashriyot ,B 108.

13. Markaziy Osiyoda dizaynni rivojlantirish istiqbollari Egamov A., Akilova .K B., Nishonova, Toshkent: Yangi nashr nashriyot, 2007 - B 36

14. Ткачев Б.Н, История Архитектуры Москва “Вышая школа” 1987-Б 92

15. Холмянский М.Л., Шипанов А.С., “ Дизайн” Издательство Посвещение 1988-Б 7016.

16. Zoxidov P Nosirova “Arxitekturaviy kompazitsiya asoslari” Toshkent; 2005 –B.55.

Internet saytlari:

1. www.natlib.uz/-Natsionalnaya biblioteka Uzbekistana
2. www.edu.uz
3. www.ziynet.uz
4. Autodeskeducation.com
5. Edu.autodesk.com
6. Adobe.com
7. Corel.com
8. www.istoriyasad.ru
9. www.photohistory.kiev.ua
10. Ziyo.uz.com
11. www.perviedetski.ru
12. www.Wikipedia.org/wiki/
13. www.dezign.by

Mundarija

Kirish	3
I – BOB. Interyerni loyihalash nazariyasi	7
1.1. Interyerva jihozlash fanining maqsad va vazifalari, Interyer tushunchasi. Interyerda rang.....	7
1.2. Interyerni loyihalashda asosiy uslub va yo‘nalishlar (stillar).....	16
II – BOB. Turar joy va jamoat binolarining interyeri va jihozlari	35
2.1. Turar joy binolarining asosiy va qo‘shimcha xonolari va jihozlashda muhim omillar.....	35
2.2. Turar joy binolari xonalarini jihoz yordamida funksional zonalash.....	55
2.3. Jamoat binolarining interyer yechimi va jihozlari.....	61
III – BOB. Bino interyerlarida qo‘llaniladigan zamonaviy pardozlash ashyolari. Interyerda yorug‘lik	79
3.1. Binolari interyerida qo‘llaniladigan zamonaviy materiallar va pardozlash ashyolari.....	79
3.2. Interyerda flora.....	101
3.3. Interyerdagi akvariumlar va suv havzalari.....	113
Glossariy	125
Foydalanilgan adabiyotlar	134

Maxkamov S. A., Daminova U.O., Shaumarova D.A.

INTERYER VA JIHOZLASH

5150900-Dizayn, 5341000- “Arxitektura” va 5150900 -“ Interyer va
landshaft dizayni” o‘quv yo‘nalishlari uchun

O‘quv qo‘llanma

Muharrir:	–	M.X. Mustafayeva
Musahhih:	–	I.T. Nishanbayeva
Musavvir:	–	Z.F. Shoimov
Kompyuterda sahifalovchi:	–	Z.F. Shoimov



Noshirlik faoliyatini boshlagani haqida vakolatli
davlat organini xabardor qilgani to'g'risida

TASDIQNOMA

№ 3991

2020 yil 23 oktyabrda bosishga ruxsat etildi

Bichimi 60x84, 1/16. Times New Roman garniturası.

Ofset bosma. Shartli bosma tobog'i 9, nashr bosma tobog'i 9.

Adadi 50 nusxada. 4-sonli buyurtma

“Shafolat nur fayz” nashriyoti Toshkent shahari, Uchtepa
tumani, Maxorat ko'chasi 71-uy. e-mail: shnf2017@mail.ru

“Shafolat nur fayz” MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahar, Olmazor tumani, Nodira-19
Telefon +99899 993-83-36

QAYDLAR UCHUN

This image shows a single sheet of white paper with horizontal ruling lines. The lines are evenly spaced and run across the width of the page. There are no margins, text, or other markings on the paper.

